

**O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus
ta'lim**

vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası



MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

fanidan magistrantlarga mo'jallangan

ma'ruza matni

**O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi**

**Buxoro Davlat universiteti
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'zbek adabiyoti kafedrası**



Qayd raqami _____

«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor _____ M.I.Daminov

«_____» _____ 2020

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

Билим соҳаси: 100000 – Гуманитар соҳа
Таълим соҳаси: 120000 – Гуманитар фанлар
Мутахассислик: 5A120104 – Матншунослик ва адабий
манбашунослик
5A120101-Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti)

BUXORO – 2020

Tuzuvchi:

N.J.Bekova - BuxDU O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, f. f. n.

Taqrizchilar:

M.B.Rajabova - BuxDU O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, f. f. n.

Z.Q.Amonova - BuxDU O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, f. f. n.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi **O'zbek adabiyoti** kafedrasining 2020 yil 25 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va fakultet Kengashi muhokamasiga tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri: H.P. Eshonqulov

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Filologiya fakulteti Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, o'quv jarayoniga tadbiq etish uchun tasdiqlandi.

Fakultet dekani: D.Z.Rajabov

BuxDU o'quv metodik Kengashi raisi M.I.Daminov

BuxDU ARM rahbari H.Y.Salixova

MUNDARIJA

t/r	O'quv uslubiy majmua elementlari	betlar
1	Ma'ruzalar matni	3
2	Amaliy mashg'ulotlar va (yoki) seminar mashg'ulotlar uchun materiallar	188
3	Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish bo'yicha zarur uslubiy ko'rsatmalar	209
4	Glossariy	217
5	Ilovalar -fan dasturi - ishchi dasturi - tarqatma materiallar - savolnomalar	221

1-ma'ruza. Adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tanqidiy tahlili

Dars o'quv maqsadi: talabaarga mutaassislik fanlarini o'qitish metodikasi fani haqida tushunchaberish, ularning bu sohadagi bilimlarini kengaytirish, metodikaga oid ilmiy qarashlarini rivojlantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Mutaxassislik fanlari, metodika, adabiy ta'lim, metod, ta'lim bosqichlari.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi kursi magistratura bosqichidagi talabalarga – bo'lajak adabiyot o'qituvchilari va shu sohaning tadqiqotchilariga mo'ljallangan bo'lib, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchi-larga ayrim adabiyotshunoslik fanlarining o'qitilishiga oid ilmiy-metodik tasavvurlar berish, bunda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, adabiyot o'qitishdagi rang-barang shakl va usullar bilan tanishtirib, ularni mustaqil ilmiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasb sirlarini egallash, kasbiy mahorat hosil qilish va takomillashtirishlarida har bir predmetning o'ziga xos xususiyatlarini teran o'rganish va o'zlashtirish barobarida ular orasidagi predmetlararo aloqalar mohiyatini bilishi va o'qitishda ularni e'tiborda tutishi ham muhimdir. Bu erda gumanitar yo'nalishdagi barcha fanlar, adabiyotshunoslik turkumidagi bir qator o'quv predmetlari, psixologik, pedagogik, shuningdek, umumfilologik yo'nalishdagi fanlar nazarda tutiladi.

Metodist olimlar O.YU. Bogdanova, S.A. Leonov, V.F. CHertovlarning ko'rsatishicha:

«М.А.Рибникова ҳар доим дидактикада қиқотлар кўрсаткичларига таяниб иштутган. Методиканинг асослари ҳақида гапириб туриб, утўртта асосий дидактик қоида ни қайд этади: таълим (ўқитиш) ўқувчиларнинг ҳиссий қабул қилишларининг турли томонларига таъсир қилиши керак; ўқувчилар ўз олдларига қўйилган вазифани аниқ тасаввур этишлари шарт; методистнинг маҳорати—

мураккаб нисоддада, янгини таниш нарсаларда кўрсатиб беришдани борат; дедукцияни индукция билан бирлаштириш муҳимдир. Рибникованинг методик тизимининг асосий баъби йилган» [1].

¹ Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fani bo'lajak til va adabiyot o'qituvchilarini o'z sohalaridagi bir qator fan asoslarini o'quvchilarga etkazish metodikasi ustida bahs yuritadi. Ma'lumki, ta'limning turli bosqichlarida adabiyotga oid bir qator fanlar o'rganiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu asosan «Adabiyot» darslari bo'lsa, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida «Adabiyot», «Xalq og'zaki ijodi», «Adabiyot qoidalari» dan iboratdir. Oliy ta'limda bu ro'yxat yanada kengaygan holda ko'rinadi. Biz bakalavriat bosqichidagi o'quv rejasini kuzatib bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Keyingi mashg'ulotlarda bu haqda mutaxassislik fanlariga to'xtab o'tishni rejalashtirganimiz uchun bu erda ayrim fanlarning o'ziga xosliklari ustidagina mulohaza yuritish bilan cheklanamiz. Eng avvalo, sohaga bevosita aloqador bo'lgan tushuncha va atamalar ustida to'xtash taqozo etiladi.

1) Biz ayrim fanlarning atamalari, tushunchalari bilan ularni o'qitish metodikasi fani orasidagi bog'lanishlardan kelib chiqishimiz kerak. SHunga ko'ra bu erda *obraz, personaj, obrazli-lik, tasvir vositasi, syujet, kompozitsiya* singari bevosita adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarga ham, *adabiyot tarixi, ayrim janrlarning shakllanishi va rivoji, davr va ijodkor* singari adabiyot tarixi va uning

rivojlanishiga oid jarayonlar bilan bog'liq atamalarga ham, shuningdek, *badiiy asarni tahlil qilish, metodlar tasnifi, badiiy asar tilini tahlil qilishning o'ziga xosliklari, asarni janrlar tizimiga (yoki obrazlar tarkibiga) ko'ra tahlil qilish* singari sofiy metodika tamalarga ham murojaat etamiz.

¹ Bogdanova O. YU., Leonov S. A., Chertov V. F. Metodika prepodavaniya literatury: Uchebnik. S.5.

Albatta, ular paydo bo'lish manbasiga ko'ra alohida-alohida guruhlarni tashkil etishi mumkin¹.

Birinchi turkumga pedagogika, uning alohida qismlari: didak-tika va tarbiya nazariyasidan, shuningdek, pedagogik psixologiyadan o'tgan atamalar kiradi. Ikkinchi turkumga esa bevosita adabiyotshu-noslik yo'nalishidagi fanlardan, psixolingvistikadan o'tgan ata-ma va tushunchalar mansubdir. Oxirgi turkumga bevosita o'qitish, tarbiya berish jarayoni bilan aloqador bo'lgan tushuncha va atamalar daxldor. Umuman, metodika fanining umumiy va xususiy ko'ri-nishlarga egaligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Umumiy metodika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida ta'lim va tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, barcha fanlarda bir xilda qo'llanishi mumkin bo'lgan ta'lim shakllari va usullari haqida, umumiy tarbiyashunoslik haqida yaxlit fikrlarga tayanadi. Xususiy metodika esa har bir fanning o'ziga xosliklarini mumkin darajada e'tiborga olish bilan ulardan farqlanadi. Masalan, umumiy pedagogikada ta'limning maqsadi haqida gapirish mumkin bo'lsa, alohida olingan fan, jumladan, adabiyot o'qitish metodikasida adabiy asarni o'rganishning maqsadi, alohida olingan bir adibning hayoti va ijodini o'rganish maqsadi haqida gapirish mumkin.

SHunga o'xshash, didaktikada ta'limning tarbiyaviy ahamiyati haqida umumiy tarzda fikr yuritiladigan bo'lsa, metodika ilmida bu aniqlashtirilib, lirik asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, epik asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, «Devonu lug'ot it-turk» dagi ayrim qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, «SHer bilan Durroj» masalining tarbiyaviy ahamiyati,

«Kecha va kunduz» romanining tarbiyaviy ahamiyati, «Abulfayzxon» dramasiining tarbiyaviy ahamiyati, Bobur obrazining tarbiyaviy ahamiyati, tabiat obrazining tarbiyaviy ahamiyati, Majnun obrazining tarbiyaviy ahamiyati, «O'zbekiston» she'rining tarbiyaviy ahamiyati tarzida shakllantirilishi mumkin.

Oliy ta'limning bakalavriat bosqichidagi «Adabiyotshunos-likka kirish», «Adabiyot nazariyasi» sof nazariy yo'nalishga ega. «Hozirgi adabiy jarayon», «Adabiyot tarixi», «Adabiy tanqidchi-lik», «O'zbek xalq og'zaki ijodi» fanlari esa o'ziga xos amaliy sohadir. Ular nazariy kurslardan olingan bilimlarga suyangan holda badiiy adabiyotning

rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganadi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish mustaqil fan sifatida ular-ning o'qitilishi bilan bog'liq bo'lgan umumiy muammolari yuzasidan bahs yuritish imkoniyatiga ega.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fani badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, paydo bo'lishi va rivojlanishidagi tarixiy taraqqiyot jarayonini, hozirgi holatini, muammolarini o'rganuv-chi, ularni ta'lim oluvchilarga o'rgatuvchi fanlarning pedagogik metodik imkoniyatlari haqida bahs yuritadi. Umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim – ta'limning turli bosqichlari o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutishni taqozo etadi,

¹ 2:23 Qarang: Lvov M.R. Slovar-spravochnik po metodike russkogo yazыka. M.: Prosveshenie, 1988, s. 5.

2-ma'ruza.

Adabiyotshunoslikka oid fanlarni o'qitishda umumiy kurslarning ahamiyati

Adabiyot o'qitish usuli pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o'qitish shartlarini va usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tadbiq etish, sinfda va uyda o'qish, shuningdek sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning shakli va usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Uning asosini badiiy asarni ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'rganish, o'quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonini tashkil qiladi. Shu jarayonda o'qituvchi yozuvchi yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Ta'lim metodi—bu o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish ularda dunyoqarashni shakllantirish, o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. O'qituvchi qo'llaydigan ish usullaridir. Usul amaliy mashg'ulotda o'z mohiyatiga mos tarzda

qo'llaniladi. Shundagina ya'ni aniq to'g'ri belgilangan usul, ta'lim va tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoni ikki tomonlama harakterga ega: o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi. Tabiiyki, o'qituvchining ham, faoliyatida ma'lum maqsad bo'ladi. O'qituvchining asosiy maqsadi ta'lim berish orqali o'quvchini tarbiyalash, unda axloqiy tushunchalarni rivojlantirishdir. O'quvchining asosiy vazifasi esa bilimlarni egallashdan iboratdir.

O'quvchi (ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchi) o'qituvchi faoliyatidagi maqsadning mohiyatini to'liq tushunmasligi, bilmasligi, ta'lim va tarbiya jarayonini to'liq tasavvur etmasligi mumkin. Ammo u o'qituvchi topshirig'ini bajarish kerakligini biladi, his qiladi.

O'quvchi o'qituvchining u yoki bu topshirig'ini bajarish bilan o'z bilimi ortib rivojlanib borayotganini sezadi, lekin o'rganayotgan fan usulini egallab borayotganini his etmaydi. Shunga ko'ra, o'qituvchi ta'lim berish jarayonida o'quvchilarga adabiy materialni ongli va chuqur qabul qilish uslublarini, mustaqil vazifalarni bajarishda undan foydalanishni o'rgatadi.

Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga adabiyot usuli va uning nazariy asoslarini har tomonlama chuqur bilish vazifasi qo'yilgan. Ilg'or rus metodistlaridan V.P.Ostrogorskiy so'zi bilan aytganda, badiiy adabiyotda kishilar hayoti va tabiatdagi turli hodisalar aks ettirilgan uchun, yoshlarning adabiy ta'limiga muvaffaqiyatli rahbarlik qilishini o'z ustiga olgan o'qituvchi, avvalo, ma'lumotli, har tomonlama kamol topgan bo'lishi kerak.

Adabiyot haqidagi fan adabiyotshunoslik bilan adabiyot o'qitish usulining vazifasi o'rtasida farq bor. Adabiyotshunoslik fani badiiy adabiyotning taraqqiyot qonuniyatlarini, badiiy asar yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, yozuvchilarning tarjimai holiga doir materiallar, hujjatlar, tanqidiy adabiyotlarni o'rganadi.

Metodist olim N.I.Kudryashev adabiyot o'qitish usuli oldida turgan vazifalarning ahamiyatini shunday ta'riflaydi «Adabiyot o'qitish metodikasi-bu o'quvchilarni o'quv predmeti sifatida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va unga to'g'ri rahbarlik qilish maqsadida bu jarayonning qonuniyatlarini ochishini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan xususiy pedagogika fanidir».

Adabiyot o'qitish usulining muhim vazifasi o'quvchilarning anglash faoliyatini boshqarishning samarali yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

O'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, o'z ona tili va adabiyotini va qardosh xalqlar adabiyotini sevish, xalqlar do'stligi va birdamligi ruhida tarbiyalash ham adabiyot o'qitish usulining birdan-bir asosiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiyot o'qitish usulining maktabda o'qitiladigan boshqa fan bilan aloqasi uning mazmunini belgilashda namoyon bo'ladi.

Adabiyot o'qitish usulida didaktikadagi kabi ilmiy tadqiqot, kuzatish maktab hujjatlarini o'rganish, tajriba va tahlil usullaridan foydalaniladi, tadqiq natijalarning to'g'riligi og'zaki va yozma tekshirishlar o'tkazish orqali aniqlanadi.

2. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar

bilan aloqadorligi

O'quvchilarda adabiyotga qiziqish, o'qishga havas uyg'otish maktab ta'limi sohasida olib boriladigan umumiy ishning uzviy qismi hisoblanadi. Shu boisdan ham, usul ta'limning maqsadi, vazifasi, tartibi va yo'llarini o'rganadigan didaktika, tashqi olamning inson faoliyati va xatti-harakatiga, ruhiyatiga ta'sir etish qonuniyatlarini o'rganuvchi ruhiyatshunoslik shuningdek, badiiy adabiyotni tadqiq etuvchi adabiyotshunoslik fanlari bilan bog'lanib ketadi. Bu bog'lanishlar adabiyot kursining mazmuni, ko'rilishi va maqsadini aniqlashda ochiq-oydin ko'zga tashlanadi.

Adabiyot o'qitish usulining ruhiyat haqidagi fan bilan aloqasi o'quvchilarning badiiy ijodida, adabiy rivojida va asarni badiiy qabul qilishida, aqliy va axloqiy rivojida namoyon bo'ladi.

Ruhiyat haqidagi fan bolalarning ruhiyatini o'rganadi. Metodika ijtimoiy hodisa ta'limning pedagogika jarayonini, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini, umumiy adabiy rivojini, bilim va ko'nikmalarining shakllanishni o'rganadi.

Maktab ta'limidagi pedagogika jarayonida juda murakkab hodisa bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi beradigan ta'lim o'quvchilarning o'quv mashg'ulotini bajarishi bilan o'zaro uzviy bog'lanadi. Shuning uchun har bir fan, ayniqsa, o'z xususiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin fanlar-adabiyot, til, tarix, musiqa, tasviriy san'at –maktabda uzviy birlikda o'rganiladi.

3. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan

bog'lab o'rganish

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tafakkur qilish faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida bilim tafakkur va faoliyat mahsuli sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

O'quvchilarda anglash faoliyatini oshirish uchun ularga ta'lim usullarini o'rganish muhimdir. Ta'lim usullari o'quv materialini puxta esda qoldirish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar ta'lim usullarini o'rganish natijasida oz vaqtini sarflab, ko'proq bilim olish, o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchidan o'quvchilarda ta'lim usullaridan foydalanish ko'nikmasini o'stirib borish talab etiladi.

Ta'lim usullari o'z darajasiga ko'ra, xususiy (faqat bitta mavzu yoki bitta fanga taalluqli) va umumlashgan fanlararo usullarga bo'linadi. Ta'limda bu usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimni o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish usuli u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ularda hosil bo'lgan ana shu tasavvurni umumlashtiradi, natijada o'quvchilarda u yoki bu fan haqida aniq tushuncha shakllanadi.

Darsda har bir voqea, atroflicha, ya'ni unga xos belgilarni o'zaro aloqada, birlikda o'rganish ularni puxta anglashni ta'minlaydi. Tabiatdagi o'zgarishlar haqida ilmiy fikr yuritish voqe'likni bilishda eng ishonchli yo'l bo'lib, u har bir fan bo'yicha to'plangan bilimlarni to'g'ri umumlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lash o'ziga xos xususiyatga ega. O'qituvchi mavzuni og'zaki bayon, suhbat, bilan o'tkazishni rejalashtirsa, oldin mavzuga oid dalillar to'planadi, u dalil mavzuga qiyoslanadi, qiyoslash yo'li bilan o'quvchilar o'qituvchining savollariga javob beradi, o'qituvchi ularning javobini umumlashtiradi va xulosalaydi.

Adabiyot darsida o'quvchilarga berilgan bilimni mustahkamlash maqsadida ham boshqa fanga doir materailardan foydalaniladi. Bunday vaqtda o'quvchilar-

ga asosiy maqsad aytiladi, tahlil jarayonida yangi mavzu qo'shimcha materiallarga bog'lab o'tiladi, keyin materiallarning qay darajada o'zlashtirilganligi aniqlanadi. Shu yo'sinda ish olib borish, bir tomondan, darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni yangi materialni faol idrok etishga tayyorlaydi, ikkinchi tomondan, o'qituvchilarning nazariy bilimlarini oshiradi, materialni uzoq vaqt xotirada saqlashlari uchun malakasini o'stiradi.

Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga q'iyoslash mumkin. Chunki fanlar o'quvchilarni dalil va hodisalar tahlilini turli usulda uyushtirishga o'rgatadi, bu esa o'quvchilarda qiziqish hissini ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'stirishga, aqliy fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Demak, o'quvchilarning adabiyotdan qay darajada chuqur va puxta bilimga ega bo'lishlari ularning boshqa ijtimoiy fanlar

bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan malaka hamda ko'nikmalariga suyangan holda ish ko'rishlariga ko'p jihatdan boq'liqdir.

Adabiyot fani o'quvchilarning estetik va g'oyaviy -ijtimoiy tarbiyasida ham g'oyat muhim rol o'ynaydi. Adabiyot ana shunday xususiyati bilan boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lanadi. Chunonchi, u estetik ta'sirchanlik xususiyati bilan ona tili va psixologiyaga g'oyaviy-ijtimoiy mazmuni bilan tarix va jo'g'rofiya bilan egizakdir.

Ijtimoiy fanlar o'z tarkibiga ona tili, adabiyot tarix, musiqa, ashula, rasm fanlarini qamrab oladi va ularni o'zaro birlashtiradi. Ammo ularning har biri o'zining tadqiq etish manbai va usuliga ega. Shu sababli, maktabda ularni o'rganishda o'quvchilarning bu fanlar o'rtasiga o'xshashlikni, har biriga xos xususiyatini, har birini o'rganish usullarini bilib olishlariga erishish o'qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Ijtimoiy fanlarni o'rganishning asosiy sharti o'rganiladigan hodisa va qonuniyatlarning tarixiylik, adabiy-badiiylik, til xususiyatlarini birlikda o'rganishda namoyon bo'ladi. Har bir fanning o'ziga xos xususiyatiga e'tibor berilmasa, bu tarixiy va adabiy hodisalarni o'quvchilarga tushuntirishda soxtalikka, chalkashlikka olib keladi.

Ijtimoiy fanlar o'zaro bog'liq holda o'rganilmasa, o'quvchilar ongida har bir fan bo'yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo'ladi, ular tarixiy, falsafiy, adabiy dalillar va qonuniyatlar haqida bir butun bilimga ega bo'lmaydilar. Bu esa o'quvchilarda ijtimoiy hayot va san'at voqealarini mustaqil aniqlash malakasini va izchil dunyoqarashni shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy fanlarni, ayniqsa adabiyot va tarixni o'zaro boq'liq holda o'rganishda axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy tarbiya har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni yetishtirish vazifalari bilan uyg'unlashib ketadi va umumiylikni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida, mashg'ulotlarda o'quvchilar inson ideallari faqat nazariy tushuncha bo'lmay, obrazli umumlashma ekanini ham bilib olishlariga imkon beradi.

Fanlararo aloqani amalga oshirishda, o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilishi bilan birga, boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi, avvalo, o'z

fanini, o'zi o'qitayotgan fanni, uning asoslarini bilishi kerak. U fanning mohiyatini, hozirgi ahvolini, uning taraqqiyotdagi asosiy bosqichlarni, uning boshqa fanlar bilan, ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasini bilishi, amaliyot bilan aloqasini tushunishi kerak.

Fanlararo aloqaga xos xususiyat nimadan iborat? Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganiladigan darslar odatdagi mashg'ulotlardan nimasi bilan farq qiladi?

Fanlararo bog'lanishga xos xususiyat, avvalo, darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi, ularni bog'lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to'g'ri tashkil etilishiga, qo'llanadigan usullarga boq'liqdir.

O'qituvchi dastur materiallarini o'tishda darsning mazmuniga, o'quvchilarning bilim saviyasiga o'zlashtirish qobiliyatiga, o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullarni tanlaydi. Shuningdek, o'qituvchi:

- 1) yangi mavzuni o'tishga ajratilgan soatni hisobga oladi;
- 2) boshqa ijtimoiy fanlar bo'yicha yangi mavzuni o'zlashtirishga yordam beradigan materiallarni aniqlaydi;
- 3) darsda qo'lash zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollarni (jadval, xarita, rasm, radiolar, magnitafon) tayyorlaydi va ulardan foydalanadi;
- 4) o'quvchilarning boshqa ijtimoiy fanlardan o'zlashtirgan bilim hamda egallagan ko'nikmalarini aniqlaydi va ularga suyanadi.

O'rta maktab o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini va nutqiy faoliyatini o'stirishda, badiiy asarni san'at namunasi sifatida anglab olishlarida adabiyotni ona tili bilan boq'liq holda o'qitish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarga badiiy vositalar-sifatlash, o'xshatish, istiora, jonlantirish, mubolag'a, ifodalash vositalari–ritorik so'roq, takror undov, inversiya, murojaat, shuningdek omonim, sinonim, antonim haqidagi ma'lumotlar, asosan V-VII sinflarda beriladi. Masalan V sinfda o'quvchilar Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini o'rganganda so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'noda ishlatilishi o'xshatish; Amin Umariyning «Uzum» she'ri bilan tanishganda sifatlash («Sharbatli lazzatli»);

«Chambil qamali» dostonidan olingan parchani o'qiganda dialog; Xudoyberdi To'xtaboevning «Sariq devni minib» romanidan parchani («Sehrlil qalpoqcha») mutolaa qilganda sarguzasht asar; Alisher Navoiyning qit'a va fardlarini o'rganishda fard; Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» dostonini tahlil qilishda didaktik badiiy asar; Boburning «Boburnoma» asari bilan tanishganda memuar janri; Uyg'unning «Jontemir» dostonini o'rganishda jonlantirish («Rang-barang chechaklar to'lg'anib, jozibali kulib boqqandir», «Mo'ylov burab, jilmayib tog'lar») haqida ma'lumot oladilar; asarlarning til va badiiy xususiyatlari bilan tanishish orqali tilning mohiyati, uslubiy, leksik va frazeologik boyligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Adabiyot va ona tili darslarini bir o'qituvchi olib borishi-bu fanlarni o'zaro aloqada o'rgatishga katta imkoniyat yaratadi.

Adabiyot so'z san'ati bo'lganligi tufayli, ona tilini asosli ravishda anglamasdan turib, o'quvchilar oldida adabiyotning go'zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkin emas. Ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchilarda so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyatini, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iboratdir.

V sinf ona tili kursining «Leksika» bo'limida o'quvchilar so'zning ma'nosi bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar; ko'chma ma'noda qo'llanishi, omonim, sinonim, antonim tushunchalari bilan tanishadilar. O'zbek tilining lug'at boyligi; o'zbek tili lug'atining boyish manbalari; umumxalq ishlatadigan so'zlar; shevaga doir so'zlar; kasb-hunarga doir so'zlar; yangi paydo bo'lgan so'zlar; eskirib qolgan so'zlarni o'rganadilar. Bu tushunchalarning hammasi adabiyot bilan boq'liqdir. Chunki badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi ona tili boyligini o'zlashtirishda asosiy manba hisoblanadi. «Leksika» kursi V sinfda tugallansa ham, uni o'rganish keyingi barcha sinf adabiyot darslarida davom ettiriladi.

Yuqori sinfda badiiy asarning tili o'rganilayotganda uslubiy tahlil mashg'ulotlari o'tkaziladi. Uslub tahlilida asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari

aniqlanadi, muallifning soʻz tanlash, gap tuzish mahorati koʻzdan kechiriladi. Masalan, XI sinfda Oybekning «Qutlugʻ qon» romani boʻyicha uslubiy mashgʻulot olib borib oʻzaro bogʻlash usullari, sintaktik qurilishlarning oʻziga xos uslubiy xususiyatlari, shuningdek, tinish belgilarining ishlatishi aniqlanadi.

Oybekda soʻz tanlashda oʻziga xoslik bor. U ifodalilikni taʼminlash, uslubiy ravonlikka erishish maqsadida sinonimlardan keng foydalanadi. Oʻqituvchi bu haqda gapirar ekan, oʻquvchilarga «Oʻzbek tili darsligida» uslubiy sinonimlarning yoritilishini eslatadi.

Oʻqituvchi adabiyotni ona tili bilan bogʻlab olib borar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash– um umlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan oʻrni bilan bogʻlanishli matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish ona tiliga adabiy oʻqish va adabiyot darslarini bogʻlashga, badiiy asar tilining goʻzalligini his qilish va mazmunini puxta oʻzlashtirishga yordam beradi.

Har bir yozuvchining hayoti va ijodi u yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bogʻlangan boʻladi. Shu sababli yozuvchining hayoti va ijodi u yashagan davrdagi tarixiy voqealarga bogʻliq holda oʻrganiladi, adabiy-tarixiy jarayon esa ijtimoiy va tarixiy hodisalar inʼikosi sifatida tushuntiriladi.

Tarixiylik adabiyot oʻqitishda asosiy shart hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy rivoji tarixiylik asosida ijodiy faoliyatining uzviy qismi asari u yoki bu davr adabiyoti taraqqiyotidagi hodisa sifatida oʻrganiladi.

Darsda tarixiy shaxslar (jumladan, yozuvchilar) faoliyatiga baho berishda ularning tarixda tutgan mavqei yoritiladi.

V sinf adabiyot va tarix kursi bir-biriga juda yaqin turadi. Bu sinfda Fitratning “Yurt qaygʻusi”, Erkin Vohidovning “Oʻzbekim ”, Abdulla Oripovning “Oʻzbekiston”, Xurshid Davronning “Vatan haqida yetti rivoyat” asarlarini oʻtishda tarix darsida Oʻzbekiston xalqlari tarixi boʻyicha olgan bilimlari eslatiladi.

X sinfda “XIV-XVI asrlar adabiyoti”, «Alisher Navoiyning hayoti va ijodi»ni o’rganishda tarix darsida “XIV-XVI asrlarda O’zbekistonning siyosiy ahvoli, xo’jalik va madaniy hayoti” bo’limidagi «Temur davlatining tashkil topishi, temuriylar davrida madaniy hayot», haqida olgan bilimlariga asoslanish ijobiy natija berardi.

O’quvchilar XI sinfda Gafur Gulomning «Kuzatish», “Sog’inish”, “Sen yetim emassan” she’rini o’qish, o’rganish bilan unda tarixiy voqea aks ettirilganini ko’radilar. She’rda tasvirlangan voqeani o’quvchilar 7- sinf tarix darsi orqali bilib oladilar. Bu esa she’r tahlilini tarixiy dalillarga bog’lab o’tkazishga imkon beradi. Bu o’z navbatida, she’rda ifodalangan fikr, g’oyani chuqur anglashni ta’minlabgina q’olmay, darsda ko’rgazmalilik vazifasini ham bajaradi.

Adabiyot dasrlarida foydalaniladigan jug’rofiy materiallar o’quvchilarni tabiat voqealari va hodisalari, xalq xo’jaligi, kishilik jamiyatida bo’lib turadigan o’zgarishlar bilan tanishtirishga muhim rol o’ynaydi, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqeani chuqur idrok etishni ta’minlaydi.

4. Tadqiqot usullari

Har bir sohada tadqiqot ishlarini olib bo ruvchi ilmiy xodim tadqiqotga doir ilmiy asarlarni puxta o’rganib olishi lozim. Chunki dialektik-materializm barqarorlikni to’g’ri anglashga, dunyo voqealarini o’rganishga, ular haqida xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqot usullari kuzatish, tajriba, suhbat, so’roq varaqasi yordamida tekshirish, tajribadan iborat.

Bu usullarning har biri o’ziga xos xususiyatga ega bo’lsa-da, ular o’zaro bir-biriga boq’liqdir.

Kuzatish usuli

Psixologlarning ta'rificha, kuzatish ma'lum sohadagi hodisalarni izchillikda idrok qilishdir. Kuzatishdan asosiy maqsad: kuzatiladigan hodisa yuz berayotgan sharoitni o'rganish, hodisani aniq tavsiflash, tushuntirib berish, ya'ni kuzatilayotgan hodisa bilan u sodir bo'layotgan sharoit o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashdan iboratdir.

Kuzatish ta'lim-tarbiyadagi turli aloqa va bog'lanishlarni ko'rsatadigan dalillarni to'plashni ta'minlashi kerak. Bu esa tadqiqotchidan ana shu bog'lanish va aloqalar haqida yetarli darajada nazariy tasavvurga ega bo'lishini taqozo etadi. Buning uchun tadqiq qilinadigan fanga doir materiallar o'rganiladi, ilmiy-metodik adabiyotlar, maktab va o'qituvchilarning amaliy ishini ko'rsatuvchi materiallar tahlil qilinadi.

Kuzatish usuli taqqoslash, tahlil qilish, sintez, faraz qilish, umumlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga ko'ra, tadqiqotchidan dars jarayonidagi pedagogik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniq ko'rsatish, o'qituvchi tomonidan qo'llanayotgan usullarning ijobiy yoki salbiy ta'sirini, ularning sababini izohlab berish talab etiladi. Ishning samarali bo'lishi uchun o'qituvchining ish faoliyati o'quvchilar faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Tajriba usuli

Tajriba o'qituvchining muayyan maqsadda o'quvchilarga ta'sir etish jarayonidir. Bu murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ta'sir etish vositalari natijasida yuzaga keladi.

Ta'lim va tarbiya uzoq davom etadigan jarayondir. Ma'lumki, bilim va ko'nikma, malaka, odat, axloq shartli reflekslardan iboratdir. Ularni uzoq vaqt davomida hosil qilish ham kuzatish ishlarini uzoq vaqt davom ettirishni talab etadi.

Ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish va nazariy jihatdan tahlil qilish orqali maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini yanada yaxshilashga, muhim pedagogik masalalarni hal etishga yordam beradigan usullar ishlab chiqiladi.

Tajriba usulida maxsus darslarda o'qituvchi bilan o'quvchilarning faoliyati kuzatiladi. Darsni tadqiqotchi rahbarligida o'qituvchi o'tkazadi. Bu darslikning odatdagi darsdan farqi shundaki, unda tadqiqot mavzusi va faraz bilan bog'liq bo'lgan, darslikda bo'lmagan material o'tiladi, o'quvchilar tomonidan uning o'zlashtirilishi sinab ko'riladi, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati aniqlanadi.

Suhbat usuli

Ilmiy tadqiqotda suhbat usuli boshqa usullar bilan boq'liq holda o'tkaziladi. Suhbat usuli dastur, darslik, ko'rgazmali qurollarni tajribada sinab ko'rishda alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki ko'pchilik o'qituvchilar tadqiqotchi talab etgan dalillarni, dastur va darslik, ko'rgazmali qurol haqida o'z fikrlarini to'liq, tartibli yozib borishga q'iynaladilar. Shu sababli, dalil to'plashda suhbat usulidan foydalaniladi. Suhbatning samarali bo'lishi suhbat qatnashchilarining bir-birini yaxshi tushunishiga ko'p jihatdan boq'liqdir. Bunda tadqiqotchining suhbat uchun puxta, muammoli savollar tuzishi muhimdir. Suhbat uchun tayyorlanadigan savollar aniq va lo'nda bo'lishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot o'qitish usuli maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonining o'zaro birligi deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Adabiyot o'qitish usullarining boshqa fanlar bilan aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganish deganda-chi?

Darsning tayanch tushunchalari.

Adabiyot o'rganishning qonuniyatlari va yo'llar bilan na adabiyotshunoslik, na didaktika, na psixologiya shug'ullanishi. Adabiyot o'qitilishi jarayonini tadqiq etishning jamiyat ma'naviyatini shakllantirish uchun ahamiyati borligi. Adabiyot o'qitishdagi eng ilg'or tajribalarni, universal qonuniyatlarni kashf etmay turib, yoshlar ma'naviyatini shakllantirib bo'lmasligi. Adabiyot o'qitish metodikasining

uzatish, anketa so'rovi, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari ilmiy-tadqiqot metodlari borligi.

Adabiy-nazariy va adabiy-tarixiy kurslar

Dars o'quv masadi: talablarni oliy ta'limdagi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi bilan tanitirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: oliy ta'lim, ma'ruza, amaliy mashg'lot, laoratoriya ishi, kollokvium, joriy va oraliq baholash, yakuniy nazorat.

Asosiy savolar:

1. *Oliy ta'limdagi mashg'ulot turdlari haqidama'lumot.*

2. *Ma'ruza va uning turlari. Ularga quyiladigantalabalar.*

Amaliy mashg'ulotlarning mohiyati, turlari, ularga quyiladigan talablar.

Nazorat qilish talabalarning muayyan vaqt oralig'ida tegishli fanning muayyan sohasi yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash usulidir. Nazorat ham darsning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. SHunga ko'ra u o'quv mashg'uloti – darsning bir qismini egallashi yoki uni to'lig'icha band qilishi mumkin. Bu nazoratning maqsad va vazifalariga bog'liq bo'ladi. Bunda o'quvchi (talaba) ning o'tilgan materialni nechog'li o'zlashtirgani aniqlab olinadi hamda olingan bilimlarning amaliyotga qo'llanish darajasi muayyanlashtiriladi. Nazorat faqat o'qituvchi uchungina emas, (talaba) o'quvchi uchun ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

O'qituvchi uchun	Talaba (o'quvchi) uchun
Bir guruh o'quvchilarning barchasiga tegishli ishlar natijlari haqidagi ma'lumotlarni bilish	O'qish motivlarini o'stirish (nazorat) ishlarini davomida o'quvchining o'zlashti-rishidagi yutuq va kamchiliklarni ham oshkorqiladi)

<p>Alohida o'quvchining olgan bilimlari, egallagan ko'nikma va malakalarining darajasini aniqlash</p>	<p>O'quvchining bundan keyingi faoliyati qilinishi lozim o'lgan ishlar mazmuni va usullari haqida o'ylashga majbur qiladi</p>
<p>O'z ishining samarasini (ta'lim usullari qay darajada samarali; ish jarayonida qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilgan, ta'lim dasturiga qanday</p>	

o'zgarishlar kiritilishi kerak) aniq baholash	
---	--

Nazorat ishida nimalarga e'tibor beriladi?

Birinchi navbatda badiiy asar yoki adabiy parchaning o'zlashtirilganlik darajasi, bunda o'quvchilarning his qilish imkonlari ham nazarga olinadi.

Badiiy asarni boshqalarga etkazib berish (qayta hikoya qilish) ko'nikmalariga egaligi; qayta so'zlash jarayonida badiiy asardan olingan parcha, ifoda yoki so'zlardan, tasvir vositalaridan foydalana olish malakasi; nazariy jihatdan olingan materiallar-ni, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga (boshqa material va misollarga) tatbiq qila olish ko'nikmasi; ayni mana shu asarga xos bo'lgan badiiy-estetik omillarni his eta bilish, aniqlashga oid ko'nikma vamalakalari.

Adabiy asarni o'qish hamda o'zlashtirish bilan bog'liq jarayon-lar oddiy, mexanik jarayonlar emas. SHuning uchun ham bu erda o'quvchilarning bilimi emas, balki asardan olgan zavq va taassurotlari asosiy o'rin tutadi. Buning lisoniy ifodasi esa o'zining emotsionalligi bilan ajralib tursagina, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan vazifani bajargan bo'ladi. Bu tegishli ko'nikma va malakalarsiz yuzaga kelmaydi. Demak, nazorat ishini o'tkazish va uni baholashda xudi shu nuqtalarga asosiy e'tibor berishzarurdir.

Tog'ning cho'qqisiga uning etagidan boshlab chiqib borilgani-dek, o'quvchilarning bu sohadagi erishishlari lozim bo'lgan daraja-larini eng oliy nuqtasidan emas, balki juda oddiy va sodda bosqichlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Hamma narsa qiyos-larda bilinadi. Ammo hamma o'quvchidan bir xil darajani talab qilish ham o'rinli bo'lmaydi. Har bir shaxsning alohida indivi-dual xususiyat va xislatlarga ega ekanligini bir daqiqa ham yoddan chiqarmaslik kerak.

SHunga ko'ra berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishdagi xato va kamchiliklarning miqdori har doim ham to'g'ri baholash imkonini bermasligi mumkin. Eng muhimi o'quvchida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarning yo'nalishi bo'lishi kerak. O'quvchining tirishqoqlik bilan qilayotgan harakatlari nazorat qilayotgan o'qituvchi ko'z oldida butun pedagogik ahamiyati bilan turishi lozim bo'ladi.

O'quvchilarning egallashlari lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarining ro'yxati o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

Adabiyot darslaridagi nazorat ishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. YOzuvchining tarjimai holini yoki u yozgan asarni o'qishning o'zi hali o'quvchining adabiyotdan olgan bilim, ko'nikma va malakalari-ning aosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Bu erdagi bosh mezon amaliy faoliyat bilan bog'liq. Buning yorqin ko'rinishi adabiy asar haqidagi o'quvchi tasavvuri, shu tasavvurning lisoniy ifodasi, ifoda-ning esa emotsionallik darajasi bilangina belgilanadi. SHunga ko'ra, adabiyot bilan bog'liq bo'lgan nazorat ishlaridagi asosiy vazifalar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari va malakalari bilan aloqador bo'ladi. Ular og'zaki yoki yozma shakllarda amalga oshiriladi.

Nazorat ishlarining bir qator vazifalari mavjud. Ular orasida eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tashxis qilish, o'rgatish, boshqarish, tuzatish, rag'batlantirish, baholash. Ularning har biri o'ziga xos talab va mezonlarga ega. Buni quyidagi jadvaldan kuzatishimiz mumkin:

Nazorat vazifasi	mohiyati
tashxis qilish	Dasturda ko'rsatilgan talablarning bajarilish darajasini o'rganadi. Ko'rsatilgan natijalar asosida navbatdagi ishlarning mazmuni va mundarijasi belgilabolinadi
o'rgatish	Nazorat ishini o'tkazish jarayonida o'tilgan mavzular yana bir marta esga olinadi, ularning takrorlanishiga imkon tug'iladi. Xuddi shu holatning o'zi mavzuni puxtaroq o'zlashtirishga asos hosil qiladi.
boshqarish	Talaba (o'quvchi) o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar-ning darajasi o'qituvchining bundan keyingi ish faoliyatini boshqarish imkonini beradi. O'qituvchi tegishli materiallar-ni o'tishning mazmuni, hajmi, shakl va usullariorqali o'quvchilarga ta'sir qilish yo'llarini belgilab oladi.
tuzatish	O'qituvchi mavjud holat haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. SHunga ko'ra namoyon bo'lgan nuqson va kamchiliklarni barta-raf qilishga imkon beradigan tuzatishlarni amalga oshiradi.
rag'batlantirish	Nazorat qilish o'quvchini tekshirish, uni baholash maqsadini-gina ko'zda tutmaydi. Har bir nazorat ish o'quvchida muayyan qoniqish va rag'bat tuyg'ularini ham uyg'otishi kerak. O'zishi-dan

	qoniqqan odam undan zavq tuyadi. Zavq esa navbatdag ishlar uchun rag‘bat uyg‘otadi.
baholash	Nazorat ishlarining natijalari o‘quvchilar uchungina emas o‘qituvchining o‘zi uchun ham samaradorlik darajalarini baholashimkonini beradi.

Nazorat ishlarining turlari ham xilma-xil. Ularning keng tarqalgani sifatida dastlabki, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini ko‘rsatish mumkin.

Dastlabki nazorat muayyan fan (adabiyot) yoki uning alohida bo‘limlari (xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumoz adabiyoti, jahon adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti va b.), mavzularini o‘tish oldidan o‘quvchilarning umumiy bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Uning asosiy maqsadi muayyan faoliyat turiga o‘quvchilarning

umumiy tayyorgarliklarini nazoratdan o‘tkazish sifatida qaraladi. Bu o‘quvchilarning fanga, jumladan, adabiyotga bo‘lgan umumiy qarashlarini, ularning qiziqish doirasi va darajalarini, diqqati, xotirasi, moyilliklari, umumiy rivojlanish darajalari haqidagi dastlabki tasavvurlarni muayyanlashtirish imkonini beradi. Bunday nazorat natijasida bundan keyingi ishlarni rejalashtirish, o‘quvchilarga individual tarzda yondashish imkoni tug‘iladi. Bunday nazoratni anketa savollariga javob berish yoki test savollarini echish orqali amalga oshirish mumkin.

Joriy nazorat har bir adib yoki adabiy asarni o‘rganish jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Bu o‘zlashtirish jarayonining qanday davom etayotganini kuzatib borish imkonini yaratadi. Joriy nazorat muntazam tarzda, izchil ravishda olib boril-sagina tegishli samara beradi. O‘quvchi o‘zining doimiy o‘zgarishlarini his etib, sezib borsa, uning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan rag‘bat va qiziqishlari ham barqarorlashibboradi.

Oraliq nazorati muayyan mavzu yoki turkumlar yakunlanganidan keyin o‘tkaziladi. Masalan, 5-sinfda «Hikmat durdonalari» rukni ostida bir qator materiallar berilgan:

HIKMAT DURDONALARI

Maqollar (2 soat).

Maqollar xalq og‘zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymog‘ining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta’sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma’lumot. Maqollarning kishilarni ezgu ma’naviy sifatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do‘stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.**Nazariy ma’lumot.** Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi.

Topishmoqlar (1 soat).

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri sifatida. Topishmoqlarda inson va uni o‘rab olgan olamning o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanganligi. Topishmoqlarning shakliy tuzilishi. Topishmoqlarning savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun asarni tashkil etganligi. Topishmoq va chiston.

Nazariy ma’lumot. Maqol va topishmoq tushunchalari.

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar (2 soat). Imom Buxoriy hamda uning «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kitobi haqida qisqacha ma'lumot. Hadislarning mavzu qamrovi, ularning maqsad va vazifalari, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Hadislarda yuksak insoniy fazilatlarning ulug'lanishi. Ularda inson sha'nini kamsitadigan, insoniylikka xos bo'lmagan xususiyatlarning qoralanishi. Hadislarning xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot bilan ko'pgina uyg'un jihatlarining mavjudligi.

Nazariy ma'lumot. Hadis.

Ezop. «YOvvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Bo‘ri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zag‘cha va cho‘pon» masallari (2 soat).

Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti to‘g‘risidagi rivoyatlar. Ezop masallarining insoniyat ma’naviyati, ma’rifiy tafakkuridagi o‘rni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari g‘oyalarning ilgari surilgani.

«YOvvoyi echkilar» masalida do‘stga sadoqat, «Kiyik bilan tokzor» masalida yaxshilik qilganga yaxshilik bilan javob qaytarish, «Bo‘ri bilan laylak» masalida do‘st-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa masallarda ham shunga o‘xshash hayotiy masalalar ramziy obrazlar orqali talqin etilishi.

Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roli.

Nazariy ma’lumot: Masal haqida tushuncha.

Oraliq nazoratni mana shu rukn yakunlanganidan keyin o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. «Rivoyat va ertaklar olamida», «Bolalikning beg‘ubor olami», «Mumtoz adabiyot bo‘stoni» singari ruknlar yakunida ham shunday nazoratni o‘tkazish imkoniyati bo‘ladi.

YAkuniy nazorat o‘quv yilining oxirida, o‘quv predmetini yakunlash davrida o‘tkaziladi. Bu butun o‘quv predmeti yuzasidan olingan natijalar- ning umumiy manzarasini oydinlashtirish vazifasini ado etadi. Buning uchun test topshiriqlari, og‘zaki va yozma imtihon hamda sinov savollari, yozma ishlar o‘tkazilishi mumkin. Adabiyot darslarida bayon va insholar ham shu vazifani bajara oladi. Quyida nazorat ishlarining vositalari, shakllari, hamda ayrim namunalariberiladi:

nazorat vositalari:	nazorat shakllari
tarqatma materiallar, testlar, savolnomalar, yozma ish mavzulari, ijodiy ishlar namunalari (referat, kurs ishi, mustaqil ish, ijodiy inshoyozish)	individual, guruhli, yalpi,juft,

Folklor asarlarni o‘rganish xususiyatlari

Adabiy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari ancha keng doirani tashkil etadi. Ularning orasida eng muhimlari sifatida o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini shakllantirish, ulardagi badiiy-estetik didni hamda ijodiy imkoniyatlarni tarbiyalashni ko‘rsatish mumkin. Bunda har qanday yuksak darajada-gi badiiy asar juda katta va boy materiallarni bera oladi. Xalq og‘zaki ijodiga oid asarlar ham bu jihatdan ayricha ahamiyat kasb etadi. Folklor asarlari birinchi navbatda, xalq tafakkur tarzi-ning, xususan, badiiy tafakkur tarzining mevalaridir. SHunga ko‘ra ulardagi xalqona dunyoqarashning so‘z san’ati vositasida ifodalangan go‘zal durdonalari o‘quvchilarga xalq ma’naviyatining, milliy qadriyatlarning takrorlanmas namunalari sifatida ko‘rinadi. Bularning barchasi

folklorning ko‘plab janrlarida mujassamlashadi. Maqol, tez aytish, topishmoq, asotir (mif), ertak, rivoyat, afsona, qo‘shiq, terma, doston kabilar shularjumlasidandir.

Ta‘limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyat-lari va adabiy tayyorgarliklariga mos hamda muvofiq tarzda xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan turli janrdagi yuksak badiiyat bilan yo‘g‘rilgan asarlar o‘rganiladi.

Folklor asarlarini o‘rganish boshqa adabiy asarlarni o‘rganishdan tubdan farq qiladi. Gap shundaki, folklor asarlari-ning o‘ziga xos xususiyatlari uni o‘qitishda ham o‘ziga xos yondashuv-lar bo‘lishini taqozo etadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o‘quvchilar folklorning turli namunalari bilan tanishib ulgurishgan. Dastur va darsliklarda bu haqdagi dastlabki ma‘lumotlar keltirilgan. Oliy maktabda esa o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida folklorshunoslik mutaxassislik o‘quv predmeti sifatida o‘rganiladi. Demak, talabalar, tegishli nazariy ma‘lu-motga ham ega bo‘lishadi. Bu erda, dastlab, og‘zaki va yozma adabiyot orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarga e‘tiborni tortish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotning og‘zaki va yozma turlarga ajratish nisbatan keyingi hodisa ekanligi, dastlab adabiyot faqat og‘zaki shaklda yuzaga kelganligini eslash joiz.

Og‘zaki ijodning xalq ommasiga nisbat berilishi, shuning uchun ham bu adabiyot xalq og‘zaki ijodi degan nom bilan yuritilishi izohlanishi kerak. Ayni paytda, xalq og‘zaki ijodi-ning birdaniga ko‘pchilik tomonidan yaratilishi emas, balki omma-viy tarzda qo‘llanishi, muallifining aniq bir shaxs bilan chegara-lanmasligiga ishora ekanligini tushuntirish o‘rinli bo‘ladi.

Folklor asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ayrim janr-larning genezisi va poetikasi, folklor matnlarining talqin-lari folklor janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ulardan ta‘lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari N.P.Andreev, V.P. Ani-kin, A.M.Astaxova, P.G.Bogatyrev, A.N.Veselovskiy, V.E. Gusev, V.M.Jirmunskiy, N.P.Kolpakova, F.E.Korsh, N.I.Kravsov, YU.G.Kruglov, S.G.Lazutin, D.S.Lixachev, E.M.Meletinskiy, E.V. Pomeranseva, A.A.Potebnya, V.YA.Propp, B.N.Putilov, B.A.Рыба-ков, M.A.Ribnikova, V.K.Sokolov, P.D.Uxov, H.Zarif, M.Afzalov, M.Alaviya, T.Mirzaev, H.Razzoqov, O.Sobirov, B.Sarimsoqov, K.Imomov,

G'.Jalolov, H.Abdullaev, M.Jo'raev, O.Safarov, U.Jumanazarov, A.Musaqulov, O.Madaev, SH.Turdimov, J.Eshon- qulov va boshqa ko'plab folklorshunoslarning asarlarida berilgani ishni osonlashtiradi. Ularga tayanib turib folklor-ning paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyoti, folklor janrlarining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ularning yozma adabiyotga munosabati, folklordagi variantlilik, an'anaviylik, badiiyat-ning o'ziga xosliklari haqida ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa, ta'limning quyi bosqichlarida o'rganiladigan folklor asarlari-ning mohiyatini teranroq yoritishga yordam beradiganilmiy

tadqiqotlardan, metodik adabiyotlardan ko‘proq va unumliroq foydalanish tavsiya etiladi.

Har bir sinfda folklor materiallarini tanlashda o‘quvchi-larning ruhiy hamda yosh xususiyatlari nazarda tutilgan. 5-sinfdan boshlab faqat folklor asarlarining o‘zinigina emas, balki ularga bog‘liq holda ayrim nazariy ma‘lumotlarni ham etkazish ko‘zda tutilgan. O‘qituvchi mana shu dastlabki tajribalardan folklor nazariyasining elementar ma‘lumotlarini o‘quvchilar ongiga singdirib borishi kerak.

Adabiyotshunoslikda, xususan, folklorshunoslikda folklor janrlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari teran tahlil etilgan. Ammo folklor asarlarini o‘qitish jarayonida mana shu nazariy asosdan etarlicha foydalanilmoqda, deb bo‘lmaydi.

Darslik va qo‘llanmalardagi tahlillar asosan folklor asar-larining g‘oyaviy mazmunini yoritishga yo‘naltirilgan. Ayrim hol-lardagina asarlardagi qahramonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratiladi. Bu ham asosan, epik asarlar tahlilidagina ko‘zga tashlanadi.

Folklor asarlarining shakliy xususiyatlari, ayniqsa, ular-ning tili e‘tibordan chetda qoladi. O‘qituvchilarning ana shu e‘tiborsizligi o‘quvchilarni folklor asarlarida mujassam-lashgan go‘zallikdan bebahra bo‘lishlariga sabab bo‘ladi. Vaholan-ki, turli janrlardagi folklor asarlaridagi poetik yaxlitlik, ularning poetikasidagi o‘ziga xosliklarni idrok etish o‘quvchi-larning adabiy ta‘limida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi folklor asarlarini yagona tizim sifatida o‘rganishni, folklor asarlaridagi tasvir prinsiplarini, tasvir vositalarini, ularda mujassamlashgan xalq estetikasi asoslarini o‘zlashtirishni taqozo etadi. Metodika ilmi oldida bular ham eng jiddiy vazifalardan biri sifatida turibdi.

Folklor asarlarining oiladan, maktabgacha tarbiya muas-saslaridan boshlab o‘rganilishi, boshlang‘ich sinflarda buning ancha kengroq miqyoslarga ko‘tarilgani umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida turli janr, yo‘nalishdagi folklor asarlarini chuqurroq va to‘laroq idrok etishga imkon yaratadi. Bu holat xalq og‘zaki ijodidagi g‘oyaviy-badiiy boylik, rang-baranglikning o‘zlashtirilishiga poydevor bo‘la oladi.

Eng muhimi, ular folklor asarlaridagi o‘ziga xosliklarni teran ilg‘ab olishlari lozim.

Folklarning yozma adabiyotga munosabati, unga o'xshash va farqli jihatlari, og'zaki ijodda xalq badiiy tafakkur tarzining o'ziga xos tarzda mujassamlashishini ular ongli tarzda idrok etishlari lozim.

Folklarning boshqa san'at namunalaridan biri ekanligi, ayniqsa, uning musiqa, teatr, xalq qiziqchiligi, qo'g'irchoqbozligi bilan yaqin aloqalari haqidagi tasavvurlari shakllantiriladi.

Bularning barchasi o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutq malakalarining takomillashishiga omil bo'ladi.

SHu maqsadda bo'lajak til va adabiyot fanlari o'qituvchilari mavjud ilmiy-nazariy hamda metodik adabiyotlar bilan puxta tanishishlari,

ularning mazmun va mohiyatlarini puxta o'zlashtirishlari lozim. SHu asosda ular folklor janrlarining o'zaro aloqalari, ta'siri va poetikasi haqida batafsil ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishadi. SHuningdek:

- hozirgi zamonda ta'limning turli bosqichlarida folklor asarlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bilantanishiladi;
- folklor asarlarining o'quv dasturlari hamda darsliklar-dagi berilishining ilmiy-metodik asoslari bilantanishadi;
- folklor asarlarini o'quvchilar tomonidan tushunilishi-ning pedagogik-psixologik asoslarinikuzatishadi;
- umumiy o'rta ta'lim maktabalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida folklor asarlarini o'rganish-ning o'ziga xos xususiyatlari bilantanishadi.

Folklor asarlari o'zbek xonadonining doimiy yo'ldoshidir. U maktab dasturlaridan salmoqli o'rin olgan.

Folklor asarlari akademik litseylarda mutaxassislik o'quv predmeti sifatida o'rganiladi.

Darslarda ko'proq folklor asarlarining tarbiyaviy tomonlariga e'tibor beriladi. Uning poetikasi, emotsional tomonlariga kamroq e'tibor berilayotgani seziladi. Endilikda folklor ekspeditsiyalari, etnografik sayohatlar odat tusiga kirib bor-moqda. O'quvchilarning o'zlari bevosita folklor asarlari va materiallarini to'plash jarayonlariga jalb etilayotgan tajribalar mavjud.

SHunga qaramay o'quv yurtlaridagi folklor asarlari tahlilida ko'proq ilmiylik, akademik uslub etakchilik qilmoqda.

Aslida folklor asarlari vositasida o'quvchilar badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ilk tasavvurlarga ega bo'lishadi. Ular poetik nutqning, tilning poetik usullaridagi o'ziga xosliklar bilan tanishadilar. Ular folklor asarlarining ijrosida ham bevosita ishtirok etishadi.

O'zbek folkloristlarining asarlari bu borada yaxshigina manba va material rolini o'ynay oladi.

Endilikda folklor asarlarining badiiy xususiyatlarini o'rganish maktab dastur va darsliklarida ustuvor mavqe qozonib bormoqda. Ularda axloqiy-ma'naviy

muammolarning yoritilishi ham o'quvchilar dunyoqarashi va qiziqishlariga uyg'un kelmoqda. Xalq og'zaki ijodi namunalarining til xususiyatlarini tahlil qilishga e'tibor ortmoqda.

Bir rukn ostida o'zbek va jahon xalqlari ertaklarining berilishi, ulardagi syujet, mavzu, qahramonlar, tasvir, poetikaga xos xususiyatlar jahon xalqlari folkloridagi yaqinlik va o'ziga xosliklarni idrok etish imkoniyatini beradi.

Folklor asarlari o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat-larini tashkil etishda ham qo'l keladi. Bolalar mustaqil ravishda ertak, topishmoq, tez aytishlarni to'qishga qiziqishadi.

Mashg'ulotlar davomida ular folklor asarlari (ertak, topishmoq, mif, tez aytish, qo'shiq, terma, doston) ning janr xususiyatlarini aniqlay oladigan bo'lishadi.

Ularning folklor asarlariga xos bo'lgan badiiy

tilning, badiiy ramz va detallar-ning, shuningdek, tasvir vositalarining estetik vazifalari bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘lishadi.

Turli janrlardagi folklor asarlari namunalari bilan tanishish jarayoni o‘quvchilarning badiiy didini shakllantiradi, uni yuqori bosqichga olib chiqadi, ulardagi adabiy-ijodiy ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishi hamda rivojlantirilishi uchun ham juda qulay pedagogik asos vazifasini adoetadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv dasturlarida folklor asarlarining ayrim namunalari tavsiya etilgan. Nazarimizda, ular yagona tizim asosida tanlab olingan emas, zero, folklor asarlarini ta’lim bosqichlarida o‘rganishning yagona ilmiy konsepsiyasi ham ishlab chiqilganicha yo‘q. Folklor asarlari ham yagona, yaxlit tizimning alohida bo‘g‘inlari sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

SHunga qaramay, hozirgi mavjud holatning o‘zidan unumliroq foydalanish yo‘llarini izlash zamonamizning dolzarb muammola-ridan biri bo‘lib turibdi.

«Takomillashtirilgan o‘quv dasturi»da folklor asarlari quyidagicha berilgan:

sinf	mazmuni	soat
------	---------	------

5	<p>HIKMAT DURDONALARI</p> <p>Maqollar</p> <p>Maqollar xalq og‘zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymog‘ining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta’sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma’lumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do‘stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.</p> <p>Nazariy ma’lumot: Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi.</p> <p>Topishmoqlar</p> <p>Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri sifatida. Topishmoqlarda inson va uni o‘rab olgan olamning o‘xshatishlar, taq-qoslashlar, savollar vositasida ifodalanganligi. Topishmoqlarning shakliy tuzilishi. Topishmoqlarning savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun asarni tashkil etganligi. Topishmoq va chiston.</p> <p>Nazariy ma’lumot: Maqol va topishmoq tushunchalari.</p>	2 1
	<p>RIVOYAT VA ERTAKLAR OLAMIDA</p> <p>«To‘maris» rivoyati</p> <p>«To‘maris» - mard va jasur ayollar haqidagi rivoyat ekanligi. Rivo-yatning yunon tarixchisi Gerodotning«Tarix»</p>	2 soat

	<p>asari orqali bizgacha etib kelganligi. Adabiyotda «To‘maris» syujeti. Mirkarim Osimning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot. Adib «To‘maris» asarining tarixiymanbalarga asoslanganligi. Asarda ona qalbida yuz bergan dramaning mahorat bilan ifodalanganligi.</p> <p>«SHiroq» rivoyati</p> <p>SHiroqning xalq qahramoni, vatan fidoyisi ekanligi.</p> <p>Rivoyatning yunon tarixchisi Polienning «Harbiy hiylalar» kitobi orqali bizga-cha etib kelganligi. SHiroq haqidagi afsonaning tarixiy ildizlari.</p> <p>M.Osim asarining mazkur manba asosida maydonga kelganligi. Asarda SHiroq jasoratining badiiyifodasi.</p> <p>Nazariy ma’lumot: Rivoyat va afsona haqida tushuncha.</p> <p>«Uch og‘a-ini botirlar» ertagi</p> <p>Ertakning xalq og‘zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri ekanligi. O‘zbek xalq ertaklarining o‘ziga xos xususiyatlari. «Uch og‘a-ini botirlar» ertagining betakror badiiy olami. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo‘lganligi.</p> <p>«Susambil» ertagi</p> <p>Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati. Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli sifatida. Ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlari.</p> <p>Nazariy ma’lumot: Ertak haqida tushuncha.</p>	<p>2 soat 3 2</p>
--	--	-------------------------------

6	<p>Xalq qo‘shiqlari</p> <p>Qo‘shiq xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida. Ularning turlari. Lirik qo‘shiqlarda inson his-tuyg‘ularining ifodalanishi. Mavsum qo‘shiqlarida xalqimizning e‘tiqodiy qarashlarining, shuningdek, bolalarning yil fasllariga bo‘lgan munosabatlarining kuylanishi («Boychechak», «CHittigul» va boshqalar). Mehnat qo‘shiqlarining mehnat jarayoni bilan bog‘liqligi («Xo‘p mayda»). Marosim qo‘shiqlarida to‘y, aza va boshqa marosimlar bilan bog‘liq turli holatlarning tasvirlanishi («YOr-yor», «Kelin salom» va boshqalar). Qo‘shiqlarning badiiy xususiyatlari.Nazariyma’lumot:Qo‘shiqvauningturlari haqida tushuncha.</p>	
7	<p>«Ravshan» dostoni</p> <p>Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o‘zbek xalq dostonchiligida katta o‘rin tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkurturkumda</p> <p>«Ravshan» asarining tutgan o‘rni. Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv</p>	

	<p>ekanligi. Dostonning bizgacha etib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go‘ro‘g‘li, YUnus pari, Avaxxon, Ravshan, Zulxumor, aka-uka kallar obrazlarining tahlili.</p> <p>Nazariy ma‘lumot: Mubolag‘a haqida tushuncha.</p>	
8	<p>«Kuntug‘mish» dostoni</p> <p>Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o‘rni. Xalq epik dostonlarining turlari. Turkiy dostonlarning dunyo4 dostonchiligi rivojida tutgan yuksak mavqei.</p> <p>«Kuntug‘mish» ishqiy-sarguzasht dostonlarining go‘zal namunasi sifatida. Dostonda Ergash Jumanbulbul mahoratining namoyon bo‘lishi. Asar syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug‘mish obrazi. Unga xos jo‘mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda soddalik sifatleri. Kuntug‘mishning jangchi, oshiq, er, ota sifatidagi xususiyatlari. Kuntug‘mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatlari. Xolbekaning favqulodda go‘zal va mehribonligi. Xolbeka – o‘zbek qizlariga xos o‘ktamlik, erkalik, shaddodlik va mayinlik sifatlariga ega shaxs. Xolbeka – farzandlari va erining hayoti uchun o‘zini baxshida qiluvchi ayol. Dostonda ayollarga xos sershubhalilik, injiqlik, sinchkovlik sifatlarining ishonarli tasvirlanganligi. Xolbekaning onalik xususiyatlari tasviri. Dostonda Gurkiboy va Mohiboy obrazlarining mahorat bilan tasvirlanganligi. Gurkiboyga xos bosiqlik, mehribonlik, mulohazakorlik hamda ukasi Mohiboyning quv, tajang, qaytmas yigitcha ekanligi. Bolalar tabiatiga xos xislatlarning ular taqdiriga ta’siri. Dostondagi Buvraxon, Azbarxo‘ja, Qosim, Xolmo‘min, cho‘pon obrazlarining o‘ziga xos shaxslar sifatida aks ettirilganligi. Dostonning badiiy xususiyatlari. Asar syujet chiziqlarida mantiqiy izchillikning kuchliligi.</p> <p>Nazariy ma‘lumot: Dostonlarning shakliy tuzilishi.</p>	

9	<p>«Alpomish» dostoni</p> <p>«Alpomish» dostonining ogʻzaki epik anʼanalarda bizgacha etib kelganligi va turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi. Dostonni kuylovchi baxshilar. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli haqida maʼlumot.</p> <p>«Alpomish» qahramonlik dostonlarining yuksak namunasi sifatida. Dostonda tasvirlangan davr. Unda oila uchun kurash va urugʻ birligi masalalarining aks etishi. Dostonning asosiy obrazlari. Alpomish, Barchin, Qorajon, Qaldirgʻoch</p> <p>obrazlarida mardlik, sadoqat, yurtsevarlik, ezgulik va vafodorlik fazilatlarining ifodalanishi.</p>	5
---	---	---

	<p>Dostonningtili va badiiy xususiyatlari. Mubolag'aviy uslub qahramonlik dostonlarining o'ziga xosligini belgilovchi sifatida. Doston syujetiv motivlari asosida yaratilgan adabiyot, kino va tasviriy san'at asarlari.</p> <p>Nazariy ma'lumot: Xalq dostonlari va ularning turlari haqida tushuncha.</p>	
--	--	--

Demak, bu erda oddiydan murakkabga degan tamoyilga amal qilingan. Imkon qadar uzviylik va uzluksizlikka e'tibor berilgan. Unda folklorning turli janrlari (maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, qo'shiq, doston) qamrab olingan.

Dasturdagi annotatsiya va izohlar bilan tanishish shuni ko'rsatadi, ularda ko'proq folklor asarlarining g'oyaviy mazmuniga, ulardagi qahramonlar saviyasiga, qahramonlar xarakterining ayrim qirralariga urg'u beriladi. Ularning shakliy-poetik xususiyatlari orqa planda qolib ketadi. Ayniqsa, folklor asarlarining shakliy xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari, tasvir vositalari, til xususiyatlari juda kam e'tibor olgan. Dasturdagi bu xususiyatning o'qituvchilar faoliyatiga ham, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoniga ham ta'sir ko'ratmasligi mumkin emas. Folklor asarlarining poetik xususiyatlarini o'rganish faqat adabiyotshunoslikning emas, balki adabiyot o'qitish metodikasi fanining ham dolzarb va jiddiy muammolaridan biridir. Folklor asarlarining mohiyati va mazmunini to'g'ri, to'liq va atroflicha tushunish uchun, ayniqsa, buni yosh avlodga tushuntirish uchun etuk folkloristlar hamda metodist olimlarning fundamen-tal tadqiqotlaridan xabardor bo'lish taqozo etiladi.


Folklor asarlarining o'ziga xosliklaridan biri ularning xalqonalligi bilan belgilanadi. Xalqonallikning mohiyati esa tasvirning xalq hayoti, uning ruhiyat dunyosiga, umuman, dunyoqarashiga oidligi, xalq orzu-intilishlarini ifodalashida, tasvirlarning tushunarli va ta'sirchan tilida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida mana shu xususiyatlar o'quvchining ongi va shuuriga etib borishi kerak. Folklorning har bir janrida hayotning muayyan qirrasini aks ettiradi, ifodalanadi. Demak, yaxlit tarzda, yagona tizim sifatida folklor o'zi mansub bo'lgan xalq hayotini ifodalaydi. Ammo buni juda oddiy, sodda, qisqa, lo'nda, tushunarli va ta'sirchan

tarzda mujassamlashtiradi. Folklor asarlarining yana bir xususiyati shundaki, ularda ma'naviy-axloqiy baholar juda aniq ko'rinib turadi. Masalan, Zumradning ko'rinishi, qiyofasi tasviridan boshlab xatti-harakatlari, boshqalarga munosabatigacha to'liq ijobiy xususiyatlar bilan mujassamlashgan bo'lsa, Qimmat teskari qutbdagi barcha belgilarga egadir. Alpomish mardlik, jasorat, halollikka qanchalik daxldor bo'lsa, salbiy qahramonlar insonni erga uradigan nuqsonlar bilan shunchalik ziynatlangandir. Folklor asarlarining voqeligi, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, qurilishi, vazni, tasvir prinsiplari ham o'ziga xos ekanligini unutmaslik

kerak. SHunga ko‘ra ularni o‘qitish va o‘rgatish metodikasi ham mana shu o‘ziga xosliklardan kelib chiqishi, ularga tayanishi kerak bo‘ladi.

Psixologlarning ko‘rsatishicha, bolalarning muayyan yoshida, xususan, 10-11 yosh atrofida ularning tasavvurlarida «sodda-realistik qarashlar ustuvor mavqe tutadi. SHuning uchun ham ayni shu yoshda xalq og‘zaki ijodining ayrim namunalari, xususan, topishmoq, maqol, ayniqsa, ertaklarni o‘rganish imkoniyatlari katta bo‘ladi. Bu yoshda badiiy asardagi muallif nuqtai nazarini tushunish, hazm qilish oson bo‘lmaydi. Xuddi shuning uchun ham ertak qahramonlarini o‘rganish ular uchun qulay va oson bo‘ladi. Ayniqsa qahramonning yakkaligi, ularning harakat miqyoslarining bolalar tasavvurlari bilan uyg‘unligi, ruhiy tasvirlarning nisbatan



chegaralangani shu yoshdagi o‘quvchilar qiziqishlari va dunyoqarashiga uyg‘un keladi. Ushbu yoshda mutaxassislarning ko‘rsatishicha, o‘quvchilar folklor asarlarini quyidagi yaxlit-likda tasavvur qilishadi:

Mavzuga oid adabiyotlar

19. Jumanazrov U. O'zbek folklori tarixiy voqelik. – Toshkent, Fan, 1991.

20. Jo'raev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent, Fan,1995.
21. Jo'raev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
22. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent, O'qituvchi,1990.
23. Yo'ldoshev Q. «Alpomish» talqinlari.- Toshkent, Ma'naviyat, 2002.
- 24.Madaev O. «Alpomish» bilan suhbat. – Toshkent, Ma'naviyat, 1999. 25.Madaev O., S Universitet, 1999.
26. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj' – Toshkent, Fan,1978.
27. O'zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent, Fan,1981.

YAngi o'zbek adabiyotini o'rganish

«YAngi o'zbek adabiyoti» atamasi bugunga kelib o'zgacha ma'no kasb etadigan bo'lib qoldi. Aniqrog'i, bu tushunchaning qamrovi kengaydi. Endilikda u XIX asrning oxirlarini, butun XX asr adabiyotini, mustaqillik davri adabiyotini, shuningdek, bugungi adabiyotni ham yaxlit holda mujassamlashtiradiganbo'ldi.

YAngi o'zbek adabiyoti, hozirgi o'zbek adabiyoti, XX asr adabiyoti degan nomlar mana shu tushunchalarni ifodalash uchun qo'llangan. Afsuski, bularning barchasini ham juda muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Bularning yonida «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti», «Mustaqillik davri adabiyoti» atamalarining ham o'rni borligini ta'kidlash joiz.

Bu davr adabiyotini o'rganishning o'ziga xos murakkabliklari bor. Birinchidan, u xronologik jihatdan XX asrning o'zi bilan cheklanmaydi. Uning doirasiga XIX asrning oxirgi choragi ham daxldor bo'lib turadi. Hozirgi davr, ya'ni XXI asr adabiyoti ham shu nom ostida kelayotganini esdan chiqarmaslik kerak. Ikkinchidan, XX asr boshlaridagi adabiyotning to'liq va mukammal manzarasini yaratish jarayoni hozir ham davom etmoqda. Uchinchidan, sobiq sovet davrida yaratilgan adabiy asarlarga baho berishdagi bir yoqlamalik barham topa boshladi. Endilikda ularga

boshqacha, yangi, mustaqillik sharofati bilan qoʻlga kiritilgan erkin va ijodiy tafakkur andazalar bilan yondashish ustuvor mavqe tutmoqda.

XX asr adabiyoti ustidagi bahslar qizgʻin davom etmoqda. Uning magʻzi, mohiyati tobora kengroq, chuqurroq, toʻlaroq namoyon boʻlib bormoqda. Kitobxonlar bu davr adabiyoti haqidagi asl haqiqatlar bilan mukammalroq tarzda tanishib borishmoqda. Boʻlajak oʻqituvchilar ham bu jarayonlarning tub mohiyatini teran anglab olishlari kerak boʻladi.

SHulardan biri asl manbalarni oʻqishdagi murakkabliklar bilan bogʻliq. Gap shundaki, XX asrning dastlabki choragidagi adabiyot anʻanaviy tarzda arab yozuvi orqali ommalashgan edi. Ular oʻsha davr matbuotida, gazeta va jurnallarida, mahalliy nashrlarda chop etilgan. Ayrim nashrlarning qogʻozi juda sifatli boʻlgan emas. SHunga koʻra ularni oʻqishda arab

alifbosidagi ayrim harflarning boshqa bir belgilar bilan qorishtirilishi yuz berishi mumkin. Jumladan, CHO‘lponning «Imom Fuzuliy» degan maqolasi haqidagi bir axborot tarqalgan edi. Ma‘lum bo‘lishicha, asl matnda u «Imom G‘azzoliy» deb nomlangan ekan. Uning muallifi ham CHO‘lpon emas ekan. Bu haqda prof. O.SHarafiddinov shunday yozadi:

«Afsuski, bugungi kunda matbuot sahifalarida biz ancha-muncha hollarda masalani chuqur o‘rganmay turib, hovliqmalik bilan ish yuritayotgan, natijada «yarmi yolg‘on, yarmi chin» gaplarni ham «kashfiyot» tarzida taqdim qilinayotgan faktlarga duch kelyapmiz. Masalan, ayrim jurnallarda «Gavhar» degan hikoya CHO‘lponniki deb e‘lon qilindi. Holbuki, bu hikoya o‘z vaqtida «Yo‘qsil» degan taxallus ostida e‘lon qilingandi. «Yo‘qsil» esa 20-yillarda Bahrom Ibrohimovning taxallusi bo‘lgan. Ayrim «tadqiqotchilar»imiz sira andisha qilib o‘tirmay o‘z chalasavod-liklarining samarasini kitobxonlarga ko‘z-ko‘z qilishga oshiqadi. Masalan, bibliografik ko‘rsatkichlarning birida 20-yillarda CHO‘lponning «Imom Fuzuliy» degan maqola e‘lon qilgani ta‘kidlanadi. Afsuski, men ham bu gapga chippa-chin ishonib, «CHO‘lpon» degan risolamda uni aynan takrorlaganman. Ammo keyinchalik ko‘rsatilgan manba («Inqilob» jurnali) tekshirib ko‘rilganida maqolaning nomi «Imom G‘azzoliy» ekani, muallifi ham boshqa odamligi ma‘lum bo‘ldi. YAqinda Toshkent doril- fununida bo‘lgan bir anjumanda notiqalar Behbudiy, Fitrat, CHO‘lpon va boshqalarning asarlarini chop etishda tekstologik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilayotganini, bu arabcha yozuvni o‘qish va talqin qilishdagi savodsizlik oqibati ekanini aytishdi. Bunday xatolar asar matnini buzib yuboradi, uning ma‘nosini xiralash-tiradi. Taassufki, bunday xatolar CHO‘lponning

«YAna oldim sozimni» degan kitobida ham ancha-muncha bor. Bunga kitobning muharriri sifatida men javobgarman, albatta»¹.

Bularning barchasi nashr etilgan maqola va asarlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarashni, albatta, mutaxassislar fikriga e‘tibor berish zarurligini yana bir marta ko‘rsatib turibdi.

Bu jihatdan O.SHarafiddinovning «Tirik satrlar» kitobi haqida

«YOshlik» jurnalining 1990 yil 11-sonidagi maqola haqidagi mulohazalari ham

e'tiborlidir. Unda ko'rsatilishicha, 1969 yilda nashr etilgan «Tirik satrlar» kitobida mavjud bo'lmagan fakt va hodisalarga nisbat berilgan. Bugina emas, kitobning muharriri o'zini to'rtinchi qavatdan erga tashlab yuborgan, shu tarzda u o'sha davrda boshiga tushishi mumkin bo'lgan balo-yu qazolardan saqlanib qolgan emish. O.Sharafiddinov bu gaplarning asosiz ekanligin ko'rsatib, jumladan, shunday yozadi: «Bo'lmagan gap! «Ie, qiziq- ku,»- deb e'tiroz bildirishingiz mumkin, bu voqea kamida 22-23 yil avval ro'y bergan bo'lsa, siz buni qayoqdan bilasiz?! Tepasida turganmidingiz?» Hama gap shundaki, «Tirik satrlar» ning muharriri men edim. Bilaman, bir qancha odamlarning qo'lida kitobning ayrim nusxalari saqlanib qolgan. O'shalardan so'ranglar - kitobning kamida uch joyida mening familiyam

¹ SHarafiddinov O. Sardafar sahifalari. Maqolalar, xotiralar.- Toshkent, YOzuvchi, 1999, 48-49-betlar

muharrir sifatida raqam qilingan. Kitobga ishonmasangiz, o'sha paytda nashriyot rahbariyatida ishlagan odamlar bor – masalan, Ibrohim G'afurov – ular gapimni tasdiqlashi mumkin. Men qasam ichib guvohlik beramanki, hech qachon nashriyot binosining 4-qavatidan o'zimni tashlagan emasman, nafaqat nashriyotning, umuman, hech qanday tashkilotning 4-qavatidan ham sakragan emasman-a, Xudoga shukur, man oltmish uchga kiriyapman... »¹

Bu davr adabiyotini o'rganishda adabiyotning o'zida nihoyatda zalvorli o'zgarishlar yuzaga kelganligini, odamga, olamga qarashlarning uzluksiz ravishda o'zgarib, takomillashib, yangilanib borganligini e'tiborda tutish kerak.

Mavzu va talqinlarning jiddiy tarzda o'zgarishi, yangilanishi bu davr adabiyotining asosiy ko'rsatkichlari bo'la oladi. Mumtoz adabiyotimiz bilan qiyoslanganida bu davr adabiyotining keskin o'zgarishlarga ro'para kelganligini tushunish va tushuntirish kerak bo'ladi.

Adabiyotdagi janrlar va obrazlar tizimi o'zgardi. Jumladan, dramatik tur va uning yangi-yangi shakllari, romanchilik yangi adabiy hodisalar sifatida maydonga keldi. She'riyatda ham ko'lamli yangiliklarkuzatildi. Ishqiy-intim she'riyat ijtimoiy-publitsistik, siyosiy-falsafiy qamrovdagi she'riyatga kengroq maydonlarni bo'shatib berdi. SHuning uchun ham bu davrda yaratilgan asarlar tahlilida endi boshqacharoq yondashuvlar taqazoetiladi.

Dramatik asarlar tahlilida sahna imkoniyatlari e'tiborga olinishi, qahramonlarning «harakatdagi holatlari»ga urg'u berilishi, muallif nuqtai nazarining bevosita qahramonlarning o'ziga «o'tkazilishi» bunday tahlilarning markazida turishi kerak bo'ladi. Ularning o'z zamonlaridagi dolzarb muammolar bilan uyg'unligi, zamonaviylikning badiiylikni yuzaga chiqarishdagi asosiy omillardan biri bo'lganligini ham e'tiborda tutish o'rinli bo'ladi.

Ijtimoiy tuzum va adabiy ijod munosabatlari adabiy asar tahlilida yo'l-yo'lakay ko'rib o'tiladigan muammolardan emas. Bu ayniqsa, adabiyotimizning mazkur davrlari uchun ayricha ahamiyat kasb etadi. Bosqinchilik sharoitida xalqni ma'rifatga chorlash, butun asarlarida ma'rifiy g'oyalarni targ'ib-tashviq xetishni asosiy vazifa deb bilish o'sha davrdagi ijodkorlarning ijtimoiy faolliklari hamda zakovatini,

ularning shaxs hamda ijodkor sifatidagi jasoratlarini ko'rsatib turadi. Mazkur hodisalar ularning asarlari, yaratigan o'lmas obrazlari misolida ko'rsatib berilishi kerak.

Albatta, o'sha davr ijodkorlaiga, ularning asarlariga bo'lgan munosabatlarning, bu asarlar tahlili va talqinlarining xilma-xilligiga bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining e'tiborlari tortilishi shart. Bunda adabiy tanqidchiligimiz yutuqlaridan unumli tarzda foydalanish imkoniyatlari bor. Xususan, Ozod SHarofiddinov, Umarali Normatov, Begali Qosimov, Abdug'afur Rasulov, Bahodir Karimovlarningso'nggi

¹ O'sha kitob, 52-bet.

paytlarda yaratgan tadqiqotlari adabiyot o'qituvchilari uchun yaxshigina metodik yordam bera oladi.

Ta'limning turli bosqichlarida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda bu davr adabiyotini o'qitish asosiy o'rin tutadi. Jumladan, «Takomillashtirilgan adabiyot dasturi»da sinflar kesimida quyidagi manzarani ko'rish mumkin:

5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf
Hamid Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni (3 s)	G'afur G'ulom. «SHumtanni suymak», bola» qissasidan (3 soat)	A.Avloniy. Va «Vatan» she'ri (2 s)	Fitrat.«M ir- rix yulduzi- ga»,«O'gut», «Go'-zalim, bevafo gu- listonim» she'rlari(2s)	Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar» romani (5 s)
M.SHayxzoda. «Iskandar Zulqarnayn» dostoni (2 soat)	Turob To'la. «Do'nan» hikoyasi zog'ora» qissasidan) soat)	SHuhurat. «Mardlik («Ettiafsonasi» balladasi (2 soat)	Hamza Hakimzoda. «Zaharli hayot yoxu d Ishq qur- bonlari» (3)	CHo'lpon.«Y O ng'in», «Qalan-dar ishqi», «Ko'ngil», «Kishan», «Vijdon erki» she'rlari, «Kecha va kunduz» romanidan(5 s)

SHukrullo. «Umr haqida ertak» she'ri (2 s)	Sulton Jo'ra. «Muqaddas ideal-ning tug'ilishi» she'ri (2)	Hamid Olimjon. «O'zbekiston» she'ri (2 s)	G'afur G'ulom. «Sog'inish» , «Vaqt» she'rlari (2s)	Oybek. «CHimyon daftari» turku- midagi she'rlarva «Qutlug' qon» romani (5 s)
Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi (2 s)	X.To'xtab oev. «Sariq devni minib» qissasi (3 s)	Maqsud SHayxzoda. «Toshkentnom a» dostoni (2 s)	M.SHayxzo da. «Mirzo Ulug'bek» fojiasi (3 s)	Odil YOqubov. «Ulug'bek xazinasini» romani(4

				s)
Oybek. «Fonarchi ota», «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyalari (3s)	Xayriddin Saloh. «Yulduzlar afsonasi» balladasi (2 s)	M.Osim.«Yoshlik ayyomining ilk bahori», «Yazd cho'li», «Qushlar tili» hikoyalari («Zulmat ichra nur» qissasidan (3 s)	Usmon Nosir.«Yurak», «Nil va Rim», «Monolog» she'rlari (3 s)	A.Oripov. «Genetika» «Bahor kunlarida»,«Kuz manzaralari» she'rlari, «Sohibqiron»asari (doston dan parcha) (5 s)
G'afur G'ulom.«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi (3 s)	Abdulla Kahhor.«Bemor» hikoyasi (2 s)	A.Muxtor.«Yulduzim», «Tug'ilish»,«Yo'l», «O'zirniki umr...» she'rlari (2 s)	Asqad Muxtor.«CHinor» romani (4 bus)	
U.Nosir «Yur, tog'larga chiqay-lik», «Yo'lchi, «Bolaligimga », «YOshlik»,«Yur ganmisiz birga oy	Odil YOqubov.«Muzqaymoq» hikoyasi (3 s)	SHukur Xolmirzaev.«O'zbek xarakteri» hikoyasi (3s)	SaidAhmad.«Qochoq» («Ufq» romanidan) (2 s)	

bilan»»Gulzo r- chaman...» . (3s)				
O‘.Hoshimov. «Dun-yoning ishlari» qissasidan (4 s)	Erkin Vohidov. «Nido» dostoni (3 s)	S.Zunnunova. «Mening Vata- nim!», «Er uzra qo‘ndi oqshom», «Qizimga», «Buvilar duoga qo‘llarin	Ozod SHarafidd inov. «O‘lsam ayrilmasm an quchoqlarin gdan» maqolasi (2 s)	

		ochib» she'rlari (2 s)		
Mirtemi r. «Bulut»,«SHu d- ring»,«To'rg'a y», «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari (3 s)	Said Ahmad. «Qoplon», «Sobiq» hikoyalari (2 s)	Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romanidan (3 s)	T. Sulaymon. «Iltijo», «Armon», «Tavallo», «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rlari(2 s)	
Maqsud Qoriev. «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» hikoyasi (2s)	Zulfiya. «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...», «Bog'lar qiyg'osgulda», «Nevara» she'rlari (3s)	CHO'lpon. «Binafsha», «Go'zal», «Ko'ngil», «Xalq» she'rlari (3 s)	M.YUsuf. «Vatanim», «Mehr qolur»,«YU rtim,ado bo'l- mas armonla- ring bor...», «Biz baxtli bo'lamiz» she'rlari (3 s)	

Hamza. larni vatan», «Dar-diga darmon istamas» she'rlari s)	«Jon- jononi P.Qodirov. «Ni-zomning tanti-ligi» («Avlodlar dovoni» romanidan) (3 s) (2 s)	Abdulla Qahhor. «Zilzila» qissasidan (2 s)		
Erkin Vohidov. O'zbekim qasidasi (2 s)	Tog'ayMurod. «YUlduzlar mangu yonadi» qissasi (3s)	Mirtemir.«M en tug'ilgan tup- roq», «Onagi-nam», «Toshbu», «Betobligim d a» she'rlari (3s)		
Abdulla	Jumaniyoz	SH.Rahmon.«Ur u		

Oripov. «O‘zbekiston » she’ri (2s)	Jabborov. «YOshlar Vatansuvrati», «CHAqi n haqida», «Kitob javoni», «Ahmad Farg‘oniy so‘zi» she’rlari (2 s)	sh suvrati», «CHAqi n bo‘lma...», «Min o-rai kalon», «Su- laymon tog eta-gida o‘ylaganla- rim», «YOsh tog lar» she’rlari (3 s)		
O‘.Umarbekov. «Qizimga mak- tublar» (3 s)				
36 soat	33 soat	32 soat	26 soat	24 soat

Albatta, ta’limning bu bosqichida muayyan ijodkorning hayoti, ijodi, uning alohida olingan asarlari atroflicha, keng va chuqur o‘rganilmaydi. Buning amalda imkoni ham yo‘q. Ajratilgan soatlar miqdori qat’iy chegara vazifasini ado etadi. Mazmun qamrovining kengligi esa o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq bo‘lib qoladi. SHunga ko‘ra, dasturlarda tegishli asarlarni o‘rganishning umumiy yo‘nalishlari ko‘rsatiladi. Biz buni ayrim namunalar misolida ko‘rishimiz mumkin:

Sinf va mavzu	O'rganiladigan mavzu annotatsiyasi
<p>5</p> <p>U.Nosir. «YUr, tog'-larga chiqaylik», «Yo'lchi», «Bolali-gimga», «YOshlik», «YUrganmisiz birga oybilan», «Gulzor chaman...» she'rlari (3 soat)</p>	<p>Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. SHoir she'rlarida bolalarga xos beg'ubor his-tuyg'ularning ifodalanishi. Bolalar tabiatidagi xususiyatlarning ushbu she'rlarda mahorat bilan tasvir etilganligi. U.Nosir she'rlarining badiiy xususiyatlari.</p> <p>SHoir she'rlarida tabiat go'zalliklari bilan pokiza qalbli insoniyatning go'zalligini o'rtasidagi hamohanglik. Usmon Nosir she'rlarida odamning go'zallikka munosib bo'lishi ulkan bir istak maqomida ifodalangani.</p>
<p>6</p> <p>Tog'ay Murod.</p>	<p>YOzuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «YUlduzlar mangu yonadi» qissasida o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va maonaviy qadriyatlarning o'ta ta'sirchan,</p>

<p>«Yulduzlar manguyonadi» qissasi (3soat).</p>	<p>o‘ziga xos yo‘sinda aks ettirilganligi. Qissa qahramoni Bo‘ron polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon bo‘lishi.</p> <p>Asarda o‘zbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning g‘oyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning SHukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida aks ettirilganligi. Qissaning ta’sirchan va o‘ziga xosligini ta’minlagan omillar. Asarning tilxususiyatlari.</p> <p>Nazariy ma’lumot: Qissa haqida tushuncha.</p>
<p>7</p> <p>Abdulla Qodiriy.</p> <p>«Mehrobdan chayon» romanidan (3soat).</p>	<p>Adib haqida ma’lumot. Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi ekanligi. Uning romanlarida realizm va romantizm metodlarining uyg‘unlashib ketishi. «Mehrobdan chayon»romanidagi «Baxmalbofda faqir bir oila», «Taniysanmi shu jajji qizni?» «CHin o‘rtoq», «Maxdumning baxti» fasllaridagi uzviylik «CHin o‘rtoq» faslidagi do‘stga sadoqatning jozibali tasviri Anvar va Nasim obrazlari tahlili. YOzuvchining mahorati Asarning tarbiyaviy qimmati.</p>
<p>8</p> <p>M. SHayxzoda.</p> <p>«Mirzo Ulug‘bek» fojiasi (3 soat).</p>	<p>Adib hayoti va ijodi haqida ma’lumot. «Mirzo Ulug‘bek» asari o‘zbek adabiyotidagi tragediya janrining etuk namunas sifatida. Asarda temuriyzoda hukmdor Ulug‘bek hamda olim va ma’rifat-parvar Ulug‘bek o‘rtasidagi ziddiyatning aks ettirilishi. Ulug‘-bekning allomalik fazilatlari va insoniy xislatlarini yoritish dramaturgning bosh maqsadi ekanligi Asarda shoh va olim Ulug‘bekning fojiasi haqidagi haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi. Nazariy ma’lumot: Tragediya (fojia) haqida tushuncha.</p>

<p>9</p> <p>Abdulla Oripov.</p> <p>«Genetika»,</p> <p>«Bahor kunlarida»,</p> <p>«Kuz manzaralari» she'rlari,</p> <p>«Sohibqiron» asari (dramatik dostondan parcha) (5soat).</p>	<p>Abdulla Oripovning hayot va ijod yo'li to'g'risida ma'lu-mot</p> <p>A. Oripov - hozirgi o'zbek she'riyatining zabardast vakili</p> <p>SHoir lirikasining o'ziga xos xususiyatlari. SHe'rlaridag</p> <p>kuch-li ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik</p> <p>Badiiy tadqiqning pishiqligi. SHe'riy intonatsiyaning</p> <p>betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy</p> <p>ruhning uyg'unligi. SHakliy-uslubiy rang- baranglik.</p> <p>«Genetika» she'rida avlod–ajdod</p> <p>munosabatlarining serbo'yoq va ta'sirchan ifodalanishi</p> <p>Nazariy ma'lumot: Lirik qahramonobrazi.</p>
--	---

E'tibor berilsa, Ushbu annotatsiyalarda bolalarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy adabiy tayyorgarligi ham e'tiborga olingan. Tahlilning umumiy yo'nalishlari belgilanayotganda mazkur omillar asosiy tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Albatta, ularning barchasida asardagi badiiylikni anglash va anglatish etakchi o'rin tutayotganligin sezish qiyin emas.

5- sinf o'quvchisining tasavvur olamidagi o'ziga xoslik, kuzatishdagi jonli mushohadaning kuchliligi ertak va unga yaqin mavzularning osonroq va ta'sirliroq o'zlashtirilishiga imkon beradi. SHuning uchun ham bu sinfda Hamid Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni bejiz tanlanmagan. Unda adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berish nazarda tutiladi. Asosiy urg'u esa «Oygul bilan Baxtiyor» ertagi syujeti va obrazlar tasviridagi o'ziga xosliklarga qaratiladi. Bu o'rinda tahlilning asosiy yo'nalishi ertakdagi asosiy qahramonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bu qahramonlarda bo'rtib ko'zga tashlanadigan axloqiy=ma'naviy sifatlarni yoritishdan iborat bo'ladi. Ertakda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviriga e'tibor tortilar ekan, manga shu tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarga, ularning qo'llanishidagi o'ziga xosliklarga urg'u beriladi. Ertakning badiiy xususiyatlari, undagi tasvir va ifoda vositalari, asar tilining favqulodda soda, tushunarli va ravonligi, bularning natijasida yuzaga keladigan ta'sirchanligi ustidaishlanadi.

Usmon Nosirning tanlangan she'rlari ham shu sinf o'quvchilari uchun kata qiziqish uyg'ota oladi. Ayniqsa, ularning bevosita tabiat tasviri bilan aloqadorligi bu qiziqishlarni yanada orttiradi. O'quvchilarning shu yoshda o'qigan va yod olgan she'rlarini umrlarining oxirgacha ham esda saqlashlari bejiz emas..

6- sinfda sarguzashtlarga boy bo'lgan asarlar tanlangan. Ular qatorida G'afur G'ulomning «SHum bola», Turob To'laning «Do'nan» hikoyasi X.To'xtaboevning «Sariq devni minib» qissalaridan parchalarmavjud.

Dasturda Tog'ay Murodning «YUlduzlar mangu yonadi» qissasi tahlilida milliy qadriyatlar, o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyatning o'ta ta'sirchan, o'ziga xos yo'sinda aks ettirilganligiga e'tibor berish kerakligi ko'rsatilgan. Ajratilgan vaqtning nihoyatda chegaralanganligi (3 soat) qissani yaxlitligicha tahlil qilish imkonini

bermaydi. SHunig uchun ham qissada aks etgan yuksak insoniy tuyg'ularni o'zida mujassamlashtirgan Bo'ri polvon obrazi tahliliga asosiy urg'u beriladi. Unga xos bo'lgan mardlik, tantilik, halollik xislatlarining namoyon bo'lishiga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Ayniqsa, asarning til xususiyatlari tahlili ayricha ahamiyat kasb etadi.

9-sinfda Abdulla Oripov asarlarini o'rganish uchun besh soat ajratilgan. Ammoo'rganilishi lozim bo'lgan asarlarning miqdori ham oz emas. Ular. «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she'rlari, «Sohibqiron» dramatik dostonidan olingan parchalardan iborat.

Bu erda Abdulla Oripovning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot berish ham, shoirning ijodi hozirgi o'zbek she'riyatining ko'plab etakchi

xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirganini ham ko'rsatish, ayni paytda ulardagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallikning takrorlanmas bir shakllarda ifoda etilganini anglatish ham zarur bo'ladi.

SHoir olamni, odamni o'ziga xos tarzda badiiy tadqiq etadi. SHoirning kuzatuvchanligi ham favqulodda o'tkir va ta'sirchan. U hech kim ko'rmagan nuqtalarni juda nozik darajada idkrok etadi, ularning ifodasida ham ohori to'kilmagan so'zlarni topa biladi.

«Genetika» she'rida ajdodlar bilan avlodlar orasidagi munosabatlar mutlaqo o'ziga xos tarzda tasvirga tortilgan.

Zamonaviy adabiyotdagi asosiy xususiyatlardan yana biri ularni o'qigandan keyin hosil bo'ladigan tasavvurlarning yakrang emasligi, xilma- xilligidir. Buni Xurshid Do'stmuhammad Frans Kafkaning asari misolida yaxshi ifodalab bergan:

«Yozef K.ning hibsga olinishi haqidagi xabar bilan boshlangan

«Jarayon» birinchi marta 1925 yilda nashr etilgan bo'lsa-da, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u 1914-1915 yilda, boshqa ma'lumotlarga qaraganda esa 1918-1919yildayozilgan.HarqalayFransKafka«Jarayon»niyozganida30-

35 yosh orasida bo'lgan. SHu yoshdagi odam hayotning bu qadar murakkab sinoatlarini qanday qilib bir roman qahramoni timsolida mujassam qila oldi ekan, degan savol hali-hanuz dunyodagi ko'plab adiblarni, mutaxassislarni, adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib keladi, o'yga toldiradi. Bahsga chorlaydi. Munozaraga undaydi.

Tugal echim, tugal xulosa esa topilmaydi.

Bordi-yu topilganda, bordi-yu roman bir o'qishda ko'ngilga, shuurga to'lasicha jo bo'lib qo'ya qolganida, uni ikkinchi, beshinchi ettinchi marta o'qishga hojati qolmaganida «Jarayon»degan nom Frans Kafka degan ismga qo'shimlib allaqachon unutilib ketgan bo'lar edi»¹.

Qadimgi turkiy adabiyotni o'rganish

Qadimgi turkiy adabiyot adabiyotimizning tarkibiy qismini tashkil etadi. U keyingi davrlardagi adabiyot rivoji uchun tegish-li tarixiy- adabiy asos vazifasini adoetgan.

Qadimgi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari borki, ta'lim-tarbiya jarayonida ularga alohida e'tibor berish zarurati seziladi. Gap shundaki, qadimgi turkiy adabiyotni o'rganish va o'rgatish uchun faqat adabiyotshunoslik yoki umumfilo-logik bilimlarning o'zi etmaydi, ular ozlik qiladi. Bu erda tarixchi, etnograf bo'lish, bir necha qarindosh va qarindosh bo'lma-gan tillarni bilish, qadimgi matnlarning o'ziga xosliklaridan xabardorlik ham talab etiladi. Bundan oldin esa uning chegara-larini aniqlab olish zarurati ham borligini eslatish o'rinli

¹ Xurshid Do'stmuhammad. Harakatdan to'xtagan jarayon qissasi. - // Kafka Frans. Jarayon, roman.Rus tilidan tarjima. (Tarj.: Vafo Fayzullo), Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006, 5-bet.

bo'lad. Bu yodgorliklarning tarqalish hududiga ham, ularning paydo bo'lish va yashash davrlariga ham aloqadordir. Ularni quyida ko'rib chiqamiz.

Geografik chegaralar

Qadimgi turkiy obidalar ko'pincha «O'rxun-Enasoy obidalar» nomi bilan yuritib kelingan. Bunga mazkur yodgorliklarning topilishi o'rni sabab bo'lgan edi. Bu yodgorliklarning dastlab topilganlari, hajmiga ko'ra ancha yiriklari O'rxun hamda Enasoy daryosi qirg'oqlaridan topilgan. O'rxun- Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. SHved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni Evropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilganedilar.

Dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofidan □ SHimoliy Mo'g'ulistondan toshga bitilgan obidalar topildi. Ular O'rxun yodgorliklari nomini oldi. Enasoy daryosi qirg'oqlarida topilgan yodgorliklar ham shu nom bilanataladi.

Yodgorliklar topilganidan keyin ularni o'qish, o'rganish muammosi ko'ndalang bo'ldi. Ammo bu ish deyarli bir yarim asr mobaynida hech kimning qo'lidan kelmadi. Nihoyat, 1893 yildagina ularni o'qish uchun dastlabki qadam qo'yildi. SHu yili daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V.Radlovlar yodgorliklardagi barcha harflarnio'qidilar.

SHundan so'ng ularni jiddiy o'rganish boshlandi.

O'rxun-Enasoy obidalar «tosh bitiklari» deb ham yuritiladi. Buning sababi ko'pgina yodgorliklarning qabr toshlariga o'yib yozilganidadir. Ularning hajmi anchayinulkan. Jumladan, «To'nyuquq» bitiktoshi 2 ta ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm dan iborat. Bu yodgorlikni Elizaveta Klemens 1897 yili SHimoliy Mo'g'ulistonda eri Dmitriy Klemens bilan birgalikda izlab topgan. Bitiktosh Ulan-Batordan 66 km Janubi-SHarqdagi Bain Sokto manzilida bo'lgan va hozir ham shu erda saqlanadi.

«Kultegin» bitiktoshi marmardan ishlangan, balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm bo'lib, yuqoriga tomon torayib borgan. Yodgorlikni rus ziyolisi N.M.YAdrinsev (1842-1894) 1889 yili Mo'g'ulis- tonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko'kshin O'rxun daryosi qirg'og'idan topgan. U Ulan-Batordan 400 km

janubda Qora Balgʻasun shahri xarobalaridan 40 km shimolda joylashgan. YOzuvlar oʻngdan chapga va yuqoridan pastga qarab bitilgan.

«Bilga xoqon» bitigini ham N.M.YAdrinsev topgan. U Kultegin bitiktoshidan 1 km janubi-gʻarbga oʻrnatilgan. Uning boʻyi 3 m 45 sm, eni 1 m

72 sm, qalinligi 72 sm, bitiktosh agʻdarilib, uchga boʻlingan va ayrim satrlari nurab, yozuvlari ham zarar koʻrgan. U 80 satrdan iborat. «Bilga xoqon» bitiktoshida «Kultegin» bitiktoshidagi 41 satr takrorlangan.

Qadimgi turkiy obidalarning asl manbalari topilgan joylar: Oʻrxun va Enasoy daryolari atroflari, Turfon (SHarqiy Turkiston), Osiyo va Evropaning koʻpgina joylaridir. SHunga koʻra ularning Moʻgʻuliston, Germaniya (Berlin, Marburg, Mayns), Rossiya (Sankt-Peterburg, Qizil, Minusinsk), Xitoy (Turfon, Urumchi, Miran Suchjoy, Pekin),Buyuk

Britaniya (London), Fransiya (Parij), SHvetsiya (Stokgolm), O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonda saqlanishi kuzatiladi.

Geografik nom sifatida Turkiya atamasi qadimgi Bobil (Vizantiya) manbalarida mavjud. VI asrda bu nom Kichik Osiyoni anglatgan (Menandr).

IX-X asrlarda Volga bo‘yidan O‘rta Evropagacha bo‘lgan hududlar ham shu nom bilan atalgan. Onado‘li-Anatoliya esa XII asrdan boshlab Turkiya nomini olgan.

SHuningdek, qadimgi turkiy xalqlar yashaydigan joylar Turon deb nomlangan. Bu erlarni forslar «turonzamin» deyishgan.

Xronologik chegaralar

Qadimgi turkiylar o‘z tili, madaniyatiga ega bo‘lishgan. Bu tilning eng qadimgi davrlardagi taraqqiyoti haqida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Dastlabki yozma manbalar esa VI-VIII asrlarga tegishlidir. Ular O‘rxun- Enasoy obidalarini nomi bilan mashhur bo‘lgan bitiklardir. Har holda turkiy tilning milodning ilk asrlaridan boshlanganini taxmin etish mumkin. Bu til XII-XIII asrlargacha amaldabo‘lgan.

Ko‘p asrlik tarix silsilasida bu til namunalari shimoliy-sharqda tabiatga ishonch sifatida O‘rxun-Enasoy obidalarida, shimoliy-g‘arbda xristian dini shaklidagi nasroniylar yozuvlarida, janubiy-sharqda budda dinida so‘g‘d, uyg‘ur yozuvlarida, moniylik dinida moniy va uyg‘ur yozuvlarida, so‘ngroq islom dinida arab yozuvi bilan yozilgan.

Uning so‘nggi bosqichdagi namunalari sifatida Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ot it-turk», YUsuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlarini ko‘rsatish mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar Ahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini XII asrda emas, balki YUsuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridan oldinroq yozilgan deb ham taxmin qilishadi. Bu faraz dastlab S.E.Malov tomonidan aytilgan edi¹. O‘zbek olimlaridan A.Muhammadjonov shu farazni rivojlantirishga harakat qildi. Ammo bunday qarashlarda real ilmiy asoslar ko‘rinmaydi.

Oltin O‘rda madaniyatining Misrga ko‘chishi umumturkiy adabiyot-ning shu erlardagi mavqeini belgilab berdi. Biz uning Misr zaminida yashab qolganligiga guvoh bo‘lamiz. Buning asosiy sababi CHingizxon istilosi edi. Ana shu halokatli

davrda madaniy – adabiy markazning bir muddatga Oltin O‘rdaga, undan Suriya va Misrga ko‘chganligi kuzatiladi.

YOzuv bilan aloqador o‘ziga xosliklar

Qadimgi turkiy obidalar faqat turkiy xat bilan yozilgan emas. Dastlabki topilgan obidalar qadimgi turkiy yozuvda bitilgan bo‘lsa-da, u bilan yonma-yon tarzda uyg‘ur yozuvining ham qo‘llanib kelingani keyinroq ma’lum bo‘ldi. «Uyg‘ur yozuvi bilan turkiy tilda yaratilgan dastlabki hujjatvayodgorliklarbuddaviylik,manixeylik,xristianlikkaoidturli

¹ Nadjib E.N. Kultura i tyurkoyazychnaya literatura mamlyukskogo Egipta XIV veka (issledovanie, transkripsiya, tekstologicheskie primechchaniya), - Turkestan, «Turan», 2004, s.9.

muqaddas kitoblarning tarjimalari edi»¹. Keyinroq bu yozuvda ko‘plab adabiy asarlarning maydonga kelganligi yaxshi ma’lum. «Adabiy, diniy- falsafiy, tarixiy, ilmiy asarlar, huquqiy bitiklar (yorliq, tilxat, guvohnomalar), xo‘jalik ishlariga oid qaydlar, bitiktoshlar, tashrifnoma va boshqalar»² shu yozuv namunalari sifatida saqlanib qolgan. Jumladan, Aahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarining bir nusxasi uyg‘ur yozuvida Zaynul Obiddin bin Sulton Baxt Jurjoniy Husayniy tomonidan 1444 yilda Samarqandda boshqa bir nusxasi esa Abdurazzoq baxshi tomonidan Istanbulda 1480 yildako‘chirilgan³.

Savdoning alohida mavqei haqida ham to‘xtash joiz. Zero, turkiylar muhim savdo yo‘llarining ustida edi. Bu holat bir qancha xalqlar madaniyatining bir-birlariga ta‘cir ko‘rsatishiga ham omil bo‘ldi.

Birgina «Avesto» da ham turkiy, ham eroniy xalqlar dunyoqarashi, urf- odatlari, yashash tarzlariga oid ma’lumotlarning uchrashi tasodifiy emas.

Savdo aloqalarining kengayishi turli tillar va yozuvlarning ham keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Oromiy va yunon yozuvlari iste’molda edi. Oromiy yozuvi asosida shakllangan so‘g‘d va xorazmiy yozuvi ham qo‘llanila boshlaydi. Bu yozuv yodgorliklari tangalar, muhrlar, kumush buyumlar va ayrim xujjatlarda aks etgan. Xorazmiy yozuvining eng qadimgi namunasi Qo‘yqirilgan qal’adan topilgan bo‘lib, eramiz-dan oldingi III asrga oiddir.

So‘g‘d yozuvining yodgorligi esa Tali Barzu (So‘g‘d) dan topilgan sopol idish sinig‘iga o‘yib yozilgan va u eramizdan oldingi I asrga tegishli. Bu yozuv namunalarning II-III asrlarga oid obidalari Dunxuan (SHarqiy Turkiston) dan topilgan. Ularda Samarqandda yashagan ona va Dunxuanda turadigan qiz o‘rtasidagi yozishmalar ifodalangan. YOzishmalar oilaviy turmush, O‘rta Osiyo xalqlari-ning yuqori madaniy saviyasi haqidagi axborotlarni beradi.

Mug‘ tog‘i (Panjakent yaqini) dagi qal’adan topilgan 400 ga yaqin buyum alohida ahamiyatga molik. Ular orasida to‘qilgan qopqoq va sandiqlar ustiga teri qoplangan ayollar idishi, ayniqsa, undagi bezatilgan ot va qurol- anjomli suvoriy tasviri va b. bor.

Qal'adan ko'plab yozma manbalar ham topilgan. CHarmga yozilgan arabiy bitik xujjatda lashkarboshi Divashtichning jang oldidan ittifoqchilaridan yordam so'ragani bayon qilingan (VIII asr). Ayni paytda ular o'z davrining tarixiy hujjati va so'g'd tilining yodgorligi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Turkiy run yozuvining ham keng iste'molda bo'lganini O'rxun-Enasoy obidalari orqali yaxshi bilamiz. YUnon tarixchisi Me-nandr so'g'd elchisi Manianning Konstantinopolga Istami hoqon-ning «iskif harflari» bilan yozilgan xatini olib borganligidan xabar beradi. Ammo uning turkiy run yoki so'g'd yozuvi ekanligi ham aniq emas.

¹ Nadjib E.N. Kultura i tyurkoyazychnaya literatura mamlyukskogo Egipta XIV veka (issledovanie, transkripsiya, tekstologicheskie primechaniya), - Turkestan, «Turan», 2004, s.3.

² Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. - // Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. «Avesto», «Zand» kitoblari. Sug'd falsafiy-axloqiy yozma yodgorliklari. Turkiy matnnavislik tarixi. – Toshkent, YOzuvchi, 2000,117-bet.

³ Nadjib E.N. Ko'rsatilgan kitob, 9-bet

Islomdan oldin turkiy xalqlar orasida keng qoʻllangan yana bir yozuv- uygʻur yozuvidir. U VI-VIII asrdan eʻtiboran foydalanilgan. U hatto arab yozuvi bilan yonma-yon holda XV asrgacha, Xitoydagi uygʻurlar orasida esa keyingi asrlarda ham isteʻmolda edi. U soʻgʻd yozuvi asosida shakllangan. Bu yozuv oʻngdan chapga qarab yozilgan. Unda 18 harf bor. Undagi hamma harflar qoʻshilib yozish imkoniyatiga ega. SHunga koʻra ularning uch: soʻz boshida, oʻrtasida va oxiridagi shakli mavjud. Bu yozuv haqidagi dastlabki maʼlumot Mahmud Qoshgʻariyning «Devonu lugʻot it-turk» asarida berilgan. U «barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qashqardan CHingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritiladi», □ deb yozgan.

Mazkur yozuvda buddaviya, moniy, xristian dinlariga oid axloqiy- taʼlimiy asarlar, huquqiy va moliyaviy xujjatlar saqlanib qolgan.

«Qutadgʻu bilig» (YUusuf Xos Hojib) asarining XV asrda Hirotda koʻchirilgan nusxasi shu yozuvda bitilgan. «Hibat ul-haqoyiq» (Ahmad YUgnakiy) asarining ham uygʻur yozuvidagi nusxasi topilgan.

X asrda Beshbaliq (SHarqiy Turkiston) shahrida yashagan Singqu Seli Tutung «Oltin yorugʻ» asrini Xitoy tilidan tarjima qilgan. Bu asar tarjimasi ham uygʻur yozuvida bitilgan. SHuning-dek, «Oʻgʻuznoma»,

«Muhabbatnoma» (Xorazmiy), «Latofatnoma» (Xoʻjandiy), «Mahzan ul- asror» (Mir Haydar) va boshqa koʻpgina asarlarning uygʻur yozuvidagi nusxalari ham mashhurdir.

Saqlanish shaklidagi oʻziga xosliklar

Runiy yozuvdagi yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas. Ularning qogʻozga, turli buyumlarga yozilgan namunalari ham bor. Masalan, «Irq bitigi» («Taʼbirnoma») qogʻozda yozilgan. Uni vengr olimi A.Steyn SHarqiy Turkistondagi Dunxua manzilidan topgan. (1907 yil).

Run yozuvlari Talas vodiysidan ham topilgan. U hozirgi Avliyo ota va Tarozi shahri yaqinida boʻlgan qoyalardagi yozuvlardir.

SHuningdek, kumush koʻzchalarga yozilgan runiy yozuvlar Sibir oʻlkasidan ham topilgan. Ermitaj (Sankt-Peterburg) da saqlanayotgan 2 ta koʻzacha shu haqda

ma'lumot beradi.

Minusinsk muzeyida esa teriga yozilgan runiy bitiklar mavjud. Oyna, qayish to'qasi, qog'ozga yozilgan boshqa runiy yozuvlar ham ko'p.

Turfon (SHarqiy Turkiston) dan Le Kok tomonidan topilgan runiy yozuvlar orasida eski fors tilidagi bitiklar ham mavjud.

Vena (Avstriya) muzeyida saqlanayotgan oltin idish-tovoqlarda ham runiy yozuvidagi yodgorliklar bo'lib, ular bajnoq (pecheneg) tilida yozilgan.

YOg'ochga yozilgan run bitiklari namunalari Ermitajda saqlanadi.

YODgorlikning butun dunyo turkiyshunoslari o'rganishadi. Bu ularning ilmiy-ma'rifiy, badiiy -estetik ahamiyati nechog'li kat-ta ekanligidan dalolat beradi.

V.Tomson va V.Radlovlardan keyin S.E.Malov, S. G. Klyashtorniy, I. V. Stebleva, H. O'rxun, T. Tekin, N.Osim, G.Aydarov, o'zbek olimlaridan A.Rustamov, G'.Abdurahmo-nov, N.Rahmonovlar o'rganishgan.

YODgorliklar hozirgi o'zbek tiliga bir necha marotaba o'giril-gan. A.P.Qayumov «Qadimiyat obidalari» kitobida, G'.Abdurahmo-nov va

A.Rustamovlar «Qadimgi turkiy til» kitoblarida o'sha yodgorliklardan namunalar keltirishgan. Keyingi paytlarda N.Rahmonov «Oltun yoruq» kitobini hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilmoqda. Uning namunalari «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2005 yildan bu yondagi sonlarida berilib borilmoqda.

Talabalar byuilan darslik, o'kuv qo'llanmalari, ayrim maqola va monografiyalardagi ma'lumotlarni o'rganib, tahlil qilish mumkin. Masalan, akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun yozilgan darslikda quyidagi materiallarmavjud:

«Yodgorliklar qaysi mavzularda bahs yuritadi? Bu mavzularning badiiy tahlili qay tarzda kechadi? Ularning ahamiyati nimada? Bu savollarga javob berush uchun bevosuta obudalar matnuga murojaat qulayluk.

So'znu «To'nyuquq» butugtoshudan boshlayluk. To'nyuquq-shaxs nomu. U ukkunchu turk xoqonluguga asos solgan Eltarush xoqonning maslahatchusu va sarkardasi bo'lgan.

To'nyuquq «Turk Bilga xoqon davlatida bu bitigni yozdirdim» deydi.

Bilga xoqon Eltarish xoqonning o'g'li edi.

Bitiktoshdagi voqealar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi: «Men- Dono To'nyuquq erurman. Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi tabg'ach davlatiga bo'ysunar edi...»

So'ng ana shu davlatning-turkiylarning o'z erkini qo'ldan berib qo'yishlarining sababi aytiladi: «Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... o'zining xoni bilan birga bo'lmadi».

Mustamlaka azobi, o'zga xalq tahqiri yodgorlikda qisqa va lo'nda, ammo nihoyatda ta'circhan tarzdaifodalanadi:

«...Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun tangri, o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk Sir xalqi erida birorta ham urug' qolmadi».

Ana shunday musibat xalqning birlashmog'ini, yakdillik bilan harakat qilmog'ini taqozo etar edi. Yodgorlikda To'nyuquq xalq etakchisi, dono maslahatchisi, kuchli va botir sarkarda sifatida namoyon bo'ladi.

U etti yuz kishini birlashtirib, «shad» degan unvon oladi. Bu turk xoqonligidagi eng oliy darajadagi unvonlardan biri edi.

To'nyuquq Bo'gu tarxon hamda Eltarish xoqonlar bilan birga mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib bordi. U bu kurashlarning oldingi safida edi. Ammo dushmanlar ham tinch o'tirmadi. Ular kuchlarni birlashtirish payiga tushishdi.

Tasvir davomida vaziyatning keskinlashib borishi, buning natijasida To'nyuquq shaxsiyatidagi kuchli nuqtalarning tobora kengroq ochilishini kuzatish mumkin. Xususan, buyuk sarkardalarga xos bo'lgan tavakkalchilik, dovyuraklik, jasorat, jur'at, ba'zan nihoyatda keskinlik, cho'rtkesarlik, ayni vaqtda bosiqlik, vazminlik xislatlari bu tasvirlarda aniq ko'rinib turadi. Ukattatajribaegasisifatidanamoyonbo'ladi.

(«Xoqonim muvaffaqiyat qozongani uchun, men o‘zim muvaffaqiyat qozonganim uchun davlat ham davlat bo‘ldi, xalq ham xalq bo‘ldi, o‘zim chol bo‘ldim, ulg‘aydim».)

To‘nyuquq bahodir va jasoratli shaxsgina emas, ayni paytda o‘z atrofdagilarining mustahkam jipsligini ta‘minlaydigan, yagona maqsad yo‘lida xalqni birlashtira olishning uddasidan chiqadigan boshliq sifatida ham namoyon bo‘ladi. U, odamlarning ko‘nglidan kechayotgan o‘ylarni nozik darajaada his etadi. SHu bilan birga ularning qalblariga ta‘sir etishning yo‘llarini ham yaxshi biladi. SHunga ko‘ra, u Vatan va yurt taqdirini, xalqining kelajagini o‘z qardoshlariga buyuk xavotir bilan etkazganida, oz sonli qo‘shini harakatga keladi, natijada ko‘p sonli dushman tor-mor bo‘ladi.

To‘nyuquq buyuk vatanparvar shaxs timsolidir. Uning o‘z vatani, xoqoni, qo‘shini, xalqi bilan faxrlanishi, ularning borligidan o‘zini baxtiyor sezishi yodgorlik matniga puxtasingdirilgan.

Hatto dushmanning «xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan» degan bahosida ham shu ruh mavjud. To‘nyuquqning xotirjamligiesa «xalqning tomog‘i to‘q edi» jumlasini orqali ifodalangan.

Dushmanning turkiylar ustiga hujum uyushtirish haqidagi yovuz niyatini eshitgan To‘nyuquqning «tun uxlagim kelmadi, kunduz o‘tirgim kelmadi» deyishi uning o‘z taqdirini xalq va yurt taqdiri bilan naqadar yaxlit holda tasavvur qilishini ko‘rsatib turibdi.

To‘nyuquq iftixoridagi eng asosiy nuqta shunday ifodalanadi: «Buturk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim».

To‘nyuquq obidasi vatan haqidagi madhiyadir. U voqeyiy yoki badiiy asar bo‘lishiga qaramay, unda hayot haqiqati, tarixiy haqiqat ham o‘z aksini topgan.

Turkiy qabila va elatlarning o‘zaro talashib-tortishishlari ham, tashqi dushman bilan bo‘lgan ayovsiz kurashlar ham aslida tarixiy haqiqatdir.

Eltarish, Bo‘g‘u, Bilga xoqonlar ham tarixiy shaxslardir. Asarda tilga olingan ko‘plab qabila, urug‘lar tarixda mavjud bo‘lgan, ularning bir qismi hozir ham alohida xalqlar va millatlar tarkibida yashab kelmoqda.

YOdgorlikda murojaat, undov, chaqiriq, etakchilik qiladi. To'nyuquq tabiatida tushkunlik, ikkilanish mutlaqo ko'rinmaydi. Uning harakatlarida, so'zlarida o'ziga ham, butun xalqiga buyuk ishonch balqib turadi. Xuddi shu holat uning g'alabalariga asosiy omil bo'ladi.

«To'nyuquq» bitigtoshi kompozitsion jihatdan etuk asar. Unda o'ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. SHu kompozitsiyaning o'zida ham katta badiiylik bor. Bu maqsad to'laligicha amalga oshgan.

YOdgorlikning til xususiyatlari e'tiborga loyiq. U VIII asrdagi adabiy til namunasi. Asar tilidagi ko'plab so'zlar hozirgi o'zbek tilida aynan qo'llaniladi. Bir qism so'zlarda ozgina tovush o'zgarishlari yuzaga kelgan, yana bir toifa so'zlar esa bugungi iste'moldan chiqib ketgan.

YOdgorlikda o'rni-o'rni bilan so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi seziladi. SHuningdek, majoz, matal, maqollardan foydalanish kuchli:

«Tabg‘ach, O‘g‘uz, Xitoy □ bu uchovi qamal qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudining ichu tashini – molu jonini topshirgan kishiday bo‘lamiz. YUpqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish. YUpqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish». Asarda oltinga «sariq», kumushga «oq», tuyaga «egri» singari epitetlar-sifatlar qo‘llangan.

Undagi asosiy tasvir vositasi alliteratsiyadir. Alliteratsiya- tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. Unda unli va undosh takrorlanishi mumkin.

O‘ngra qitaynyig‘ O‘lurtachi terman, Bani O‘g‘uzug‘ O‘lurtachi □ o‘qterman.
So‘z takrori ham yodgorlikda ko‘p uchraydi.

Tabg‘ach qag‘an yag‘imiz erti O‘n o‘q qag‘ani yag‘imiz erti.

Undagi o‘ziga xos tasvir usullaridan yana bir voqea-hodisalarga muayyan yondashish bilan izohlanadi. Ko‘pincha bir necha voqea-hodisalar yoki ular bilan bog‘liq detallar ketma-ket sanaladi:

«Turk budun o‘lti, alqinti, yo‘q bo‘ldi». Bu erdagi ketma-ket sanoq voqea zimirdagi dahshatli musibatni, kuchli fojiani juda yorqin namoyon etadi. YOki:

«Tabg‘ach, bardanayin teg. Qitany, o‘ngdalayin teg. Ban yirdantayin tegayin». (Tabg‘ach, sen o‘ngdan hujum qil! Xitoy, oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay!).

Bu o‘g‘uzlar orasidan kelgan kuzatuvchi nutqidan parcha. U o‘g‘uzlar fikrini ifodalamoqda. Bu erdagi sanoq dushman tomonidan solinayotgan tahdid va xavf-xatar doirasining nechog‘li kattaligini tasavvur etishga imkon beradi.

Bularning hammasi To‘nyuquq bitigtoshining yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan qadimiy nodir badiiy asar ekanligini yana bir marta tasdiqlab turadi.

O‘rxun-Enasoy obidalarining asosiy qismi shu xoqonliklar tarixining badiiy solnomasidir. Ularning dastlabkilari yuqorida aytilganiday qabrlarga qo‘yilgan toshlardan iborat bo‘lgan. Masalan.

«Bilga xoqon» bitigi ham Yo‘llug‘ tegin qalamiga mansub. Bitigda

«Kultegin» va «To'nyuquq» obidalariga xos bo'lgan an'ana □ qahramonlik va vatanparvalik g'oyasini ulug'lash asosiy o'rin tutadi. Yodgorliklarda inson shaxsi va ayniqsa, uning erki bilan bog'liq masalalar teran badiiy tahlil qilingan.

Bitikdagi voqealar Bilga xoqonning yoshiga bog'liq holda davriy izchillikda ifodalangan. Qahramon o'n etti, o'n sakkiz, yigirma ikki, yigirma olti, yigirma etti, o'ttiz, o'ttiz bir, o'ttiz uch, o'ttiz to'rt, qirq yoshidagi voqealarni eslatadi. Aslida bu voqealar butun boshli bir

xalq □ turkiylar tarixidagi nihoyatda jiddiy burilishlar haqida hikoya qiladi.

Voqealar Bilga xoqonning o'n etti yoshida tang'ut tarafga lashkar tortishi bilan boshlanadi. Mana g'alaba ifodasi: «Tang'ut xalqini engdim, o'g'lini, bor narsasini, yilqisini, mol-mulkini oldim».

Bu Bilga xoqonning dastlabki g'alabasi edi. Matn mavzusi harbiy sohaga aloqador. SHuning uchun asosiy fikr davlat, qo'shin, harbiy salohiyat ustida boradi.

Yodgorlikda turli-tuman joy, qabila nomlari tilga olingan. Bular matnga haqqoniylik, rostlik ruhini singdirib turadi, so'zlovchining fikrlarini dalillaydi. Matnda □ olti chub sug'dak xalqi, tabg'ach, basmil, idiqut, chik xalqi, qirg'iz, qorluq, to'qqiz o'g'uz, turk tatabi □ turgash kabi qabila va urug' nomlari; Bo'luchi, Beshbaliq, Tamg'uduk bosh, To'g'u baliq, Antarg'u, CHush, Azganti kadaz, Mag'i Qo'rg'on, Idar bosh, Ko'gman yish, So'nga yish, Oltin yish singari joy nomlari; Kam, Irtish, Tug'la (To'li) singari daryo nomlari uchraydi.

Bular aslida tarixan mavjud bo'lgan nomlardir. Ana shu holat yodgorlikni tarixiy uslubda yaratilgan asarlar sirasiga kiritish mumkinligiga dalolat beradi.

Asarda alohida badiiy tafsilotlarni qatorlashtirish, muallif nutqida sanoq ohangi etakchilik qiladi. Masalan, qabila nomlari (basmil, idiqut), muqaddas tushunchalar (tangri, muqaddas er-suv, otam xoqon ruhi), qarindoshlik atamalari (bolasini, bekasini), kishi tanasining a'zolari (sochini, qulog'ini, yonog'ini kesdi) va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bilga xoqon obidasida ham □ parallelizmlar, qiyoslashlar asosiy o'rin tutadi.

«Yigirma ikki yoshimda Tabg'ach tomon lashkar tortdim. CHacha sangunning sakkiz tumanlik qo'shini bilan urushdim. Qo'shinini o'ldirdim». (Qadim YAponiyada ham So'g'un □ samuray, bahodirlik unvoni □ red.)

«Yigirma olti yoshimda CHik xalqi Qirg'iz bilan dushman bo'ldi. Kam daryosini kechib o'tib, qirg'iz tomon lashkar tortdim. O'rnanda jang qildim. Qo'shinini tormor qildim. Az xalqini taslim etdim».

«Yigirma etti yoshimda yana Qirg'iz tomonga lashkar tortdim. Nayza botimi qorni yorib, Ko'gman (Sayan) yishga ko'tarilib, Qirg'iz xalqini uyquda bosdim. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildim. Xoqonini o'ldirdim. Davlatini o'shanda oldim. O'sha

yili Turgash tarafga, Oltin yishni oshib o'tib, Irtish daryosini kechib yurish qildim. Turgash xalqini uyquda bosdim. Turgash xoqonining qo'shini o'tday, bo'ronday keldi.

Bo'luchida jang qildik. Xoqonni, yabg'usini, shadini o'shanda o'ldirdim.

Davlatini o'shanda oldim».

Uchta parcha matnda ketma-ket kelgan. Ular yigirma ikki, yigirma olti hamda yigirma etti yosh bilan bog'liq.

Ulardagi voqealar tizimini shunday guruhlash mumkin.

a) qahramonning muayyan yoshi; b) voqea sodir bo'lgan joy;

v) voqeaning mohiyati;

g) natija;

Dastlabki parchada bu 22 yosh bilan bog'liq, voqea sodir bo'lgan joy esa Tabg'achlar tomoni. U erda CHacha Sangun degan mashhur sarkarda bilan jang qilinishi voqea mohiyatini anglatadi. Natija esa qo'shin bilan urushib, uni o'ldirish bilanyakunlangan.

Keyingi bosqich yigirma olti yosh bilan aloqador. Bu erda voqea sodir bo'lgan joy Kam daryosidan keyingi Urpandir. Voqea mohiyatini jang tashkil qiladi. Natija ham o'xshash: qo'shin tor-mor qilingan, Az xalqi taslim bo'lgan.

Oldingi parchadan farq voqealar tafsilotining bir ozgina kengaytirilib, muayyan aniqliklar kiritilishida ko'rinadi.

Oxirgi parcha ham xuddi shu xilda tuzilgan. Faqat tafsilot anchagina kengaytirilgan.

Voqea mohiyati va natijaga ko'proq e'tibor berilgan.

So'zlar takrori yodgorlikdagi asosiy tasvir vositalaridan biridir:

«Men o'n to'qqiz yil shad bo'lib turdim, O'n to'qqiz yil xoqon bo'lib turdim davlatni tutib turdim.

SHu misolimizda o'n ettita so'z ishtirok etgan bo'lsa, ulardan 6 tasigina bir martadan qo'llangan, xolos. Ammo so'zlar takrori matnda g'alizlik tug'dirmagan, aksincha, muallif fikrining ta'kidlanishiga alohida urg'u bilan ko'rinishiga yordam

bergan. Bularning barchasi yodgorliklarning juda katta ma'rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatibturibdi».

So'ng shu matn tahliliga oid savol va topshiriqlar ustida ishlash mumkin bo'ladi:

1. Matndagi etakchi fikr-mulohazalarniajrating.
2. Qadimgi turkiy obidalarga qaysi yodgorliklarkiradi?
3. Ularni qanday tasnif qilish mumkin? Nimauchun?
4. Qadimgi turkiy obidalarining zamonaviy adabiyotdan qanday asosiy farqlari bor,o'ylaysiz?
5. Bu xususiyatlarin o'kuvchilarga tushuntirishda qanday usullardan foydalanish imkoniyatlarimavjud?
6. Mavzuga oid asarlardan biri haqida bir soatlik dars ishlanmasinituzing.
7. Ushbu mavzuga oid ko'rgazmali qurollar eskiznituzing.
8. Mazkur mavzuga oid tarqatma materiallar namunasinituzing.

Mumtoz asarlarni o'rganish

Mumtoz asarlarni o'rganish bir qator o'ziga xosliklarga ega. Ularning davr nuqtai nazaridan nisbatan ancha oldin yaratilgani, ulardagi badiiy tafakkur tarzining o'ziga xosligi, ifodalardagi murakkablik, uslubiy

o‘ziga xosliklar, matnlardagi lug‘aviy tarkibning bugungi o‘quvchi uchun muayyan qiyinchiliklari shular jumlasidandir.

Mumtoz adabiyot namunalarini to‘g‘ri o‘qish uning ma’nosini teran va mukammal tushunishning dastlabki odimi bo‘lib, matndagi noaniqliklar uning mazmunini anglash yo‘lidagi birinchi g‘ovdir. Birgina misol:

YUsufi siddiq alayhissalom Soqini zindon edi ul subhu shom¹.

Keyingi misra boshida turgan «soqini» so‘zi tufayli matn mazmuni xiralashib turibdi. O‘quvchi dasbdurustdan uni «soqiyini» tarzida tasavvur qilishga urinib ko‘radi. Tabiiyki, bu shakl matn mazmuniga singishmaydi. Bu erdagi oddiygina imlo xatosi, ya’ni «k» harfining «q» tarzida yozilgani mazkur noaniqlikni keltirib chiqargan. Bu kemptiklik tuzatilsa baytning asl holati tiklanadi:

YUsufi siddiq alayhissalom Sokini zindon edi ul subhu shom.

Ayrim so‘zlarning hozirgi shakli ham kitobxonni chalkashtirishi mumkin. Vaholanki, uning qadimgi shakli va ma’nosi mutlaqo boshqacha bo‘lgan.

Mumtoz asarlarimiz matnida arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar oz emas. SHunga ko‘ra, ayrim hollarda ularga bog‘liq bo‘lgan ayrim imlo xususiyatlarini ham nazarda tutish kerak bo‘ladi. Izofali birikmalar ularning bir ko‘rinishidir. Bunga e’tibor bermaslik, matnning g‘alizligiga, undagi ta’sirchanlikning pasayishiga, g‘alat ma’no talqiniga yo‘lochadi.

Ammo izofali birikmalar ba’zan «aldamchi» ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin. Bunday holatlarda matn tarkibidagi mantiqiy bog‘lanishlarga tayanish kerak bo‘ladi.

No‘karlar targ‘asin teb berdi dastur, Qamug‘lar ketti, qoldi shoh, SHovur.

Baytning hozirgi holatida «tegishli ko‘rsatma berilganidan keyin barcha tarqalib ketdi, faqat shoh bilan SHovur qoldi» degan tasavvur uyg‘onadi. Ammo misralarni sinchiklab o‘qish ularda vazn saktaligi mavjudligidan dalolat beradi. Bu saktalik ikkinchi misraga aloqador. Ma’lumki, Qutb Xorazmiyning «Xusrav va SHirin» dostoni hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Bu vaznning paradigmasi quyidagicha ko‘rinishga ega:

V - - - V - - - V - -

V - - - V - - - V - -

She'ni shu vazn paradigmasiga mos holda tasavvur qilib ko'raylik:

No'	kar	lar	tar	g'a	sin	teb	ber	di	das	tur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-
Qa	mug'	lar	ket	ti	qol	di	shoh		SHo	vur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-

¹ Durbek. YUsuf va Zulayho. Qayta nashrga tayyorlovchi R.SHarafuddinova. 64-bet

Ma'lum bo'lyaptiki, ikkinchi misraning uchinchi ruknni boshlab beradigan bitta qisqa bo'g'in etishmayapti. Bu tabiiydir. Zero, matnni o'qishda izofali birikma izofasiz o'qilgan. Natijada, yuqoridagi holat yuzaga kelgan. Izofani tiklasak bayt quyidagi ko'rinishni oladi:

No'karlar targ'asin teb berdi dastur, Qamug'lar ketti, qoldi shohi SHovur.

SHu bilan matn vaznidagi qusur ham barham topadi:

No'	kar	lar	tar	g'a	sin	teb	ber	di	das	tur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-
Qa	mug'	lar	ket	ti	qol	di	sho	hi	SHo	vur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-

Ammo bu ko'rinishda «SHovur shoh» tushunchasi qoladi. Ammo SHovurning shoh emasligi ayon haqiqat. Unda mazkur bayt qanday o'qilishi kerak. Endi matnning o'ziga, ya'ni dostonning butun tarkibiga e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Matnning keyingi qismlarida mazkur holatning yana bir marta takrorlangani ko'zga tashlanadi.

Unda shoh bilan SHovurninggina qolgani ta'kidlanadi:

SHahanshoh endi targ'ang, deb ayitti, Birin-birin no'karlar chiqti-ketdi. Tek ul SHovur qoldi shoh qotinda, Taqi ikki qubuzchi xizmatinda.

Agar mana shu holatni e'tiborga oladigan bo'lsak, olddingi baytimiz ham bog'lovchi vazifasidagi «u»ni qabul qilishi ma'lum bo'ladi:

No'karlar targ'asin teb berdi dastur, Qamug'lar ketti, qoldi shohu SHovur.

Matn mazmuniga tayangan holda, «shoh»ning bir uzun va bir qisqa (-v)hijo tarzida o'qilish imkoniyati ham borligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

No'karlar targ'asin teb berdi dastur, Qamug'lar ketti, qoldi shoh, SHovur.

Unda bayt taqtesi quyidagicha bo'ladi:

No'	kar	lar	tar	g'a	sin	teb	ber	di	das	tur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-

Qa	mug‘	lar	ket	ti	qol	di	sho	h	SHo	vur
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-

Bularning barchasi matnning asl holatiga– qo‘lyozma nusxalarga qarabgina beligilanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mumtoz adabiyotni o‘rganish she‘r san‘atlari bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilishi kerak. Mumtoz adabiyotimiz uchun she‘r san‘atlari favqulodda kata ahamiyat kasb etadi. Qadimiy an‘analarga muvofiq asarlarning yozilish tarixini qayd etish hamma vaqt ham shart hisoblangan emas. Ammo ayrim she‘riy san‘-atlar ularning yaratilishi bilan aloqador

bo'lgan ko'plab prinsiplar masalalarga oydinlik kiritishi bilan ayri-cha ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari bizga uch qulyozma nusxada etib kelgan. Ularning yozuvlari ham turlicha: ikkita qo'lyozma arab va bir qo'lyozma uyg'ur yozuvida amalga oshirilgan. Asarning yirik tadqiqotchilaridan biri Q. Karimov asarning muallif varianti arab yozuvida yaratilganini isbotlab bergan. Bu isbotda unga kitobat san'ati yordam bergan.

Ayrim she'r san'atlari matnning butun va mukammalligini ham ta'min etib turadi.

Alisher Navoiyning 20 jildlik yangi nashrida shunday misralar bor:

Qaysi dur ul, durji vafo gavhari,

Qaysi guhar, burjui hayo axtari¹.

Qaytariq: qaysi..., qaysi.; **Zulqofiyatayn:** vafo gavhari:hayo axtari; **Ruju:** gavhari, qaysi guhar;

Tarsi: har ikki misraning o'zaro bir xil vazn va bir xil ohangdorlikka egabo'lishi...

Mana shu oxirgi she'riy vaznning yuzaga chiqishida ikkinchi misrada bitta chekinish ko'zga tashlanadi. Oldingi misrada *durji vafo* izofali birikmasi mavjud Keyingi misrada ham *burji hayo* izofali birikmasi qo'llangan. Ammo u hozirgi holatda «*burjui hayo*» tarzidi turibdi. Mazkur she'riy san'at bir xil ritmik pozitsiyadagi ikkita so'zning bir xil vazn va bir xil ohangda o'qilishini taqozo etadi. Demak, bu erda bitta «u» tovushi vaznga sig'maydi. Shunga ko'ra, misraning to'g'ri shaklini tiklash imkoni yuzaga keladi:

Qaysi dur ul, durji vafo gavhari, Qaysi guhar, burji hayo axtari.

Bu holat she'riy san'atlarning tekstologik jihatdan ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mumtoz adabiyotni o'rganish jarayonida, ayniqsa ularning shax-siyatini tasavvur qilishda, ayrim asarlarning yozilish tarixini aniqlashda tegishli manbalarga muhtojlik doimo sezilib turadi. Ushbu jarayonda ijodkorlarning ayrim mulohazalari, yo'l-yo'lakay aytgan fikrlari ham ularning shaxsiyatini tushunish uchun katta imkonlar berishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy Hazrati Amir Qosim Anvor haqida «Majolis un- nafa'is» tazkirasida ma'lumotlar berar ekan, Anvariyning merosidan misol tariqa-sida ikki baytkeltiradi:

«Ishqi tu ki sarmoyayi mulki du jahon ast, Alminnatu lillahki, maro bar dilu jon ast.
(Ollohga shukrki, sening ikki jahon mulkiga sarmoya

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik /[Tahrir hay’ati: K.YAshin va boshq; P.SHamsiev ilmiy-tanqidiy matni asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, I.Haqqulov; Mas’ul muharrir: YO.Ishoqov]. T.7.Hayrat ul-abror. – T.: Fan, 1991, 36-bet.

bo'lgan ishqing mening yuragim va jonimdadir).

YAna biri bukim:

Rindemu oshiqemu jahonso'zu joma chok, Bo davlati g'ami tu za fikri jahon chibok.

(Rindmiz, oshiqmiz, jahon o'rtovchilar va yoqavayronlarmiz.

Sening g'amning turganda Dunyo g'amini chekishdan ne foyda?!))»¹.

SHundan so'ng quyidagi eslatma keltiriladi:

«Bu faqir avval nazmekim o'rganibmen, bu so'nggi matla'dur. Hamono uch yosh bila to'rt yoshning orasida erdim, azizlar o'qumoq taklifi qilib, ba'zi hayrat izhor qilurlar erdi...»²

Ushbu ko'chirma Alisher Navoiy shaxsiyatiga oid ayrim tafsilotlarni tasavvur etish imkoniyatini berishi bilan e'tiborlidir. Jumladan, u:

- 1) Navoiyning birinchi yodlagan she'rihaqida;
- 2) Navoiyning she'riyatga bo'lgan havasining juda erta namoye
- 3) Uning ilk bolaligidanoq kuchli xotira egasi bo'lganihaqida;
- 4) SHoir ijodining ilk manbalari haqida ma'lumot beraoladi.

Mumtoz adiblar va ularning asarlari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar ularga zamondosh bo'lgan ijodkorlar, olimlar, buyuk kishilarning tarixiy, ilmiy, badiiy, memuar asarlarida ham saqlanib qolgan. SHunga ko'ra ta'lim- tarbiya jarayonida ulardan foydalanish ilmiy haqiqatlarning mukammallashuviga, shuning-dek, pedagogik faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsati-shi shubhasizdir. Bu erda bir misol keltirish kifoya qiladi. YAqin-yaqinlargacha ham «Gul va Navro'z» dostonining muallifi haqidagi qarashlar ikki tomonlama bo'lib turgan edi. Ayrim tarixiy ma'lumotlardagi chalkashlik tufayli Haydar Xorazmiyga mansub bo'l-gan bu asar Lutfiyga ham nisbat berib kelinardi. SHayx AhmadTarolziyning

«Funun al-balog'a» asari topilganidan keyin bu noaniqlikka chek qo'yildi. Ma'lum bo'lishicha, unda asardan parcha keltirilib, ularning Haydar Xorazmiyga tegishli ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan ekan³. Asarning 1436-1437 yillarda yozilgani muallifning o'zi zamondosh bo'lgan voqealar haqida ma'lumot berganligini tasdiqlab

turadi.

Savol va topshiriqlar:

1- topshiriq.

Quyidagi matnni o‘qing, uning mazmunini o‘zlashtiring:

XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrlar adabiyoti

XV asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nisbiy ko‘tarilishlar bilan xarakterlanadi. Bu davrda Temuriylarsiyosatining

¹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – Mukammal asarlar to‘plami, Yigirma tomlik, O‘n uchinchi tom., Toshkent, Fan, 1997,11-bet.

² O‘sha erda.

³ Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. (Tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar). – Toshkent, Fan, 1996.26-bet.

o'ziga xos qirralari yanada ko'proq namoyon bo'la boshlaydi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro zamonida Hirot gullab-yashnaydi.

Ulug'bek zamonida Samarqandda ilm-fan nihoyatda yuksaldi, o'zbek fanining dunyoga yoyilishida bu davr o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, aniq fanlar rivoji, ayniqsa, matematika, astronomiyadagi yutuqlar salmoqli bo'ldi. Birgina Ulug'bek observatoriyasining yutuqlari natijasida 1018 ta yulduzning holati o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, yulduzlarning o'rnini belgilashdagi aniqlik hozirgi zamon yutuqlari bilan deyarli uyg'un keladi. Ulug'bekning otasi SHohruh Mirzo qurdirgan kutubxona salmog'iga ko'ra ham, boyligiga ko'ra ham o'z zamonasida tengsiz edi.

Bu davrda fan, madaniyat va san'atning behad rivojlanishi kuzatiladi. Ayniqsa, me'morchilik, arxitektura, musiqa, tarix, astronomiya fani katta yutuqlarni qo'lga kiritadi. Samarqandda Bibixonim, SHohizinda, Ulug'bek madrasalari, Go'ri Amir, Ulug'bek rasadxonasi o'sha davr me'morchiligining go'zal obidalari sifatida bugun ham xalqimizning faxru iftixoriga sabab bo'lib kelmoqda.

Hirotida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning tashabbus va rahbarliklarida ko'plab binolar, madrasa va xolnaqohlar, shifoxona, hammom va karvonsaroylar qurilgani, ariq va kanallar qazilgani, bog'-rog'lar barpo qilingani yaxshima'lum.

Faxriddin Xujandiy, Sultonali Xujandiy, YUsuf Tabib singari mashhur hakimlar tib ilmining yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shishdi.

Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va uning o'g'li Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur SHarafiddin Ali YAzdiy, Hofizi Abro'larning katta mehnatlari tufayli tarix ilmi nodir asarlar bilan boyidi.

Bu davrda adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ko'plab asarlarning yaratilganligi ham e'tiborlidir. Ularning bir qismi bevosita arab tili, grammatikasi, lug'atchilikka bag'ishlangan bo'lsa-da, asosiy urg'uning o'zbek tili ravnaqi va uning mavqeini mustahkamlashga qaratilganligi ham e'tiborlidir. SHayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy («Funun al-balog'a»), Davlatshoh Samarqandiy (1438-1491) («Tazkirat ush-shuaro») Abdurahmon Jomiy («Bahoriston», «Risolayi aruz», «Risolayi muammo», «Risolayi qofiya»), Alisher Navoiy («Mezon ul-avzon», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Risolai muammo»), Bobur («Muxtasar»), Hiloliy

(«Risolayi qofiya»), Atoullo Husayniy («Badoe us-sano») - larning asarlari bu sohadagi bebaho kashfiyotlardir. Bu asarlarning juda katta qismining bevosita Navoiy taklifi va madadi bilan yaratilganligi ham diqqatga sazovordir.

Ayni paytda temuriylar inqirozi ham shu davr bilan aloqador. Ulug'bekning olamdan o'tishi bilan (1449) ijtimoiy-siyosiy hayotdagi keskinliklar juda kuchaydi. Temur tuzgan buyuk davlat endilikda bir necha bo'laklarga bo'lina boshlagan, temuriylar alohida-alohida hukmronlik qilish yo'lini tuta boshlagan edilar.

Sulton Husayn Xurosonda, Abu Said Mirzo va uning farzandlari Movarounnahrda hukmronlik qila boshlaydilar. Hirot va Samarqand, ularning yonida Andijon, Buxoro, Balx madaniyat markazlari sifatida dong taratadi. SHunga qaramay hukmdorlar o'rtasida ham, ularning farzandlari orasida ham hokimiyat uchun talashish va kurashishlar aslo to'xtagan emas.

Bu paytda din ham hokimiyat bilan yonma-yon faoliyat ko'rsatib keldi. Islom dini Xo'ja Ahror qiyofasida temuriylar davlatining tayanch nuqtalaridan biri edi.

Temuriy hukmdorlarning ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyotning rivojiga munosabatlari bir xil bo'lgan emas. Ammo Temurning o'zidagi xislatlar (Navoiy bu haqda shunday deydi: «agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor») uning farzandlari va nabiralari ham mujassamlashgan edi. Husayn Boyqaro, SHohruh, Abobakr Mirzo, Ulug'bek Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Xalil Sulton, Sulton Ahmad Mirzo, SHoh G'arib Mirzolar esa bevosita badiiy ijod bilan shug'ullanishgan, ularning ayrimlari devon ham tartib bergan edilar. Zahiriddin Muhammad Bobur bu sislsiladagi eng muhim va bebaho xalqalardan biri edi. Boburning farzandlari va nabiralari orasida ham badiiy ijod bilan shug'ullanish an'anasining davom etganligini yaxshi bilamiz.

SHayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy «Funun al-balog'a» asarida (hijriy 840 – milodiy 1436-1437 yillar) o'z davridagi o'nta she'riy janrlarga tavsif beradi (qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard). Vaholanki, Navoiy ijodida–

«Xazoyin ul-maoniy» da biz she'riy janrlarning 16 ta xilini uchratamiz.

Temuriylarning o'zaro nifoq va kurashlari SHayboniyxonning (1451- 1510) tarix maydoniga kirib kelishi va bu maydonda barqaror turib qolishi uchun imkon beradi. SHayboniyxon ko'chmanchi o'zbeklarning xoni Abulxayrxonning (1428-1468) nabirasi edi. U 1499 yilda Temuriylarga dastlabki zarbalarni bera boshlagan bo'lsa, ko'p o'tmay ularning o'rnini deyarli egallaboldi.

Bu davrda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodi jahon adabiyotining eng porloq namunalari sifatida e'tirof etiladi.

Badiiy ijodning ikki tilda yaratilishi ham shu davrning muhim xususiyatlaridan edi. Ammo Navoiy boshchiligidagi adabiy harakat turkiy til mavqesi uchun qattiq kurash olib borishadi va bu borada olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritishadi...

Husayn Boyqaro (1438-1506). *Husayn Boyqaro faqat mohir sarkarda va yirik davlat arbobigina emas, balki iste'dodli adib ham edi. U o'sha davrdagi o'zbek fani, madaniyati, ayniqsa, adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shgan. Hukmdor sifatida esa o'z davrida turkiy tilda asarlar yaratilishiga imkon yaratib bergan, bu ishlarni amaliy jihatdan rag'batlantirgan edi. Adibning «Risola» nomi bilan mashhur bo'lgan asari alohida tarixiy, adabiy, ma'rifiy ahamiyatga molik. Unda, jumladan, Navoiyhaqidagiko'plab tarixiy haqiqatlar va e'tiroflar kiritilgan.*

Husayn Boyqaro Navoiy haqida gapirib: «..... turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarg'a turkiy oyin alfoz toru pudidan to'qulgon hulla va harir kiydurdi», deydi.

«Risola» - o'zbek prozasining yaxshi va go'zal namunasi sifatida ham e'tiborga molikdir.

Adib iftixor bilan yozadiki, uning zamonida Hirotida yuzta madrasa faoliyat ko'rsatadi va ularda mamlakat tashqarisidan kelgan ko'plam talabalar ham saboq olishadi: «. . . holo shukrkim, dor us-saltanatda taxminan yuz havzayi dars bo'lg'aykim, fazoili diniya va ulumi yaqiniya adnoyi va Rum aqsosidin va CHin sarhadiga degincha jamei islom bilodidin qobil toliblar bu ovoza va muzokarai beandozani eshitib g'urbat mashaqqatin ixtiyor qilib, bu taxtgohg'a yuzlanurlar» («SHukrki, hozir saltanat markazi (Hirot) da taxminan yuzta o'quv yurti bor bo'lib, din fozillari va tabiiy fanlarning olimlarini deb Rum erlaridan to CHin chegarasigacha bo'lgan barcha islom shaharalaridan qobiliyatli talabalar bu o'quv dargohlari va (ulardagi) o'xshashi yo'q suhbatlar ovozasini eshitib, musofirlik mashaqqatini bo'yinlariga olib, bu shohlik markazigayuzlandilar)».

«Risola» da Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning ijodlari- ga juda katta baho beriladi. Jumladan, Jomiy «jumlaning a'lami (olimi) vaafzali,fazoil(fazilatlar)daryosiningduripoki»debta'riflanadi.

«G'azallari sho'raangiz (olamga g'avg'o soluvchi, ya'ni kishida kuchli his va hayajon uyg'otuvchi), baytlari lutfomiz (lutfga boy)» ekanligi uqtiriladi. Alisher Navoiy haqida esa nihoyatda nodir va haqqoniy fikrlar bildiriladi. Navoiyning «haq so'z adaosinda daler (botir, qo'rqmas)»ligi alohida ta'kidlanadi. Uning «turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bilan ruh kiyurdi» degan ta'riflari ayni paytda yirik shoirning samimiy e'tiroflari hamed.

Husayn Boyqaro «Xamsa» yozgan buyuk adiblarni o'zaro chog'ishtirar ekan, Navoiyning ustun tomonlarini ham juda oddiy va ishonchli tarzda ko'rsatib beradi: «Agarchi SHayx Nizomiy nazm ahlining ustodidir, o'z «Xamsa»sini o'ttiz yilda takmil beribturur. Va Mir Xisravkim «Xamsa» abyoti adadin o'ttiz mingdin o'n sakkiz mingga ixtisor qilibturur va shuhrati mundoqdurkim olti-etti yilda

tugatibturur.

Bu fasohat (so'zning ochiq, ravshan, ravon, yoqimliliği) maydonining safdari (saflarni yoruvchisi) va balog'at (so'zni go'zal va ta'sirchan qilib ifodalash) beshasi (to'qayi, o'rmonzori) ning g'azanfari (sheri, arsloni)..... bunyodining ibtidosi (boshlanishi)din savodi (yozuvi)ning intihosi (oxiri)g'acha hamono ikki yildin o'tmadi va aytilg'on avqot (vaqtlar) hisobg'a kirsas, desa bo'lg'aykim, olti oyg'a etmadikim, aning afsonalari ranginlig'in va abyoti (baytlari) sehroyinlig'in va tarokibi matonatin va maoniysi latofatin mutolaa qilg'an kishi bilg'ay va mulohaza qilg'an kishi fahm qilg'ay».

Uning o'zi hassos shoir edi. Adib o'zini «xasta ko'ngul» der ekan, mana shu hassoslikni, olam hodisalariga befarq qarolmaslikni nazarda tutadi. So'z ma'nolarini nozik darajada his etish va buni boshqlarga ham etkazib

berishning mohirona yo'llarini puxta egallaganlik adib she'riyatida ochiq ko'rinib turadi.

Men hilol o'ldim g'amingdin, sen quyoshsan, ey sanam, Yo'q ajab, gar bo'lsa mendin kamligu sendin karam.

Lirik qahramon - oshiq o'zini oyga (hilolga), ma'shuqani esa quyoshga nisbat beradi. Oshiqning oyga nisbat beriladigan holatlari mumtoz adabiyotimizda ilk marta Husayniy ijodida uchraydi. O'z-o'zidan nima uchun oshiq oyga, ma'shuqa quyoshga nisbat berilmoqda? degan savol tug'iladi. Bu savolga keyingi misrada javob bor. Oshiq uchun kamlik – kamchilik (nuqson va notugalliklar) xos. Xuddi shu holat uni hilolga o'xshatish uchun asos bo'lgan. Odatda hilol deb yangi ko'ringan oyni atashadi. SHuning uchun ham u ko'pincha yorning qoshiga, yoki oshiqning qaddiga nisbat beriladi. YAngi ko'ringan oy hozirgi holatda to'la va butun bo'lmagan, ya'ni kemtikligi, notugalliklari bo'lgan oydir. SHu ma'noda u oshiqning holatini ifodalay oladi. Quyosh esa to'la va butun olamni birdaniga yorita oladi. Xuddi shuning uchun ham u «karam»lidir.

Bog' aro xoshok eldin har taraf mayl aylasa, Soyasini aylamas boshidin oning sarvi kam.

Bog' ichida shamolning ta'siridagi o't-o'lanlar har tomonga qarab egilaverishini yoki qurigan o't-o'lanlarning uchib yurishini kuzatganmisiz? Birinchi misrada shu holatning tasviri berilgan. Sarvda sobitlik bor. U soyasini bir maromda tutib turaveradi. An'anadan farqli ravishda bu o'rinda oshiq beqarorlikda, ma'shuqa esa barqarorlikda tasvir qilinmoqda.

Keyingi misralarda oshiq bulbul, parvonaga nisbat beriladi. CHun g'am-u faryod-u afg'oni erur gul shavqidin,

Har nihol uzra agar bulbul navo tortar ne g'am. Har qayon sayr etsa parvona shabiston¹ sahnida,

Bor bu ravshankim chekar sham' o'ti ko'nglidin alam². Ko'zu zulfung birla og'zing sirrin eltur jon aro, Gar Husayniy dardi ishqing yo'lida bo'lsaadam³.

Quyidagi g'azal ham shoir ijodidagi eng yaxshi namunalardan biri sifatida qayd

etilishi mumkin:

Ey jaf o tig'i, kelib majruh ko'ksumni yoru, Qo'l yalang aylab solib har yon ichimni axtaru.

*Lirik qahramonning majruh ko'ksini yorishga taklif etilayotgan tig'ga e'tibor berdingizmi? U oddiy tig' emas, balki **jaf o tig'idir**. Ko'qis, ya'ni ko'krakni yorib, yalang'och qo'l bilan uning ichidan izlangan narsa nima? Javob keyingi baytdamujassamlashgan:*

Axtarurda topsang ul ko'nglumki, majnunshavadur, Har nechuk bo'lsa adam sahrosi sori boshqaru.

Demak, izlangan narsa ko'ngil. U qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar (har nechuk bo'lsa), uni adam sahrosiga - yo'qlikkayo'naltirish (boshqaru) lozim.

¹ shabiston - qorongulik

² alam chekmoq - bu erda o't, alanganing yuqoriga ko'tarilishi, balandlashishi nazarda tuiladi.

³ Adam bo'lmoq - yo'q bo'lmoq, nobud bo'lmoq.

Boshqarurda bormasa ko'nglum adam sahrosig'a, To'sh-to'shidin sanchibon ul sori oni qaytaru.

O'zingiz molni, qo'y-qo'zilar yoki echki uloqlarni dalaga o'tlatish uchun olib borganmisiz? YOki cho'ponning shu holatini kuzatganmisiz? Dala-dasht (sahro) yo'nalishidan chetga chiqayotgan jonivorlar tayoq yordamida (ya'ni kuch ishlatib, majburan) yo'lga solinadi. Bu holat ko'pincha bahordan kuzning o'rtalarigacha bo'lgan muddatda uy hayvonlarini tog' yoki sahrolarga yozgi mavsumni o'tkazish uchun olib ketilayotgan paytda uchraydi. Bayt mazmunida majoziy tarzda bu ko'ngilga nisbat berilmoqda.

Qaytarurda voqif o'lkim, yona qaytib kelmasun, Tengri uchun notavon jonimni andin qutqaru.

Buerdako'ngilvajonbir-birigazidquyilmoqda.«Notavonjon»

«majnunsheva ko'ngil»ga tobe. SHuning uchun ham jon tobelikdan qutulmoqchi.

Qutqarurda notavon jonimni ul bebokdin, YUZ jaf o aylab ani keltur, qoshimdino'tkaru.

«Bebok» ko'ngilning sifati. Uning ma'nosi «qo'rqmas, hayiqmas, tortinmaydigan; bevosh» demakdir. Jonni ko'ngildan qutqarishda, baribir, uni yana bir marta ko'rish ishtiyoqi ustunlik qiladi.

Har qanday yaraning tuzalishi uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi. Qolaversa yara tikilar ekan uning o'rni qoladi. Oshiqlikda esa bunday yaraning o'rni mutlaqo boshqacha bitadi. Mana uning tasviri:

Istabon kelsa yana ko'ksun shikofin topmagay, Vahki, bir marham quyub ul chok ko'ksun butkaru.

Bu erda «shikof» so'zi yoriq, darz, chok, teshik ma'nosini, «marham» esa malham, yaraga qo'yiladigan dori ma'nolarini anglatadi.

Aylasang miskin Husayniy jonini andin xalos, Viridi bu bo'lg'ay duoda sen dag'i doim yoru.

«Virid»ning ma'nosi biror ish yoki so'zni qayta-qayta takrorlash demakdir. E'tibor beryapsizmi? SHoirning qutulmoqchi bo'lgani nima edi? To'g'ri, ko'ngil edi. Joni

undan xalos bo'lgandan keyin ham duoda «ko'ksimni har doim yorgin» deyilishi oshiq ko'ngil orzularining, niyatlarining barqaror va muntazamligidan guvohlikberadi.

E'tibor bergan bo'lsangiz she'r - g'azalda oldingi baytni tugalla- yotgan so'z keyingi misraning boshlanishida qo'llanmoqda. Bu usul orqali shoir aytmoqchi bo'lgan fikriga yanada ko'proq e'tiborni tortishga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda shu fikrning mantiqiy rivoji ham ta'minlanadi.

SHoirning boshqa she'rlarida ham ohori to'kilmagan misralar, mutlaqo yangi sifatlash va o'xshatishlar, tasvirdagi nozik kuzatishlar ustunlik qiladi. Misol uchun hijrondagi oshiq ko'nglining o'rtanishlarini

«qovurilayotgan baliq»qa o'xshatilishi hech kimda uchramaydi: Hajr tobidin ichim biryon balig'dek o'rtanur,

Gar vatan tutsam balig'dek chashmai hayvon aro.

Quyidagi baytda esa oshiq iztiroblari o'tga tushgan qil obrazi orqali ko'rsatib beriladi:

Ey firoqing zulmidin jonimda o't, ko'nglumda tob,

O'tqa tushkan qil kibi jismim aro ham pechu tob.

Husayn Boyqaro nisbatan qiyin hisoblangan she'riy san'atlarni juda sodda, tabiiy va ta'sirchan tarzda qo'llay oladi. SHulardan biri laffu nashrdir. Bu san'atning mohiyati shundan iboratki, shoir avval bir necha hodisalarni sanaydi, bir erga yig'adi, keyingi misrada esa ularga aloqador bo'lgan narsa, hodisalarni keltiradi, ularni «yoyib qo'yadi».

Sarv-u sunbul birla gul vasfidurur ul safhada, Qadd-u zulf-u orazing yodi bila ochsam kitob.

Bu erda dastlab sarv, sunbul va gul keltirilgan. Iikkinchi misrada esa ularga «aloqador» bo'lgan qad, zulf va oraz sanalmoqda. Sarvning qadga, sunbulning zulfga, gulning yuz (oraz)ga o'xshatilishini yaxshi bilamiz. Demak, adib mana shu mantiqiy aloqadorlikni nazarda tutib ulardan o'z misralaridafoydalangan.

Quyidagi baytda esa qad bilan yuz birinchi misrada keltirilmoqda. Ularga aloqador bo'lgan sarv bilan gul esa keyingi misrada joylashtirilgan:

Qaddu yuzung hajridin, vahkim, manga bo'lmish mudom, Sarv mayli bir taraf, gul orzusi xud harom.

Quyidagi misralarda esa tarse san'ati qo'llangan: To'kub qonim, tarahhum qilmadinghech,

Ko'rub holim, tabassum qilmadinghech.

Bu erda har ikki misradagi so'zlar o'z tartiblariga ko'ra (to'kub- ko'rub, qonim-holim, tarahhum-tabassum, qilmading hech - qilmading hech) bir- birlari bilan qofiyadosh bo'lib kelgan. Buning natijasida she'rning ohangdorligi haddan tashqari kuchayib ketgan, ta'sirchanligi ortgan.

2- topshiriq. Matnni o'qish, uning kompozitsiyasini tahlil qilish a

3- topshiriq. Matnga tayangan holda quyidagi savollarga javob bering: Maqolani mantiqiy-ma'noviy tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Bunda quyidagilarga e'tiborbering:

1. Maqola asosidagi asosiy nazariy poydevor nimalardaniborat?
2. Maqolada masala qandayqo'yilgan?
3. Muallif olg'a surayotgan asosiy ilmiy g'oya nimalardaniborat?

4. Muallif o'z tezislari qay tarzda asoslamogda?

5. Xulosa.

4 - topshiriq.

Maqolani ma'noviy qismlarga ajrating. Quyidagi reja asosida

I. Kirish...

II.....

1.

2.

III.....

1.

2.

3.

IV. Xulosa...

5- **topshiriq.** Har bir ma'noviy qismlarni tahlil qiling. Asosiy, qo'shimcha va takrorlanuvchi (asoslovchi va tasdiqlovchi) ma'lumotlarni belgilang. Referat yozishda ularning qaysi birlaridan foydalanish mumkinligini asoslang.

6- **topshiriq.** Rejaga muvofiq tarzda referat tayyorlang. Bunda quyidagilarni e'tiborgaoling:

A) maqola mavzusini aniqlang (sarlavha va kirishga tayanishingiz mumkin); B) Maqoladagi atama va tushunchalarga tavsif bering;

V) Navoiy davrigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning e'lon qilgan ishlarining qisqacha ro'yxatini tuzing;

7- **topshiriq.** Maqolani tahrir qiling. Uni qay darajada qisqartirish mumkin deb o'ylaysiz? Uni amalda qisqartiribko'ring.

8- **topshiriq.** Maqolaning annotatsiyasinituzing.

9- **topshiriq.** Xuddi shu tipdagi boshqa bir maqolani yuqoridagi andoza asosida tahlilqiling.

YAkuniy nazorat savolnomalari.

2. «Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi» fanining asosiy maqsadi.

3. Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quvfanlari. Adabiyot darslarida o'qituvchining

shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilar bu haqdagi tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lishlari shart. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi shu sohaga safarbar qilingan.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi har bir yo‘nalish va mutaxassislik uchun eng zarur bo‘lgan, shu mutaxassislikning mazmuni va mantiqini taqozo etadigan fanlarni qamrab oladi. U bo‘lajak adabiyot o‘qituvchisini kasbiy jihatdan tayyorlash dasturining tarkibiy bo‘laklaridan biridir. Bu kurs adabiyot turkumidagi barcha fanlarni o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Ammo bu jarayonning birinchi bosqichi, xolos. Keyingi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar bevosita amaliy ishlar bilan shug‘ullanishlari kerak. Bunga kurs ishlari, referatlar, bitiruv malakaviy ishlarini hamda magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash, shuningdek, tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik amaliyotdan o‘tish kiradi. Bu bosqichlarni o‘tagan talaba o‘z kasbiy-pedagogik layoqatini shakllantirish bosqichlarini o‘tagan mutaxassis sifatida qaraladi. Ushbu kursning asosiy vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida kasbiy – pedagogik layoqatliligini shakllantirish va rivojlanti-rishdan iboratdir. Ushbu kurs ham nazariy, ham amaliy maqsadlar-ni ko‘zda tutadi. Unga jamlangan materiallar shu yo‘nalishlar mohiyatidan kelibchiqqan.

SHunga ko‘ra, talabalardan mutaxassislik kursning nazariy asoslarini bilish talab etiladi. Ular egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar esa quyidagilardan iborat bo‘lishikerak:

- адабиётшунослик ҳамда педагогика, психология туркумидаги фанлар талабларини ўзаро уйғунлаштираолиш;
- таълим тарбия жараёнларини ташкил этишда мазкур фанларнинг ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг замонавий шакл ва усулларидан амалий жиҳатдан фойдаланабилиш;
- таълимнинг турли босқичларида ўқувчи шахсига хос бўлган касбий педагогик-психологик хусусиятлардан адабий таълим-ни йўлга қўйиш ва унинг самарадорлигини таъминлаш йўлида истифода этаолиш.

Amaliy jihatdan esa har bir mutaxassislik fan bo'yicha dars ishlan- malari, ma'ruza matnlari, laboratoriya ishlarini tashkil etishni uddalash ko'nikmasi va malakasiga ega bo'lish talab etiladi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish bir qator fanlarning o'zaro integratsiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Xususan, adabiyotshunoslik turkumidagi, pedagogika, psixologiya, shuningdek, falsafa turkumidagi fanlar integratsiyasi bu erda alohida mavqe tutadi.

4-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid predmetlarni o'rganish tizimida maxsus kurs va maxsus seminarlar

Maktabda adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulot VIII sinfdan boshlanadi, uning vazifasi o'quvchilarning qiziqishi, aqliy faoliyatiga qarab belgilanadi. O'quvchilar mashg'ulotga ixtiyoriy suratda qatnashadilar.

Fakultativ mashg'ulot sinfdan o'tiladigan adabiyot darslari bilan bog'lab boriladi, shu yo'l bilan o'rta maktab adabiyot kursining mazmuni to'ldiriladi va rivojlantiriladi, adabiy ta'lim darajasi oshiriladi, o'quvchilarning darsda egallagan bilimlari chuqurlashtiriladi.

Fakultativ kurslarda adabiyotni o'rganishda qo'llanadigan usul va o'qish jarayonini tashkil etish shakllari adabiyot darslarda qo'llanadigan usul va ish shakllardan farq qilmaydi.

Fakultativ mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar unda yozuvchilar ijodini, adabiy bilimlarni, adabiy-badiiy hodisalarni baholash, tahlil qilish malakalarini sinfdan o'tiladigan asosiy kursga nisbatan chuqur egallaydilar.

Fakultativ kurs mashg'ulotlari sinfdagi asosiy darslar bilan sinfdan tashqari ishlar o'rtasidagi birlikni saqlashga xizmat qiladi.

Fakultativ kurs mashg'uloti sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarga nisbatan yo'nalishda bo'ladi, unda ta'lim sistemasini rivojlantirish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun fakultativ mashg'ulotlarda ma'ruza, suhbat, munozara, seminar va amaliy ishlar bilan birga, sinfdan tashqari ishlarning ayrim shakllari, masalan, adabiy o'yin, tanlov, viktorina, ko'rgazma, adabiy kompozitsiyalar ham uyushtiriladi. Agarda fakultativ kurs 10-15 o'quvchidan iborat bo'lsa, suhbat usulidan foydalaniladi. Chunki barcha o'quvchilar bu mashg'ulot ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ular bilan o'qituvchi o'rtasida keng hamkorlik vujudga keladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda o'qituvchi o'zining kirish yoki yakunlovchi ma'ruzasida ma'lum mavzu bo'yicha berilgan bilimlarini tartibga soladi, umumlashtiradi, o'quvchilarni ilmiy va nazariy bilimlardan xabardor qiladi.

Ma'ruza orqali beriladigan bilim o'quvchilardan uni zo'r diqqat-e'tibor bilan tinglashni talab qiladi. Chunki ular ma'ruza rejasini tuzadilar, ma'ruzaning ayrim o'rinlarini yozib Oboradilar.

Fakultativ kursda o'qituvchi sinfdagiga nisbatan, har bir o'quvchi bilan ko'proq munosabatda bo'ladi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini hisobga olgan holda, ma'ruza bilan birga, mashg'ulotni tadqiqot usulida ham uyushtiradi. Tadqiqot usulining qo'llanishi ularda tadqiqotchilik ko'nikmasini o'stiradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda uyushtiradigan suhbat, munozara turli xarakterda bo'lishi, ba'zan ma'ruzaning uzviy qismi sifatida o'tkazilishi mumkin. Suhbatda izlanish (evristik) usulidan foydalanib, o'quvchilarga muammoli topshiriq berish orqali ularning izlanish faoliyati, bilish qobiliyati rivojlantiriladi va shu yo'l bilan ta'limning samarali bo'lishiga erishiladi.

Fakultativ mashg'ulotlardagi amaliy ishlar o'tganlarni takrorlash xarakterida bo'lib, o'quvchilarning oldin egallagan bilimlari takrorlanadi, umumlashtiriladi va mustahkamlanadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar kichik hajmdagi mustaqil ishlarni ham bajaradilar. Bu jarayonda ular badiiy asarni tahlil qilish, badiiy asar matni, tanqidiy maqola va ilmiy adabiyotlar ustida ishlaydilar, bibliografiyalar tuzadilar. Bu esa o'z navbatida, ularda badiiy asar ustida ishlash, ilmiy adabiyotlardan foydalanish usullarini egallab borishlariga yordam beradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda amaliy ishlar o'quvchilar guruhi va yakka o'quvchi bilan amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda har bir masala aniq maqsad asosida hal qilinadi.

Seminar mashg'uloti o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stiradi, ularning o'zaro fikr almashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Seminar mashg'ulotida o'quvchilar referatlar yozadilar, ma'ruza qiladilar, uni o'zaro muhokama qiladilar, ayrim muhim muammolar haqida suhbatlashadilar, o'qituvchi kirish yoki yakunlovchi so'z so'zlaydi. Maslahat, yo'l-yo'riq shaklidagi seminar esa, masalani hal qilish, anglab olish, ayniqsa, ma'ruza qiladigan o'quvchilarga katta yordam beradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda olib boriladigan barcha ish turlarida, asosan, o'quvchilarning ishni mustaqil bajarishlari va mustaqil fikrlashlariga e'tibor beriladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limning yakka-yakka tarzda ham bo'lishini taqozo etadi. O'qituvchining rahbarlik roli va mas'uliyat hissini ham oshiradi. O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishning samarali bo'lishi uchun o'qituvchidan har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

O'qituvchi fakultativ mashg'ulotlarda suhbat va munozaralar uyushtirishdan oldin ularning mavzusini belgilaydi, rejasini, o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlarni tuzadi, bajariladigan amaliy ishlarni aniqlab oladi, suhbat va munozara mavzusiga doir adabiyotlarni ko'rsatib, ularni o'qishni tavsiya qiladi, shu bilan birga, o'quvchilarning ilmiy-tanqidiy manbalar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlari uchun maslaxat, yo'l-yo'riq beradi. Bu maslahatdan asosiy maqsad-o'quvchilarga o'qigan kitob va maqolalarining bibliografiyasini tu'zish, ulardan ko'chirmalar olish qoidalarini, kutubxonalarda katalog, ma'lumotnomalardan foydalanish, kerakli kitoblarni tanlash, ulardan konspekt olish, kartochkalar tayyorlash, ma'ruza matnlarini yozish yo'llarini tushuntirishdan iborat bo'ladi. O'quvchilar tayyorlagan ishlar ko'rib chiqiladi, maqsadga muvofiqlari ma'qullanadi, kamchiligi bor bo'lgan ish egalariga maslahat beriladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda bu ishlar haqida to'liq tasavvur xosil qilinadi, kitob bilan ishlash, undan foydalanish ko'nikmasi o'stirib boriladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda ham odatdagi darslar kabi asosiy e'tibor badiiy asarga, uni tahlil qilishga, yaratilish tarixiga, obrazlar sistemasiga, tasvir vositalariga qaratiladi, ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi.

Fakultativ mashg'ulotga qatnashuvchilarning bilimi sinf mashg'ulotidagi kabi baholanmaydi. Ularning bilimi, faoliyatiga qo'yiladigan baho, bu-o'qituvchi va o'rtoqlarining u tayyorlagan va qilgan ma'ruzalari, mavzularni o'rganishda, munozara va suhbatlarda faol ishtiroki uchun bildirgan samimiy qutlovlari va tabrik so'zlaridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar, deganda nimalarni tushunasiz?
2. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning qanday turlari mavjud?
3. Nima uchun fakultativ mashg'ulotlarni tanlash ixtiyoriy, qatnashish majburiy?
4. Nima uchun fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarga odatdagi yo'nalishda baho qo'yilmasligi kerak?

Darsning tayanch tushunchalari:

Sinfdan tashqari ishlar tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik mayllarini uyg'otish bilan ahamiyatli ekanligi. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning:

a) adabiy konferensiya; b) adabiy uchrashuv; v) adabiy bahslar; g) adabiy montaj (quroq); d) adabiy ko'rgazmalar; e) adabiy kechalar singari turlari mavjudligi.

Fakultativ mashg'ulotlarni tanlash ixtiyoriy, qatnashish majburiyligi. Adabiyot darslaridagi asosiy vazifa o'quvchilarni qiziqtirish bo'lsa, fakultativ mashg'ulotlardagi vazifa qiziqishni chuqurlashtirish ekanligi. Fakultativ dars qatnashchilari miqdorining 15 nafardan oshmasligi, o'quvchilarga odatdagi yo'snda baho qo'yilmasligi kerakligi.

Adabiyot to'garagi faoliyatini tashkil etish. Adabiyot o'qituvchisi badiiy so'zga muhabbat qo'ygan yoshlarni rag'batlantirishi kerakligi. Mana shu maqsadlarga xizmat qiladigan eng yaxshi vosita adabiyot to'garagi ekanligi. Adabiyot to'garagida ko'pi bilan 15-20 odam ishtirok etishi lozimligi. Maktablarda adabiyot to'garaklarining 1. Adabiy-ijodi to'garak. 2. Drama to'garagi. 3. Ifodali o'qish to'garagi 4. Adabiy o'lkashunoslik singari turlari keng tarqalganligi.

2-modul. Adabiyot o'qitishning amaliy asoslari

5-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid kurslar bo'yicha mashg'ulotlarda dars o'tish shakllari

Dars o'quv masadi: talablarni oliy ta'limdagi mashg'ulotlarni tashkilotish metodikasi bilan tanitirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: oliy ta'lim, ma'ruza, amaliy mashg'lot, laoratoriya ishi, kollokvium, joriy va oraliq baholash, yakuniy nazorat.

Asosiy savolar:

1. *Oliy ta'limdagi mashg'ulot turlari haqidama'lumot.*
2. *Ma'ruza va uning turlari. Ularga quyiladigantalablar.*

Amaliy mashg'ulotlarning mohiyati, turlari, ularga quyiladigan talablar.

Oliy ta'limda mashg'ulotlar ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, mustaqil ish bo'limlarga bo'linadi. Mashg'ulotlarning barcha turlari har bir bo'limga oid xususiyatlarning ichki va tashqi omillariga bog'liq holda tashkil qilinadi.

Oliy ta'limda ma'ruza mashg'ulotlari ayriacha ahamiyat kasb etadi. **Ma'ruzani** rejalashtirayotganda birinchi navbatda uning mazmuniga ahamiyat beriladi. O'quv dasturlarida talabaning hozirgacha olgan bilimlari va uning bundan keyin egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaklarini nazarga olgan holda tegishli ko'rsatmalar beriladi. Bu ko'rsatmalar ma'ruzaning mazmuniga ham, uni tashkil etish metodikasiga ham aloqador bo'lishi mumkin.

Ma'ruzani talabalarga etkazishning metodikasi ikkinchi darajali masalalar qatoriga kirmaydi. Aslida, oliy ta'limda tahsil olayotgan talabning olam hodisalariga dialektik yondashuvi, ularga nisbatan tanqidiy nuqtai nazarning shakllanishi va takomillashuvi ko'p jihatdan leksiya mashg'ulotlarining tashkil etilishiga ham bog'liqdir. Ma'ruzalarda hodisalarning asl mohiyati qanchalik teran ochib berilsa, ularga yondashuvlarning xilma-xilligi hamda bu xilma-xilliklarning sabablari qanchalik aniq va ishonarli yoritilsa, talabning shu sohaga bo'lgan qiziqishi ham, uning mazkur hodisalarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazari ham shunchalik ortib va reallashibboradi.

Ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, ma'ruza va suhbatlar jarayonida o'qituvchi asar mazmunini aytib berishdan tiyilishi kerak. Mashhur rus metodisti A.D.Alferov aytganiday: «Biz darsliklarda adabiy asarlarning mazmunini bayon etishni nopedagogik ish deb hisoblaymiz; ... bunday bayon hech qachon yozuvchining o'zi chekkan dardlarni tuyishga majbur qila olmaydi, buning ustiga u o'quvchidan asl manbaga murojaat qilish ehtiyojini tortib oladi (axir u asar mazmunini biladi-da!) Bunday bayon yoshlarni adabiyotning ruhi bo'lgan jonli, ijodiy ta'sirni o'z tanida his etish imkonidan mahrum qiladi»¹. Bu fikrlar faqat darslik va qo'llanmalar uchun emas, balki ma'ruza va suhbatlar uchun ham to'laligicha taalluqlidir. Ma'ruzalarning yangi, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi bugunning eng muhim talablaridan biridir.

Ma'ruzalar o'quv dasturi asosida shakllanadi. Ularning tartibi va mazmuni davlat ta'lim standarti, namunaviy dastur va ishchi o'quv dasturlarida aks etadi. Buni shunday ifodalash mumkin:

Namuna sifatida biz bitta mavzuning matnini keltirishimiz mumkin:

Ma'ruza mavzusi: «Lirik asarlarni o'rganish» (2 soat)

Maqsad: talabalarga lirik asarlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish, ularda ta'limning turli bosqichlarida lirik asarlarni tahlil qilishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir

qator vazifalar belgilanishi kerak. Buni biz ish rejasi sifatida tavsiya etishimiz ham
mukin:

R e j a :

1. *Lirik asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish.*
2. *Lirik asarlarni qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Poetik matnni tahlil qilish yo'llari.*
4. *Lirik asarlarni o'rganishdagi pedagogik texnika.*
5. *Lirik asarlarni maktabda o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.*
6. *Lirik asarlarni akademik litsey va kasb hunar kollejlari da o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.*

¹ Qarang: Semyonov A.N., Semyonova V.V. *Voprosy i zadaniya po metodike prepodavaniya literatury.* – M.: VLADOS-PRESS, 2003, s. 22.

7. Lirik asarlarni oliy ta'limda o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

Ma'ruza o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar muayyan natijalarni ham ko'zda tutadi. SHuning uchun ham pedagog bu natijalarni aniq tasavvur etishi kerak. Mazkur mashg'ulot uchun quyidagi natijalarni rejalashtirish mumkin:

Talaba quyidagilarni bilishi kerak:

- lirik asarlarning janr xususiyatlarini hamda bu xususiyatlarni ta'limning turli bosqichlarida e'tiborga olishni;
- lirik asarlarni qabul qilishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarga egaligi va bu xususiyatlarni ta'lim jarayonida nazarda tutishni;
- lirik asarlarni tahlil qilishning pedagogik asoslarini bilishni;

Ma'ruza matnining mazmuni:

Bizda she'riy janrlar, lirik asarlar haqida yozilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Bu bejiz emas. Aslida bizning adabiyotimiz tarixi tom ma'nodagi lirik asarlar tarixi desak mubolag'a bo'lmaydi. Klassik adabiyotimizdagi g'azal ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch va qudratini, tilimizning nazokat va tarovatini ko'rsatadigan bir belgi, ko'rsatkich bo'lib kelganligi buning yorqin bir dalilidir.

Lirikaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Dastlab shu savolga javob berib ko'raylik. Buning uchun nazariy kitoblarni varaqlashga to'g'ri keladi. Biz «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati, adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasiga oid darsliklardagi ta'riflar bilan qiziqamiz. Mana ular:

Jamol Kamolda:

«Qadim YUnonistonda lirika musiqa va raqs san'atlari bilan uzviy, chambarchas hayot kechirgan ekan, SHarqda ham shunday bir holni kuzatish mumkin. SHarqda eng buyuk mutasavvuf shoir Mavlono Jaloliddin Rumi ham o'zining so'fiyona g'azallarini rubob jo'rligida, raqsga tushib aytgan. O'zbek xalqining sevimli klassik shoiri Boborahim Mashrab o'z she'rlarini tanbur ohanglari bilan orastalab kuylab yurgani el orasida ma'lum.

Lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi, ob'ektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo'ladi... Lirika parvozini hamisha jamiyat hayotibelgilaydi»¹.

To‘xta Boboevda :

«Lirika (YUnon liriksi – lira jo‘rligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri bo‘lib, biror hayotiy voqea-hodisa ta’sirida inson qalbida tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali voqelikni aks ettiradi»².

Dilmurod Quronovda:

¹Jamol Kamol. Lirika. - // Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik, II tom, Adabiy-tarixiy jarayon, Toshkent, Fan, 1979, 237-238-betlar.

² T.Boboev Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, O‘zbekiston, 2002. 477-bet

«Lirika (yun. cholgʻu asbobi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan boʻlib, oʻzining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuygʻu kechinmalarni tasvirlashi olinadi. YAʼni epos va dramadan farqli ravishda lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir»¹.

«Adabiyotshunoslikka kirish»da:

«Lirik turga kiruvchi asarlar odatda kichik hajmli boʻlishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega. Lirik turga kiruvchi asarlarda konkret individual kechinmalar orqali tipik kechinmalar ifodalanadi. SHu orqali lirik asarda badiiy umumlashtirish vujudga keladi»².

Erkin Xudoyberdievda:

«... lirik tur xususiyatlari asosan toʻrtta:

1. Lirika va eposda ham obʻektiv va subʻektiv dunyo aks etadi, lekin eposda birinchisi, lirikada ikkinchisi birinchi oʻringa chiqadi. CHunki lirika oʻz-oʻzini ifodalashdir, ammo dunyo lirikaga lirik qahramonning ongi orqali oʻtadi, «men» tilidan ayonboʻladi»...

2. Lirika emotsional-hissiy (meditativ) fikrlashdir, yaʼni u ichki olam, qalb dialektikasi aksidir. Dunyodagi ziddiyatlar dilga koʻchadi; lirika ichki poeziyadir, ruhiy holatoynasidir.

3. Emotsional - hissiy fikrlash shaxsiy kechinma tusini oladi, yaʼni lirika negizida kechinma turadi, hayot sheʼrda kechinma shaklida aks etadi, kechinma lirik taʼrif va lirik obrazga aylanadi, shu sababli, shaxsiy kechinma oʻziga xos tipik tarzga kiradi, odamlar bu kechinmada oʻzini koʻradi, uni oʻziniki qilib oladi. Baʼzi shoirning kechinmalari hayotga nisbatan tor, baʼzilariniki keng boʻlishi mumkin. Kechinmalari boy, teran shoir lirikasining xalqchilligi va umuminsoniyligiortadi.

4. Emotsional-hissiy fikrlash his va fikr munosabati mahsulidir. Hayot doimo shoirda quvonch yo nafrat hissini qoʻzgʻaydi, his esa asta-sekin fikr va xulosaga aylanadi. His koʻngildagi toʻlqinlanish hosilasidir. SHEʼrdagi his tinglovchida ham xuddi shunday his tugʻdiradi. Bu esa sheʼrdagi badiiy idrok va estetik tahlil ham lirik umumlashtirishdan kelib chiqadi. Bulardan kelib chiqadigan

xulosalarni qo‘yidagicha umumlashtirish mumkin:

- lirikaning boshqa san‘at namunalari bilan aloqadorligi ochiq sezilib turadi;
- lirika qanchalik individual, xususiy holatlarni aks ettirishiga qaramay, unda jamiyat hayotining ifodasi aks etgan bo‘ladi;
- lirik asarlar inson his-tuyg‘ularini juda aniq va yorqin tasvirlashi bilan ajralib turadi;

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004, 183- bet.

² SHukuro v N., Hotamov N., Xolmatov SH., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, O‘qituvchi, 1979. 179-bet.

- ulardagi tuyg‘u va kechinmalar tasviri hayotiy voqealar tasvirini ikkinchi darajaga o‘tkazibqo‘yadi;
- ularda tom ma‘nodagi rivojlanib boradigan syujet mavjud;
- qisqacha qilib aytganda, ularda o‘ziga xos she‘riy nutq amalqiladi.

Abu Nasr Farobiy she‘riyatning o‘ziga xosligi haqida mulohaza yuritar ekan, jumladan, shunday deydi:

«...isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, ritorikada ishontirish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, she‘riyatda ham xayol va tasavvur shunchalik zarur bo‘ladi. Ba’zida inson fe’li ko‘proq xayol surishga bog‘liq bo‘ladi. Bu shundayki, inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Buning natijasida u narsalarning borligini his va isbot tasdiqlagandagina uning o‘sha narsada borligiga ishonib, o‘shanday qilish mumkin. Hatto bu ishda uning borligi YOlg‘on bo‘lib, faqat xayol qilingan taqdirda ham, bu harakat – fe’lni amalga oshiradi»¹.

Tadqiqotchi olim A.SHaropov yozganiday: «lirik kechinma oqimi poetik tasvir orqali o‘quvchida yuzaga keladigan ruhiy hayajon to‘lqinlarida o‘z ifodasini topadi. Poetik tasvirning haqqoniyligi, uning xarakteri, aniqligi yoki yorqinligi, bosiqiligi yoki ko‘tarinkiligiga qarab, o‘quvchida bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan ruhiy kayfiyat hosil bo‘ladi. Bu rang-baranglik, birinchidan, shoirning borliq voqea- hodisalarni his qilishdagi o‘ziga xosligi, betakrorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, to‘g‘rirog‘i, ob’ektiv yoki sub’ektiv momentning belgilovchiligi bilan izohlansa, ikkinchidan, davr talabi, o‘quvchi ruhiy dunyosining rang-barang qatlamlari, uning badiiy didi saviyasi bilan bog‘liqdir»².

SHu o‘rinda yana bir tadqiqotchining mulohazalarini kuzatish o‘rinli ko‘rinadi. Uning yozishicha, «badiiy asarda ob’ekt va sub’ekt tili terminlari (bu erda «til» so‘zi nutq ma‘nosida) qo‘llanadi. Adabiy turlar – lirika, epos va drama tili o‘rtasidagi ayirma ham aynan shu nuqtadan – ob’ekt va sub’ekt nutqidan birining dominantlik (ustunlik) qilishidan boshlanadi. Sub’ekt – muallif, ob’ekt - qahramonlar ekanligini nazarda tutsak, lirikada sub’ekt nutqi hukmronlik qilishini sezish qiyin emas. Lirik asarlarda bevosita real-hayot voqea-hodisalar bayoni emas, balki ana shu voqea-

hodisalar natijasida muayyan bir shaxs qalbida tugʻilgan his- hayajon, tuygʻu-kechinmalar tasviri beriladi. Demak, muayyan his-tuygʻu ayrim olingan bir kishiniki - subʻektniki, shu his-tuygʻuni ifodalovchi ham subʻektning oʻzi. Masalan, Abdulla Oripovning «CHorlash» sheʻridan:

Doʻsti gʻarib, kel, qoʻlingni tut, YUragingda yoqay alanga,
Kel, bir zumga dunyoni unut, Koʻtarayin seni balandga.

¹ Abu Nasr Forobiy. SHEʻr sanʻati. Arabchadan tarjima, izoh va muqaddimalar muallifi A.Irisov. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1979, 18-bet.

² SHaropov A. Olamlar ichra olamlar. Risola. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1978, 41-42-betlar.

Ko‘rinib turibdiki, nutq muallifi – lirik qahramon. «Do‘sti g‘arib» ga hamdardlik tuyg‘usi ifoda etilgan bu o‘n ikkilik boshdan-oxir shu lirik qahramon monologidan iborat. Ayrim hollardagina lirik asarlarda (voqeaband she‘r yoki g‘azalda) qahramon (ob‘ekt) nutqi k o‘ r i n i b q o l a- d i, ammo u baribir sub‘ekt nutqidan keyingi o‘rinda turishi bilan xarakterlanadi. SHu ma‘noda lirika tilini s u b ‘ e k t t i l i deyish mumkin»¹.

Lirikaning bu xususiyatlari ta‘lim jarayonida e‘tiborga olinishi shart. Psixologlarning ta‘kidlashicha, IV-VI sinf o‘quvchilari VII-VIII sinf o‘quvchilariga qaraganda lirik asarlarni tushunishga va o‘qishga moyilroq bo‘ladi. Bu moyillik IX-XI sinf o‘quvchilarida yana yangidan rivojlanib boradi.

Demak, ta‘lim jarayonida bu xususiyatlarni e‘tiborga olish, kerak bo‘lsa, ulardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanish lozim. SHE‘r – emotsional kayfiyat ifodasi. Bu kayfiyatni o‘quvchilarga yuqtira olish esa o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

She‘riy asar bir kishining – shoirning olamni o‘ziga xos ko‘rishi natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap shu o‘ziga xos qarash va ko‘rishni anglab, his qilib etishda xolos. Ana shu konkret bitta odamga tegishli tuyg‘ular, hissiyotlar ayni paytda butun insoniyatga, hamma odamlarga bir xilda aloqadorligini anglash she‘rni his qilishdagi birinchi qadam, dastlabki odimbo‘ladi.

She‘riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she‘r g‘oyasinig mag‘zini chaqish uni o‘qishdan, yanada aniqrog‘i ifodali o‘qishdan boshlanadi.

Imkoni bo‘lsa, she‘riy asarni professional aktyorlar, taniqli so‘z ustalari, o‘rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

SHunda she‘riy asardagi ritm, tovushlar uyg‘unligi, so‘zning ko‘p ma‘noliligi, ayni paytda har bir so‘z va tovushning jarangi, yangi so‘zning ohori osonroq va ta‘sirliroq tarzda namoyon bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham lirik asarlarni qayta hikoyalash, «uning mazmunini ŷz sŷzi bilan aytib berish» mumkin emas. Bu fikrni taniqli adabiyotshunos U.Normatov Erkin Vohidovning yumoristik she‘rlari misolida shunday izohlaydi: «CHinakam lirik she‘r ma‘nosini nasr yoki ilm-fan yŷliga kŷchirish, uni qayta sŷzlab berish mumkin bŷlmagandek, chin yumoristik – hajviy

asar bisoti ham har qancha urinmang, qayta s'yzlaganda tarovatini y'yoqotadi. ...y'zbekona xalq yumorining kamalakdek tovlanishlarini, Erkingagina xos g'oyat nozik lutf, beozor qochirim, ishoralar, istehzo, piching, zaharxanda, kinoya-kesatiqlarini faqat matn bag'rida, uni y'qish, eshitish jarayonidagina uqish, y'qib yayrash, xandon otib zavq-shavqqa t'ylish mumkin,xolos»².

¹ G'aniev I. Fitrat dramalari poetikasi. – Toshkent, Fan, 2005, 180-181- betlar.

² Normatov U. SHoir tabassumi. – S'yz sehri. Erkin Vohidov hayoti va ijodiga chizgilar. Nashrga tayyorlovchi

va s'yzboshi muallifi H.Boltaboev. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 41-bet

She'riy asarlarni tahlil qilishda o'quvchilarning yoshi alohida e'tiborda tutilishi kerak. Misol tariqasida akademik litseylarning o'quvchilarini oladigan bo'lsak, ularning qalbiga lirik asarlar mohiyatini singdirishda mantiqiylik va emotsionallikni qo'shib olib borishning samarali bo'lishini ta'kidlash joiz.

Bu yoshda ularga she'riy asarning obrazlar tizimi haqida gapirish, muhokama va munozaralarni shu sohaga burish o'rinli bo'ladi. Ayni paytda she'rning emotsional-obrazli qirralaridan nazariy tushunchalar tomonga o'tish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Nazariy tushunchalar asosida she'riy asar obrazlarini tushunish tomon borish ham amaliyotda sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan usullardan hisoblanadi. Buni Navoiy g'azallari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Akademik litseylarning ikkinchi bosqichida o'qiyotgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktabida Hamid Olimjon, SHukrullo, Maqsud SHayxzoda, Atoiy, Bobur, Muqimiy, G'afur G'ulom, Mirtemir, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Zulfiya, Abay, Azim Suyun va boshqa turli davr va turli yo'nalishlarda ijod qilgan shoirlarning she'rlari bilan tanishib ulgurgan bo'lishadi. Ayni paytda ular mumtoz she'riyatning janriy bo'linishlarini, aruz vaznida yozilgan asarlarni hijolarga bo'lib o'rganishni, she'r tuzilishiga oid tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lishadi.

Navoiy ijodiga oid darslar vositasida o'quvchilar ongi va tasavvurida buyuk adib siymosini – uning ijodiy qiyofasini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Navoiyning tashqi qiyofasi unga zamondosh bo'lgan san'atkorlar tomonidan chizib qoldirilgan. Imkoni bo'lsa, darsda shu rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning so'z vositasidagi portreti esa ko'plab ijodkorlarda mavjud. Biz Oybek ijodiga («Navoiy» romani) murojaat qilishimiz mumkin.

Boburning «Boburnoma» sidagi ta'rif ham asqotadi:

«Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. To turkiy til bila she'r aytibturlar, hech kim onchaliq ko'p va xo'p aytqon emas».

Navoiyning shaxsiy fazilatlari, alohida qobiliyat va iqtidori haqida ham mutaxassislik to'xtash joiz. Ayniqsa uning zehni, xotirasi haqidagi tarixiy faktlar o'quvchilarning qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu holat ularning adib ijodiga bo'lgan qiziqishlarini

oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. SHunga ko'ra adibning yod olgan asarlari, zamonaviy va o'tgan adiblardan yod olingan she'rlarning miqdori haqidagi mulohazalarni ularga etkazish o'rinli bo'ladi.

Navoiy favqulodda qobiliyat egasi bo'lgan. Uning iqtidori cheku chegara bilgan emas. U juda erta shuhrat qozongan. O'zidan bir necha marta katta yoshda bo'lgan zamondoshlari uning iqtidorini tan olishgan, unga qoyil qolishgan.

Navoiy she'riyati bilan muloqot o'quvchilarning ichki olamlarining, ma'naviyatining boyishiga katta hissa qo'shadi.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir. O'quvchilar ongiga mana shu holatlar etkazilishkerak.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa, Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

She'ni tahlil qilish jarayonida uning yuzaga kelishiga omil bo'lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she'r mohiyatini anglab etishda asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo'lishi mumkin. Ammo har bir she'r ostidagi ruhiy holatni aniqlash va anglab etishning ancha qiyinligi, ba'zan esa umuman mumkin bo'lmasligini ham e'tirof etish kerak.

Navoiy she'riyati tuyg'ular va fikrlarning etukligi, tabiiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarining kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Ko'rgali husnungni zoru muhtalo bo'ldum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul, Vahki, kun-kundin batarrak muhtalo bo'ldum sanga. Man qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading, Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga. Qay pari paykarga dersan telba bo'ldung bu sifat, Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum, sanga. Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovorabo'l,

YUz balo etmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga. Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibamdur mudom, Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldumsanga.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro, To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

She'r ifodali o'qilgach, savollar ustida ishlash mumkin bo'ladi:

1. She'ni o'qish natijasida sizda qanday tuyg'ular paydo bo'ldi? She'rda qanday obrazlarmavjud?
2. Birinchi bayt mazmunini qanday izohlash yoki sharhlashmumkin?
3. She'r mavzusini aniqlang. Unga qanday sarlavha qo'yish

mumkin deb o‘ylaysiz? Qo‘ygan sarlavhangizni asoslab beraolasizmi?

4. «Balolig‘ kun» ifodasini izohlab bering. SHe‘rda yana qanday sifatlashlar qo‘llangan? Ular qanday vazifalarni adoetmoqda?

5. SHe‘rning qofiyasi va radiflarini aniqlang. Nima uchun ayni shu so‘zlarning qofiyada qo‘llanganligini izohlabbering.

6. Baytlar orasida mantiqiy bog‘lanish bormi? Uni qanday izohlash mumkin. Baytdan baytga o‘tgan sari shoirning ichki kechinmalari tasvirida qanday o‘zgarish va yangi qirralar kuzatiladi? Izohlabbering.

7. G‘azalda qanday tasvir vositalari qo‘llangan? Ular qanday badiiy- estetik vazifalarnibajarmoqda?

8. Gʻazalning tili, unda qoʻllangan soʻzlarning emotsional-ekspressiv tomonlari haqida nimalarni aytaolasiz?

Navoiyning mazkur gʻazali lirik kayfiyatning oʻziga xos ifodasi sifatida alohida eʼtiborga molikdir. Mana shu kayfiyatni tugʻdirish uchun sheʼr ifodali oʻqiladi. Ammo ifodali oʻqish taʼsirini oshirish, gʻazalning ongli tarzda oʻzlashtirilishini taʼminlash uchun oʻquvchilarga asardagi notanish yoki tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar lugʻatini tuzdirish ham maqsadga muvofiq boʻladi. Bunda quyidagi soʻz, soʻz birikmasi, ayrim tushuncha va gaplarni ajratib olish mumkin: *batarrak, boʻldum, vahki, jomi Jam, kun-kundin, muhtalo, mudom, navo, ne baloligʻ kun, ovora boʻl, oshno, pari paykar, soqiy, tarki joh aylab, tarki nasihat ayladim, uzay sendin koʻngul, ushshoq, Xizr suyi, yuz balo etmaski, men ham bir balo boʻldum sanga, qay, gʻussa changi, har necha*. Bu soʻzlarni hozirgi holatdagidek, yaʼni alifbo tartibida ham, baytlar tarkibida uchrash navbatiga koʻra izohlash hammukin.

Ifodali oʻqishdan soʻng uning baytma-bayt tahliliga oʻtish mumkin.

Koʻrgali husnuni zoru muhtalo boʻldum sanga, Ne baloligʻ kun edikim, oshno boʻldum sanga.

Matlaʼning birinchi misrasida oshiq koʻngilning sogʻinchli ishtiyoqlari, yorga boʻlgan dil talpinishlari oʻz ifodasini topgan boʻlsa, keyingi misrada mazkur oshiqlikdan pushaymonlik aks etgan. Bu ohang yorni ilk marta koʻrgan kunga berilayotgan bahoda («ne baloligʻ kun edikim») mujassamlashgan. Qofiyaga «muhtalo» va «oshno» soʻzlarining surilishi mazkur motivni boʻrttirib tasvirlashga xizmat qiladi. Misralar oxirida takrorlanayotgan radif – «boʻldum sanga» mazkur kechinmalarning bevosita soʻzlovchi – lirik qahramonga daxldorligini, shuningdek, bu tuygʻularga sabab boʻlgan yoʻnalish (sen) ni taʼkidlab turadi. Ammo bu erdagi pushaymonlikning oniy lahzalarga oidligini ham unutmaslik kerak. Keyingi bandlarda undan asar ham qolmaydi. Aksincha ularda lirik kayfiyatning boshqa qirralari yanada teranroq ochibberiladi.

Endi bevosita lirik qahramonning umumiy holati tasviriga oʻtiladi: Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendinkoʻngul,

Vahki, kun-kundin batarrak muhtalo boʻldumsanga.

Bu erda ishqiy kechinmalarning o'ziga xos tasviri mavjud. U inson – lirik qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarning tadrijini ko'rsatib bermoqda. Navbatdagi baytda ham shu ruh davom etadi. Endi lirik qahramon va uning nutqi yo'naltirilgan shaxs – ma'shuqaning o'z so'zlari orqali inkishof etish yo'li tanlanadi:

Man qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading, Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.

Matlada boshlangan men va sen ziddiyati barcha baytlarda davom ettirilgan. Faqat oldingi misralarda bu ziddiyatga kuchli urg'u tushmagan edi. Ushbu baytda esa ayni shu holatning bo'rttirib tasvirlanishi kuzatiladi. Bu bejiz emas – navbatdagi baytdan boshlab lirik «men»ga alohida e'tibor jalb qilinadi. Tuyg'ular ifodasi shu baytdan boshlab yanada quyuqlashtiriladi. Lirik qahramon bunga bevosita ma'shuqaga murojaati vositasidaerishadi:

Qay pari paykarga dersan telba bo'ldung bu sifat, Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum, sanga.

Mazkur murojaat yonida so'zlar takrori, ular vositasidagi mantiqiy qaytariq lirik qahramon muddaosining to'la va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Keyingi baytda ham murojaat qilish usuli qo'llangan. Biroq, bu murojaat endi yorga emas, balki lirik qahramonning o'zigadir. O'z-o'ziga murojaat shakli sifatida **ko'ngil** tanlangan:

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,

YUz balo etmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Bu erda ziddiyat yuz va bir o'rtasida sodir bo'lmoqda. Keyingi baytda esa ziddiyatning mantiqiy kuchi yana bir pardaga ko'tariladi. Odatda, Jomi Jamga musharraf bo'lgan kishi hech narsaga muhtojlik sezmaydi. Ayniqsa, uning yonida «Xizr suyi» ham mavjud bo'lsa, bu endi har narsaga imkon degani bilan barobardir.

«Xizr suyi» Navoiyning boshqa g'azallarida

«hayvon suyi», «Tiriklik suyi», «obi hayot» shakllarida ham ifodalanadi. U «go'yo odamzod ichganda abadiy umr topadigan afsonaviy er osti mamlakatining chashmasi»dir. «Tasavvufda u ishq-muhabbat bulog'i, haqiqat nurining manbaini anglatadi»¹. SHunga qaramay u soqiy huzurida bir gado xolos.

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibamdur mudom, Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

Soqiy so'zi lug'aviy ma'noda may quyib beruvchi degani bo'lsa-da, ushbu so'z tasavvuf adabiyotida asosan ramziy ma'noda qo'llanadi. Uning asl mag'iz-mohiyatini ma'rifat manbasi ekanligi bilan belgilanadi. YA'niki, dunyoning moddiy ne'matlaridan yuz o'girgan kishidagina shunday qanoat va iftixor bo'lishi mumkin, xolos.

Oxirgi bayt – maqta she'rning o'ziga xos yakuni sifatida maydonga chiqadi. SHunga ko'ra u barcha baytlardagi fikr oqimini davom ham ettiradi, ayni paytda ularning mantiqiy poyonini ham ko'rsatadi.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro, To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

Bu erda «g'ussa changi» ifodasi orqali yana bir so'z o'yini amalga oshirilmoqda. Uning ma'nosini to'la tasavvur qilish faqat shu so'zning o'ziga e'tibor berish bilan chegaralanmaydi. Endi «navo» va «ushshoq» so'zlariga ham diqqatni qaratish zaruriyati paydo bo'ladi. Ularning o'zlari anglatgan lug'aviy ma'nodan tashqari kuy nomlarini ham bildirishini esga olsak, «g'usa changi» istiorasining ikki ma'noda qo'llanganini tushu- nishimiz osonkechadi.

1. Tasavvur qiling, siz akademik lieylarning ikkinchi bosqichida shu g'azalni tahlil qilmoqchisiz. O'quvchilaringizga qanday savollarni bergan bo'lar edingiz? SHunday savollardan 6-10 tasini yozma ravishdako'rsating.

2. Navoiy g'azallaridan birini o'rganishga oid metodik tavsiyalar ishlabchiqing.

¹ Komilov N. Jon va jonon mojarosi. - // Alisher Navoiy. G'azallar, sharhlar. (To'plab nashrga tayyorlovchilar A.SHaropov, B.Eshpo'latov).- T.; Kamalak, 1991, 104-bet.

3. Navoiy gʻazallaridan biriga oʻquvchilar bilan birgalikda toʻliq lugʻat tuzing. Soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi bilan sheʼr misralaridagi maʼnolari orasidagi yaqinlik va ayirmalarga eʼtiborbering.

Akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda Navoiyning bir qator ruboiy, gʻazal va qitʼalarini oʻrganish asosida oʻquvchilarning klassik sheʼriyat, lirik qahramon, lirik kechinma, lirik kayfiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va boyitish mumkin boʻladi.

Oʻquvchilarga sheʼriy asarni talqin qilishda juda koʻp yoʻl va usullar borligini, shoirning niyati koʻpincha tag maʼnolarda yashiringan boʻlishini, shunga koʻra sheʼrning har doim koʻp maʼnolilik kasb etishini tushuntirish, ularda mana shunga oid koʻnikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish kerak boʻladi. Misol tariqasida Abdulla Oripovning mashhur sheʼrini eslatish mumkin:

Bozorga oʻxshaydi aslida dunyo, Bozorga oʻxshaydi bunda ham maʼni. Ikkisi ichra ham koʻr madim aslo Molim yomon degan biror kimsani.

YOki boshqa bir sheʼrni koʻrish mumkin:

Dono oʻylar koʻrib nodonni, Tabiatdan umr bir ehson, Insonmi shu gʻanimat onni Qadrlamay sovurganinson?

Nodon oʻylar koʻrib dononi, Tabiatdan umr bir ehson, Insonmi shu gʻanimat onni Qadrlamay sovurganinson?

Maʼruzani oʻqish bilangina ish bitmaydi. Oʻqituvchi talaba-ning diqqatini oʻzak masalalar ustida mahkam tutib turishi, aso-siy masalalarga uning eʼtiborini qaratishi uchun ayrim izohlar-dan, diqqatni tortuvchi ishoralardan, boshqa mutaxassislarning fikr-mulohazalaridan foydalanishi kerak boʻladi. Oʻqituvchi maʼ-ruzaning qaysi qismida koʻrgazmali qurollardan, texnik vosita-lardan, tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirishi, savol va topshiriqlarni qaysi holatda berishni oʻylab koʻrishi kerak. Ular ham dars mazmunining puxta oʻzlashtirilishi uchun kat- ta

ahamiyat kasb etadi. Masalan, yuqoridagi mavzu uchun quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

Savol va topshiriqlar

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda lirik asarlarni o'rganishda qanday farqli jihatlarbor?
2. Lirik asarlarni tahlil qilishda asarning janri qanday ahamiyat kasb etadi? Konkret misollar yordamida buni tushuntirib beraolasizmi?

3. Tahlil jarayonida o'quvchilar lirik asarlarni qabul qilishning qaysi jihatlariga alohida e'tibor berishlari kerak bo'ladi, debo'yaysiz?
4. Lirik asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning qanday roli va ahamiyati bor? Tushuntiribbering.
- 5.1. Adabiyotlar bilanishlash:
Tavsiya etilgan manbalar (adabiyotlar) bilan tanishsh.
- 5.2. Bitta poetik matn ustida qiyosiy tahlilni amalga oshirish (maktab darsligida berilgan tahlilga o'z tahliliniqo'shish)
- 5.3. Ikkita dars parchasi (fragmenti) ishlanmasini tuzish. Undagi asosiy vazifa o'quvchilarga (5-, 6-sinflar) lirikaga oid nazariy ma'lumot berishbo'ladi.
- 5.4. Berilgan she'riy asar tahlili uchun savollar tizimini ishlab chiqish.
- 5.5. Alohida olingan she'riy asarni tahlil qilish uchun dars konspektini tuzish. (7-sinfdagi, 8-sinfdagi, 9-sinfdagi, akademik litsey- larning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlaridagi she'rlar misolida), (tanlashixtiyoriy).
6. Metodist olimlarning lirik asarlarni tahlil qilishga oid kuzatish va tavsiyalari bilan tanishib chiqing. Ularning o'zaro yaqin va farqli jihatlarini topa oldingizmi? Buni o'z so'zlaringiz bilan izohlab bering.

Ma'ruza boshida, uning o'rtasida yoki oxirida talabalarga tarqatma materiallarni berish ham yaxshi samara beradigan vositalardan biri bo'la oladi. Bunda ma'ruzadagi material-larning talabalarga to'liq etib borishi ta'minlanadi. Mazkur mavzuda tarqatma materiallar sifatida ayrim lirik asarlarning tahlili namunasi, lirik asarlar haqida adabiyotshunoslikdagi mavjud fikrlar, shuningdek, metodik adabiyotlardan olingan ko'chirmalar xizmat qilishi mumkin. Imkoni bo'lsa, bunday tarqat-ma materiallarning har bir talabaga etkazilishi maqsadga muvo-fiq bo'ladi. Endilikda buning eng qulay shakllaridan biri sifatida ularning elektron variantlarini tavsiya etish o'rinli bo'ladi. Ulardan bir necha maqsadlar yo'lida foydalanish mumkin. Tarqatmalar faqat hozir eshitilgan ma'ruza mohiyatini teranroq anglash uchungina

emas, balki talabaning bundan keyingi faoliya-tida, jumladan, ayrim mustaqil ishlarni bajarishida ham yordam berishim mumkin.

Ma'ruza mashg'ulotining jihozlanishi. Har bir ma'ruza uchun kerak bo'ladigan materiallar, asosan, adabiy asarlar, ularning muallifi haqidagi tadqiqotlar, rasm va portretlar, audio va videomateriallar bo'lishi mumkin. Adabiyot darslarida ba'zan ijodkorlarning o'zlarini ham taklif qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Nizomiy nomidagi TDPUda Odil YOqubov, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Muhammad Ali, Halima Xujoyberdieva, Umida Abduazimova, Ulug'bek Hamdam singari ijodkorlar bilan uchrashuvlar va ularga aloqador tarzda bevosita dars jarayonlarini tashkil etish an'ana tusiga kirgan. Kompyuter texnologiyalari ham hozirgi zamon darslarining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Oliy ta'limda amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari ham keng tarqalgan. Qo'yida bakalavriat bosqichi uchun «Adabiyot o'qitish metodikasi» ga oid amaliy ishlar ro'yxati keltirilgan:

1. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni (10soat)

Amaliy mashg'ulotlar talabalarning tegishli fan sohasidagi bilimlarni o'zlashtirishlari, shu sohadagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishlari uchun katta imkoniyatlarni beradi. Amaliy mashg'ulotlar talabaning mustaqil ishlarini yo'lga qo'yish vositasi hamdir. Misol sifatida ko'riladigan bo'lsa, «Adabiyot o'qitish metodikasi» fani bo'yicha hozirgi dasturga muvofiq ravishda amaliy mashg'ulotlarning hajmi 10 soat qilib belgilangan. Ularning mazmuni esa quyidagicha tasviflanadi:

1- amaliy mashg'ulot

Badiiy asarni obrazlar tizimi orqali o'rganish. Obrazlarga singdirilgan ma'no va mazmun. Obrazlar tasnifi. (A.Qodiriyning «O'tkan kunlar», CHO'lponning «Kecha va kunduz», Alisher Navoiyning «Farhod va SHirin» asarlari misolida).

2- amaliy mashg'ulot

Matn ustida ishlash yo'llari. Matn mazmunini o'zlashtirishga oid qiyinchiliklar, ularni bartaraf qilish yo'llari. Bunda lug'at va tabdil usulidan foydalanish. Badiiy asar matnini adabtasiya qilish yo'llari. (O'rxun-Enasoy obidalari, M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'ot it-turk», YUSuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Boburning «Boburnoma» asarlarimisolida).

3- amaliy mashg'ulot

Epik asarlarni o'rganish usullari. Bunda syujetning o'rni va ahamiyati. Kompozitsiya va uning elementlarini tahlil qilish metodikasi. (A.Qahhor hikoyalari, P.Qodirov romanlari, hozirgi zamon qissalari).

4- amaliymashg‘ulot

Dramatik asarlarni o‘rganish usullari. Vaqea va personajlar. Personajlar nutqi. Dramatik asarlarda muallif nuqtai nazarining namoyon bo‘lish shakllari. Dramatik asarlarda qahramon nutqidagi o‘ziga xosliklar. (M.SHayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasi, Sofoklning «SHoh Edip»i misolida).

5- amaliymashg‘ulot

Lirik asarlar tahlili (Mumtoz va hozirgi zamon shoirlarining lirik asarlarimisolida).

Savol va topshiriqlar:

5. Oliy ta’limdagi mashg‘ulotlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Ularning quyi bosqichlardan qanday farqibor?

6. Berilgan mavzu asosida bitta ma'ruza, bitta amaliy va bitta laboratoriya mashg'ulotining rejasini tuzing. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzing.

6- ma'ruza. Mashg'ulot rejasini va ma'ruza matnini tuzish, ularga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar

Dars o'quv maqsadi: . Mashg'ulot rejasini va ma'ruza matnini tuzish, ularga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar tizimi bilan amaliy jihatdan tanishish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: mashg'ulot rejasini, ma'ruza matni, adabiyotlardan foydalanish, ilmiy-metodik talablar.

Asosiy savollar:

1. Reja tuzishdagi asosiy komponentlar.
2. Rejaning tuzishda tayaniladigan asosiy hujjatlartavsifi.
3. Rejaning qismlari va mazmuni.
4. Reja mazmuniga qo'yiladigan asosiy ilmiy-metodik talablar.

Darsga tayyorlanish jarayonida albatta, mashg'ulot rejasini tuzish, reja asosida ma'ruza matni tayyorlash, matnga qo'yiladigan ilmiy-metodik talab aks ettirilishi lozim.

Ma'ruza matnida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan yirik metodist olimlar, pedagoglarning ish tajribalaridan ko'rgazmali vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Bularning barchasi bevosita o'qituvchining shaxsiga bog'liqdir. Modomiki, gap o'quv jarayonini tashkil etish ustida borar ekan, eng avvalo, undagi ishtirokchilarni ko'z oldimizga keltiraylik: bular o'qituvchi va o'quvchi (talaba) dan iborat. O'qituvchi o'quvchining darsga kelish ishtiyoqini paydo qilishi, uning shu darsga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishi, oxir-oqibatda uning ilmiy-pedagogik mahoratini orttirishi kerak.

«Qiziqish intellektual-ma'rifiy motiv orqali paydo bo'ladi. Bunday motivni qo'llab-

quvvatlash esa o'qituvchining kasbiy burchidir»¹.

Har bir o'quvchi (talaba)ning tayyorgarlik darajasi, o'quv materialini qabul qilishlari bir xil bo'lmaydi.

¹ Aulbekova G. Ritoricheskie priyomy v rabote uchitelya-predmetnika. Almaty, Taymas, 2006, s.7.

Айрим мутахассислар уларни тўрт туркумга ажратишади. Булар:

- дарс мавзуси ҳақида ғира-шира маълумотга эга бўлганлар
- дарс мавзуси билан танишбўлганлар;
- дарс мавзуси ҳақида шахсий нуқтаи назарга эга бўлганлар
- мавзу ҳақида танқидий нуқтаи назарда твр адиганлар^[1].

О'қувчиларнинг bunday turkumlanishini yaxshi bilgan o'qituvchi, ularga tegishli munosabat ko'rsatishni ham biladi. Demak, ish jarayonida u o'quvchilaridagi shu ruhiy holat va imkoniyatlardan samarali foydalanadi.

Bevosita o'qituvchining nutqiga kelganda shuni aytish lozimki, «Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlarmavjud»¹.

Bunda o'qituvchining o'zidagi shaxsiy fazilatlar ham alohida rol o'ynaydi. Bular qatorida biz quyidagilarni eng muhim fazilatlar sifatida sanashimiz mumkin:

1. Mavzuni ilmiy asosda tasavvur qilish va o'quvchi (talaba)larga ilmiy asoslarda tushuntirishnibilish.

Gap qaysi mavzu ustida bormasin, u o'qituvchining o'zi tomonidan to'la ilmiy mantiq asosida bayon qilinishi, uning ilmiy-nazariy asoslari real tarzda tasavvur etilishi kerak. SHundan keyingina o'quvchiga mavzuni ilmiy asoslarda tushuntirish haqida gap borishi mumkin. O'qituvchining o'zi bilmagan mavzusini boshqalarga ilmiy asosda etkazib berishi mumkin bo'lmagan holdir.

Adabiyotga oid mashg'ulotlarda ularning qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar tahlilga tortilayotgan manbalarning asl nusxalari, ishonchli variantlari asosida hukm yuritish

kerak. Gap adabiy asarning badiiy xususiyatlarini tahlil etish ustida borar ekan, albatta, misollarning ilmiy haqiqatlar talabiga to‘la javob berishiga qattiq amal qilish shart bo‘ladi. Buning uchun esa bir qator shartlarga rioya etish talab qilinadi:

¹ Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, 47 b.



1) matnning asl manbalardan olinganbo‘lishi;



2) uning manbalari aniqko‘rsatilishi;



3) matnda imloviy, punktuatsion, uslubiy, faktik xatolarning mavjud emasligi;



4) ularda mantiqiy ziddiyatlarningbo‘lmasligi;

5) agar misollarni bir necha manbalardan olish imkoniyati bo‘lsa, ular orasida eng mukammallariga tayanishgaintilish.

SHu o‘rinda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejaridagi bir tajriba xususida to‘xtab o‘tish o‘rinli ko‘rinadi. Ta‘limning mazkur bosqichlarida matnlardan foydalanishda bir necha usullar ko‘zga tashlanadi. Asl matnning o‘zini berish eng ustuvor usul sifatida ajratilishi mumkin. Bu to‘g‘ri yo‘l. SHunga qaramay, ayrim hollarda, jumladan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarga olganda, ba‘zan, bu usul o‘zini oqlamasligi mumkin. SHunda mazkur matnning adaptatsiya qilingan shakli ishga tushadi. Unda mazkur matn yo qisman soddalashtiriladi, yoki u to‘lig‘icha tabdil qilinishi ham mumkin.

Metodika fanimiz tarixida asl matnlarga ustuvorlik beri-lishini iftixor bilan eslash mumkin. Faqat mumtoz adabiyoti-mizning nisbatan keyingi davrlarida yashab ijod etgan adib-larimizgina emas, qadimgi turkiy adabiyot namoyandalarining asarlari, Rabg‘uziy, Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Xoja, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Dilshod, Anbar Otin singari ko‘plab mumtoz ijodkorlarimizning asarlaridan namunalar ham asl holi-da o‘quvchilarga etkazilishi yaxshi an‘analar qatoriga kirgan. Ammo bu holat matnlarning adabtatsiya qilinishini inkor etmaydi. Qadimgi tosh bitiklar, Navoiyning «Xamsa» dostonining nasriy bayoni, ayrim mumtoz janrlar namunalarining tabdil

holatida berilishi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Mazkur matnlarning tegishli izoh va tushuntirishlar bilan birga berilishi ham yaxshi tajribalar qatorida sanalishi mumkin. Bularning barchasi asar mazmunini o'quvchilar tomonidan oson o'z-lashtirilishini ko'zlab qilinadigan metodik tadbirlardir. Baribir, ularning orasida eng ma'quli va maqsadga muvofi'gi, o'quvchilarni asl badiiyat go'zalliklariga ko'proq olib kiradigani matnning muallif variantini tavsiya etishdir.

2. Mashg'ulot jarayonida nutqning adabiy tilga muvofiq va mantiqli bo'lishiga erishish.

O'qituvchi o'quvchi (talaba) uchun har doim namuna va o'rganish manbaidir. O'qituvchining adabiy tilda sof, tiniq va bekamu ko'st tarzda so'zlay olishi birinchidan, mavzuning oson va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratsa,

ikkinchidan, o'quvchi (talaba) larning ko'nglida o'qituvchiga nisbatan katta zavq va havasni uyg'otadi. Bu birinchisidan ham ko'ra muhimroqdir.

3. Nutqning rang-barang va boy bo'lishini nazorat qilibborish.

Ma'ruza jarayonida bir xillikdan, ortiqcha va o'rinsiz takrorlardan qochish kerak. Buning uchun mavzuni tavsiflab berishga imkon beradigan, uning asosiy mohiyatini ko'rsatishga xizmat qiladigan faktlar, misollar, so'z, ibora va gaplardan, metodik usullardan, muvofiq texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Методист олимларнинг кузатишларига қараганда 2 ёшли бола-да 30-100, 4 ёшда 1000-4000, 6-7 ёшда 3000-7000, 10-11 ёшида 6000-12000, 16-17 ёшида 15000-25000 сўздан фойдаланиш имко-

Demak, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning keyingi bosqichlarida biz bu raqamlarning ko'payishini tasavvur qilishimiz mumkin. O'qituvchi bunday imkoniyatni kengaytirish yo'lini izlashda faqat darslik materiallari, mashg'ulotlarda jalb etilgan badiiy asarlardangina emas, balki o'zining nutqidan ham imkoniyat sifatida foydalanishi mumkin bo'ladi. Agar o'quvchining o'z o'qituvchisiga «birinchi taqlid ob'ekti» sifatida qarashini nazarda tutadigan bo'lsak, bu omilning nechog'li kuchli samara berishini tasavvur etish qiyin kechmaydi.

Biz ba'zan o'quvchilarning nutqida bir xilda takrorlanadigan qoliplarni ilg'ab qolamiz. Bu ham aslida o'quvchining xatosigina emas, balki o'qituvchining o'zi shakllantirgan, o'zi tayyorlagan natijalardan biridir. Oddiygina inshoning muqaddima (kirish) qismini olib ko'raylik. O'quvchilar ko'pincha mana shu qismda qiynalishadi. Ularda materialga yondashishdagi xilma-xillik, rang-baranglik, ijodiylik etishmaydi. Buning asosiy sabablari-dan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan adibning

hayoti va ijodi, o'rganilayotgan davr va adabiy asar haqidagi kirish mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan, asar tahlili va matn ustidagi ishlardan unumli foydalana olmaganida bo'lishi mumkin. Vaholanki, dastlab, asar haqidagi fikrlarni umumlashtirishda tegishli reja tuzilsa, rejaning har bir bandi haqida puxta mulohazalar yuritilsa, nima uchun ayni shu bandning zarurligi haqidagi xulosalar asoslansa, bunday kamchiliklarning oldi olingan bo'lar edi. Tuzilgan rejalarda xilmaxilliklar bo'lishi mumkin. Buzararli emas, hatto foydali hamdir. Faqatmanash xilmaxillikning

sabablari oydinlashtirib ketilsa, yuqorida aytilgan bir xillikka barham berilgan, soʻzga kambagʻallikning oldi olin-gan boʻlar edi.

Inshoning kirish qismida yozuvchining hayoti va ijodiga bogʻliq boʻlgan hodisalar, asarning yaratilish tarixi, asar va u yaratilgan davr hodisalari orasidagi bogʻlanishlar, asarda tilga olingan mavzu va gʻoyalarning zamonaviyligi hamda dolzarbligi, sanʼatning boshqa turlarida mazkur mavzuning yoritilishi va boshqalar aks etishi mumkin. Mavzuga oid epigraflarni tanlash ham oʻquvchilar-ni fikrlashga, mustaqil mushohadaga undaydigan omillar qatorida turadi. Epigraf sifatida asarning oʻzidan olingan sitata, boshqa adiblar yoki yirik arboblarning asar yoki adibning oʻzi haqidagi fikrlari, xalq hikmatlari va maqollardan foydalanish mumkin.

4. Har bir mavzuning qisqa, ammo aniq va tushunarli tarzda yoritilishinistaʼminlash.

Oʻqituvchining diqqat markazida har doim oʻquvchi shaxsi turi-shi kerak. SHundagina u mavzuning unga etib borishi haqida koʻproq qaygʻura boshlaydi. Toʻgʻri fikrning birinchi belgisi uning ishonch-liligidir. Buning ustiga u qisqa va tushunarli boʻlsa nur ustiga nur boʻladi. Uzun nutq va tushuntirishlarning samarasiz ketishini esdan chiqarmaslik kerak. Arablarda juda yaxshi bir maqol mavjud.

**Айтдинг – ишондим, такрорладинг –
шубҳаландим, қасам ичдинг –
ёлғонлигини билдим**

Bunga yoʻl qoʻymaslik uchun oʻquvchining ham ogʻzaki, ham yozma nutqi doimo diqqat markazida turishi kerak. Birgina misol keltiraylik. Oʻquvchi inshosidagi «adibning ijodida gʻazal va murabbalardan tashqari chiston va lugʻzlar ham etakchi oʻrin tutadi» degan gapning Muqimiy ijodiga tegishli ekanligi nazarda tutilsa, uning mantiqan, fakt sifatida toʻgʻri emasligini koʻrsatish kerak boʻladi. Zero, Muqimiy

ijodida «chiston va lugʻzlar ham etakchi oʻrin» tutgan emas. Yoki «Farhod butun boshli bir armiyaga qarshi mardonavorlik bilan kurashdi», «Bobur koʻplab asarlarini oʻzi nashr qildirdi» singari holatlarda ayrim tushuncha va atamalarning oʻzi tegishli boʻlmagan davrlarga aloqalantirilishi ham shunday mantiqiy buzilishlar sirasiga kiradi. Bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin. Demak, oʻquvchilar bilan ishlash jarayonida ularning tegishli fakt va materiallarga ongli tarzda, oʻylab turib murojaat etishlarini odat tusiga kiritish, yaʼni ularda shu sohaga oid koʻnikma va mala-kalarni toʻgʻri shakllantirish talab etiladi. Mantiqiy xatoliklar faqat faktlarni buzib qoʻllashda emas, balki

matndagi mantiqiy aloqadorlikni buzishda, asossiz xulosalar chiqarishda, nutqning bosh, oʻrta va yakuniy qismlari orasidagi bogʻlanishlarning uzilib qolishida ham namoyon boʻlishi mumkin.

Nutqni eshitib turib his etishda murakkabliklar anchagina koʻp boʻladi. Tajribali oʻqituvchilar bunday murakkabliklarni hamda ular kelitirib chiqarishi mumkin boʻlgan qiyinchiliklarni yorqin tasavvur etganlari uchun amaliyotda sodda va tushunarli soʻzlarni qoʻllash payida boʻlishadi. Bunda oʻquvchilarning yosh xususiyatlari ham, ularning adabiy tayyorgarligi ham nazarga olinadi. Bordi-yu, tushunarsiz soʻzlar qoʻllanadigan boʻlsa, dars samaradorligiga salbiy taʼsir yuzaga keladi. Oʻquvchilarning mavzuni tushunish darajalari pacayadi, eng yomoni, ularning badiiy acar mohiyatini anglash va hic qilish imkonlari oʻqituvchi tomonidan chegaralab qoʻyiladi.

Buning asosiy sababalaridan biri

oʻquvchilar eʼtiborini toʻliq tortolmaslik, adabiy materialga nisbatan oʻquvchilar qiziqishini hosil qila bilmaslik, sinfdagi oʻquvchilar sonining koʻpligi, ular orasida shovqin-suronning boʻlishi yoki oʻqituvchi nutqidagi ayrim kamchiliklarga koʻra uning oʻquvchilarga toʻla etib bormasligi boʻlishi mumkin.

Adabiyot darslarining tegishli tarzda emotsional boʻlishiga eʼtibor berish.

Adabiyot darslari shu fanning talabiga koʻra ham emotsional boʻlmogʻi kerak. Muayyan adabiy matnni oʻqishdan boshlab, unga munosabat bildirishda ham shu xususiyatning ochiq koʻrinib turishi dars samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan omillardan biridir. Ammo bunda ham meʼyor tushunchasiga toʻla amal qilish kerak boʻladi. Masalan, yozuvchining tarjimai holini oʻtishda, ayniqsa, uning oʻz qoʻli bilan yozilgan maʼlumotlarda emotsional-likning chegaralangani maʼqul boʻlsa, bevosita asarlar tahlilida unga kuchliroq zarurat seziladi.

Quyida oliy taʼlimning bakalavriat bosqichi uchun moʻljallangan ayrim maʼruza matnlaridan namunalarni havola qilamiz:

Taʼlim bosqichlarida Oybek hayoti va ijodini oʻrganish

Oybek hayoti va ijodini oʻrganishning dasturlarda aks etishi.

Oybek hayoti va ijodi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida, akademik litsey va kasb-

hunar kollejlarda ancha izchil va batafsil o'rganiladi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida Oybekning

«Gulnor opa» hamda «Fonarchi ota» hikoyalarini o'rganish ko'zda tutilgan. Ayni paytda dasturda yozuvchi haqida ma'lumot berish ham ko'zda tutilgan. Bularning barchasi uchun 4 soat vaqt ajratilgan. SHuningdek, 8- va 9-sinf- larda ham Oybekning hayoti va ijodini o'rganish ko'zda tutilgan.

Bularni quyidagi jadvalda ko'rsatish qulayroq ko'rinadi.

Sinflar	5-sinf	8-sinf	9-sinf	izoh
Dastur mazmuni				
Ajratilgan	4	3	5	Jam i

soatlar				12soat
Tarjima hol	YOzuvchi haqi-da ma'lumot	Adib haqida ma'lumot	Oybek hayoti va ijodi haqida ma'lumot	
O'rganilgan asar nomi	«Gulnor opa», «Fonarchiota»	«Navoiy»	«Qutlug' qon» romani She'rlar. «Chimyon daf-tari» she'riy turkumi. «Na'matak»	

<p>Asarni o'rganish mazmuni</p>	<p>«Gulnor opa» hikoyasida bo'lalar olami-ning mahorate bilan ifodalanishi. Gul-norning YAshi-rin tuyg'ulari tasviri. Hikoya qahramonini Gulnor opaga bo'lgan munosa-ajoyib fazi-balqib nishi. «Fonarchi ota» hikoyasining badiiy xosligi. Fonarchi otaning ezgu insoniy fazilatlarini.</p>	<p>«Navoiy» romani-ning yozilishi haqida muallifning tehtiros-li xotiralari. Keltirilgan parchalarda Navoiy faoliyati uch qir-rasining yoritilishi: SHoirning ijod ahli bilan muloqotlari, u-larga g'amxo'rliqi, bu-yuk asarlarining yara-tilish jarayoni; Navoiyning mamlakatda tinchlik va osoyish-talik, temuriyzodalarning o'rtasidagi ix-tiloflarni bartaraf qilish uchun olib bor-gan kurashi; uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati tas-viri. Romandagi</p>	<p>«Qutlug' qon» romanining ijodiy tarixi. Romanda 1916 yil milliy-ozodlik harakati mavzuining aksetishi. Keng xalq ommasining jadidchilik g'oyalarini qabul qila olmaganliklariga ij-timoiy sabablar. Oybek she'riyatida inson va tabiat tasviri. Lirik qahramon ruhiy olamining tabiat manzaralari orqali inkishof etilishi. «Na'matak»-Oybek lirika-sining timsoli sifatida. Oybek she'riyatida fikr va tuyg'ubirligi. SHoir lirikasining badiiy latofati. SHoir-ning badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanishi.</p>
---------------------------------	---	---	--

		tari- xiy va to‘qima qah- ramonlarning Navoiysiymosini yoritish-dagi o‘rni.		
Obrazlar tizimi	Gulnor opa obrazi	Romanda shoir obrazi	Romandagi gala-reyasi.	obrazlar Yo‘lchi va

	Fonarchi otatalqini. obrazi		Gulnor obrazlarida sevgi va vafo mavzularining badiiy mu-jassamlanishi. Yo'lchi va Mirzakarimboy obrazlari. Mirzakarimboy tadbir-korlik, hushyor aql timsoli bo'lish bilan birga shafqatsizlik, bemehrlik ramzi sifatida. Mirzakarimboy obrazida insonga xos salbiy jihatlarning aks etishi. Romanda xalq obrazi. Yo'lchi va oddiy xalq vakillari. Yo'lchi va Abdushukur obrazlari.
Asar tili		Asar tilining jo- zibadorligi va davrruhini etkazib bera olishqudrati.	Asar tilidagi badiiy-uslubiy bo'yoqlarfavvorasi.
Uslub	Har ikkala hikoyadagi yozuvchi uslubiga xos samimiyat		Asar tilidagi badiiy- uslubiy bo'yoqlar favvorasi. «CHimyon daftari» XX asr o'zbek

			lirikasining shoh namunalaridan biri sifatida.	
Ahamiyati	Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati		Romanning badiiy qim-mati. Qahramonlar obrazi- ni yaratish va asar kompo-zitsiyasini tuzishda yozuvchi mahorati. Oybekning XX asr o‘zbek nasri va she’riyatitaraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.	
Nazariy ma’lumot		Tarixiy roman	Roman haqida ma’lumot. Tabiat	

			lirikasi.	
--	--	--	-----------	--

Biz ushbu jadvaldagi ma'lumotlarni o'rganish asosida bir qator xulosalarga kela olamiz. Bu xulosalarimiz asarlar mazmuniga ham, adibning tarjimai holiga ham, asarning tarkibiy qismlariga ham, asar bilan bog'liq bo'lgan nazariy ma'lumotlarga ham tegishlidir. Ular orasidagi eng muhim xulosalar sifatida esa quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Dasturda Oybek haqida, uning ijodi haqida yaxlit tasavvur berish asosiy maqsadlardan biribo'lgan.
2. Bunda Oybekning hayoti va ijodi haqida uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya etishga jiddiy harakat ochiq sezilibturadi.
3. Dasturni tuzishda, unga materiallar tanlashda pedagogika, xususan, didaktikadagi asosiy tamoyillarga imkoni boricha tayanishga va ularni hisobga olishga harakatqilingan.
4. Osondan qiyinga, soddadan murakkabga tomon borish singari asosiy tamoyillar dasturni tuzishga asos bo'lib xizmatqilgan.

SHunga qaramay, dastur bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, unda bir qator noqislik va etishmovchiliklar ham mavjud. Ularning nazarimizda bir muncha jiddiyroq bo'lganlarini eslatib o'tmoqchimiz. Bular:

1. Adibning hayoti va ijodini o'rganishda qat'iy mazmun chegaralari ko'rsatilishi kerak edi. Jumladan, adibning tarjimai holini o'rganishda o'z holiga tashlab qo'yish mavjuddek ko'rinadi. CHunki dasturiy talablarda tarjimai holning qaysi jihatlariga urg'u berish kerakligi ko'rsatilgan emas. Darsliklardagi ayrim faktik va fikriy takrorlarning dasturdagi mana shu mavhumlik bilan aloqador holda yuzaga kelganligini qayd etish o'rinlibo'ladi.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari ayrim holatlarda inobatga olinmaganday tuyuladi. Buni ayrim misollarda ko'rsatishga va izohlashga harakat qilaylik. 5-sinfda Oybek ijodidan tanlangan hikoyalar, xususan, ularning birinchisi, bolalarning yosh xususiyatlariga unchalik to'g'ri kelmaydi. Garchi hikoyaning

mazmuni va mavzusi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undagi voqealar tizimi 11-12 yoshli bolalarning sinfda muhokama qilishi uchun maqsadga muvofiqko'rinmaydi.

2.1. 9-sinfda o'rganilishi ko'zda tutilgan asarlarning hajmi va ko'lami ham bolalarning yosh xususiyatlariga mos emas. U erda ko'zda tutilgan asarlardan faqat birinchisigina kifoya qilar edi. Oybek she'riyatini, ayniqsa, butun boshli bir turkumni tahlil qilish uchun ajratilgan soatlar imkonbermaydi.

2.2. Tanlangan material bilan ajratilgan soatlar nisbati orasidagi ziddiyat. Nihoyatda keng ma'lumotlar berishni hamda katta hajmdagi materiallarni o'rganishni ko'zda tutish albatta niyat nuqtai nazaridan juda yaxshi. Biroq uning amliyotdagi ijrosi o'qituvchilarni bir ozgina qiynab qo'yishini ham nazardan qochirmaslikkerak.

Bularning barchasi dasturlarga o'qituvchilarimizning ijodiy yondoshuvlari zarurligini ko'rsatib turibdi. Demak, biz ish jarayonida, bevosita amaliyotda ana shu nuqtalarga jiddiy e'tibor berishimiz, har bir sinfning o'z an'analari, adabiy tayyorgarliklaridan kelib chiqqan holda ish tutishimiz kerak bo'ladi.

1.2. Oybek hayoti va ijodini o'rganishning darsliklardagi ifodasi.

Oybek hayoti va ijodining darsliklarda aks etishini kuzatish ham muhim masalalardan biridir. Chunki, darslik asosan dasturlar asosida yaratiladi. Shunday ekan, dastur talabalari darsliklarda qanday darajada aks etgan?

Biz bu savolga Oybek hayoti va ijodi misolida javob berishga urinib ko'ramiz.

Dasturlar tahlilida ko'rib o'tganimizday, Oybekning hayoti va ijodi 5-, 8-, 9-, 11-sinflarda o'rganiladi. Biz faqat tarjimai holning bu darsliklarda berilishini kuzatishga harakat qilamiz.

1. Dastlab e'tiborni tortadigan narsa adibning rasmidir. Nima uchundir darsliklarimizda adibning bir xildagi rasmlari beriladi. Buning o'rniga adibning ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lib turgan biror holati, yoki uning boshqa adiblar bilan birga tushgan rasmlarini berish maqsadga muvofiq bo'lmasmikan?

2. Agar 5-sinf darsligida «U 1905 yilning 10 yanvarida Toshkentda tug'ilgan» deyilgan bo'lsa, 8-sinf darsligida «Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905 yilning 10-yanvarida Toshkent shahrining Govkush mahallasida, bo'zchi oilasida tug'ildi» deyiladi. Ushbu tavsifda tug'ilgan joyning aniqlashtirilgani, uning oilaviy-ijtimoiy kelib chiqishiga ham e'tibor berilgani ko'rinib turibdi.

3. Oilaviy hayotda adabiyotga bo'lgan alohida e'tiborning mavjudligi ta'kidi ham 8-sinf adabiyot darsligining afzal tomonini ko'rsatib turibdi.

4. Adibning o'qish yillarini ko'rsatuvchi voqea-hodisalarda esa takroriylik asosiy o'rinni egallaydi.

5. Har ikki tarjimai holda ham shu sinflarda o'rganilishi ko'zga tushgan asarlar haqida hech narsa deyilmaydi. Vaholanki, 8-sinf dasturida asarning yaratilish tarixini eslatib o'tish asosiy talablardan biri sifatida uqtirib o'tilgan edi.

Bulardan kelib chiqadigan xulosalar shundan iboratki, darsliklarda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya etishga harakat qilingan. SHunga qaramay bu tamoyil to'lig'icha amal qiladi deyish qiyin. Ularda takroriylik elementlari ancha ustuvor. Darsliklarda materiallarni berishdagi bir xillik ko'zga tashlanadi. Vaholanki, buning o'rniga ularni xilma-xil qilish, shu orqali o'quvchilarning adib hayoti va ijodiga, bular asosida esa umuman adabiyotning o'ziga ham qiziqishlarini orttirish imkoniyati yaratilgan bo'lur edi.

Aslida Oybekning hayoti va ijodi o'quvchilarimizning bilimlarini kengaytirishda ham, ularning axloqiy-ma'naviy fazilatlarini shakllan- tirish va takomillashtirishda ham nihoyatda keng imkoniyatlarga ega. Birgina Vatan va vatanparvarlik mavzusini olaylik. Oybekning butun ijodi mana shu mavzuni yoritishga, uning turli qirralarini o'ziga xos tarzda talqin qilishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmas. Bu gap Oybekning epik asarlariga qanchalik tegishli bo'lsa, uning lirikasiga ham shu darajada taalluqlidir. Birgina «O'zbekiston» she'rini eslaylik. (Vaqt imkoniyati bo'lsa she'r tahlilqilinadi)

Umuman, adabiyotshunoslarimiz, Oybek tavalludining 100 yilligi munosabati bilan juda katta ishlarni amalga oshirishdi. Bu masalada metodist–olimlarimiz ta'lim bosqichlarida dars berayotgan, tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanayotgan kasbdoshlari oldida qarzdor bo'lib turibdi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

2. Abdurahmonov G'. Oybek asrlarining tili va uslubi. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.28-32-betlar
3. Jo'raev K. Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T.: O'qituvchi,1974.
4. Mirvaliev S. Oybek-romannavis – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.10-13-betlar
5. Mo'minov G'. – Oybek va xalq og'zaki ijodi. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.25-28-betlar
6. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., SHarafidinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999,196-224-betlar
7. Karimov N. Oybekning XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixidagi o'rni. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005. 3-6-betlar– Oybek ijodining ma'naviy-

ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.3-6-betlar

8. Nazarov B. Oybek ijodini o'rganish muammolari. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.6-10betlar

9. Normatov U. Adibning universitet davri ijodiy tafakkuridagi evrilishlar. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.13-17-betlar

10. Rasulov A. Biografik metod va Oybek ijodini o'rganish masalalari. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.32-36-betlar

11. Rahimjonov N. Oybek she'riyatida go'zallik konsepsiyasi. – Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.19-22-betlar.

12. Sabirdinov A. Oybek dostonlarining badiiy-uslubiy xususiyatlari. Toshkent, Istiqlol,2003.

13. To‘ychiev U. Oybekning she‘r uzilishi – Oybek ijodining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma‘ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.36-38-betlar.
14. Haqqul I. Oybek – Navoiyshunos. – Oybek ijodining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma‘ruzalari tezislari. Toshkent, Fan, 2005.17-19-betlar
15. Umumiy o‘rta ta‘limning DTS va o‘quv dasturi. Ta‘lim taraqqiyoti axborotnomasi. Toshkent, SHarq, 1999, 1-mutaxassislikson
16. Husanboeva Q. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. – T.: 2004, 11-12-betlar
17. Kattabekov A., Yo‘ldoshev Q., Boltaboyev H. Adabiyot. 8-sinf uchun (darslik-majmua). – T.: O‘qituvchi, 2001. - 448b.
18. Shojalilov A., Toshmatova G., Matjonov S., Sariyev Sh. O‘qish kitobi, 4- sinf uchun darslik, - T.: O‘qituvchi, 2003. -336b.
19. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflari uchun Adabiyotdan o‘quv dasturi.- // Ma‘rifat gazetasi, 2006- yil,4-Oktabr.
20. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflari uchun Adabiyotdan o‘quv dasturi.- // Ma‘rifat gazetasi, 2006- yil,7-Oktabr.
21. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflari uchun Adabiyotdan o‘quv dasturi.- // Ma‘rifat gazetasi, 2006- yil,11-Oktabr.
22. Yo‘ldoshev Q. «Adabiy saboqlar. 8». Umumta‘lim maktablarining8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo‘llanma. - T.: Sharq, 2004. – 160 b.

7-ma'ruza. Adabiyotshunoslikka oid fanlarni o'rganishda o'qituvchining roli

Reja:

1. O'quvchi shaxsining shakllanishida adabiyot o'qituvchisining o'rni.
2. Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar.
3. Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan ma'naviy talablar.
4. Interfaol usullar va adabiyot o'qituvchisi.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tashkilotchilik, pedagogik ijrochilik, badiiy vositachilik, pedagogik sheriklik, pedagogik amaliyotchilik, ta'limning ichki va tashqi mohiyati, ta'lim kechimini tashkil etishda ta'lim mazmuni va o'qitishni amalga oshiruvchi kuchlar nisbati, adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan ma'naviy talablar, adabiyot bo'yicha bilimli mutaxassis va o'quvchilarni yaxshi ko'radigan pedagog tushunchalarining farqi, adabiyotchining bolajonligi, adabiyotchining notiqligi, adabiyotchining xushmuomalaligi, interfaol usullar davrida o'qituvchining tashkilotchilik o'rni oshuvi.

Adabiyot o'qitishning maktab ta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlarini o'qitishdan jiddiy farqlanadigan bir jihati uning o'qituvchi shaxsiyatiga qattiq darajada bog'liq ekanligidir. Boshqa o'quv predmetlari muallimlarining yaxshi faoliyat ko'rsatish uchun o'z sohasini chuqur bilish va o'qitish metodikasini egallab olishning o'zi etarli hisoblanadi.

Adabiyot o'qituvchisiga esa, adabiyotshunoslikni puxta o'zlashtirish va adabiyot o'qitish metodikasiga doir yangiliklarni egallab olish kifoya qilmaydi. Adabiyot darslari o'quvchilarning ko'ngli, sezimlari bilan ish ko'rgani va ularda ezgu ma'naviy tuyg'ular shakllantirishga qaratilgani uchun adabiyotchi shaxsi o'quvchi axloqiy dunyosi tarkib topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisi ham bilimi, ham shaxsiyati bilan o'quvchilarni o'ziga rom eta olsagina adabiy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. CHunki yaxshi darslik, puxta dastur, mukammal o'quv vositalari ta'limning **tashqi** jihati bo'lsa, o'quvchi bilan o'qituvchi hamda ta'lim mazmuni bu kechimning **ichki** mohiyatini tashkil etadi. Har qanday hodisaning asl qiymati, chin mohiyati ichki jihatda namoyon bo'lgani kabi adabiy ta'limda ham o'qituvchi bilan o'quvchi munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot o'qitishda fanga muhabbat o'qituvchiga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. O'quvchi ko'nglidagi ezgu xislatlarni uyg'otish, badiiy asar tahlili orqali unda ezgu ma'naviy fazilatlarini qaror topdirish yo'li bilan bola shaxsining bir pog'ona yuksalishiga erishish adabiyot o'qituvchisining qo'lidan keladi.

Adabiyot o'qitish hissiyotga, ma'naviyatga bog'liqligi va o'quvchi axloqini shakllantirishga xizmat qilishi adabiyot o'qituvchisi shaxsiga katta mas'uliyat yuklaydi. Adabiyot o'qituvchisi, birinchi navbatda, barkamol shaxs bo'lishi lozim. CHunki ma'naviyati qashshoq shaxs barkamol o'quvchini shakllantira olmaydi. Negaki, hech qanday og'och o'zidan ortiq meva berolmaydi.

O'rta maktabda ishlashni niyat qilgan o'qituvchi bir qator kasbiy va ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Adabiyot o'qituvchisigagina xos bir qator kasb sifatlari borki, bu xususiyatlar muallim faoliyatida o'z ifodasini topib, mashg'ulot jarayonida namoyon bo'lmasa, darslar samarasiz bo'lib qolaveradi. CHunki adabiyot o'qituvchisining har bir kasb sifati faoliyatining samarasini belgilaydi.

Badiiy ijodkorlik. Adabiyot muallimiga xos faoliyat qirralaridan biri ilhomiy holat, badiiy did va tafakkurga asoslanadigan xususiyat bo'lmish ijodkorlikdir. Adabiyot o'qituvchisi ilmiy haqiqatlar bilan emas, badiiy yaratma bilan ish ko'radigan mutaxassis ekanligi uchun ham uning tabiatida ijodkorlarga xos belgilar bo'lishi shart. Oliy maktab yosh o'qituvchini ijodga, ya'ni olamni faqat o'z ko'zi bilan ko'rib, yangilik yarata olishga o'rgatishi kerak. Pedagogik ijodkorlik adabiyot darslarining estetik yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Adabiyot muallimining o'zi badiiy

kashfiyot qilishni bilmasa, o'nlab metodik kitobu ko'rsatmalar befoyda. Chunki har bir adabiyot darsi o'qituvchi ijodining namunasi, o'ziga xos kashfiyot, qayta takrorlanmas faoliyatdir.

O'qituvchining badiiy ijodkorligi o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, uning badiiy didini tarkib toptirish, dunyoqarashini shakllantirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'ziga xoslik, boshqalarga o'xshamaslik, metodik kashfiyot qilish har bir adabiyot o'qituvchisining tabiiy ehtiyojiga aylangandagina, darslari betakror va samarali bo'ladi. O'qituvchining muayyan badiiy asarni o'ziga xos idrok etishi, o'z tushunganicha tafakkurida qayta ishlab, badiiy jozibasini o'quvchilarga etkaza olishi uning ijodkorligini ko'rsatuvchi belgidir.

O'qituvchining ijodkorlik faoliyatini shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning uzviy bir bo'lagidir. Adabiyot o'qituvchisining badiiy-ijodkorlik malakasi nozik ruhiy, jismoniy jarayonlar natijasi bo'lib, u ko'p jihatdan kishining tabiiy-biologik imkoniyatlariga bog'liqdir. Muallimning ijodkorligi asar tahlilida, uning qismlariga sarlavhalar belgilashda, badiiy kechalarning ssenariysini tuzish va o'tkazishda yaqqol seziladi. **"Ijodkor bo'lmagan o'qituvchida nusxabozlik, siyqalik ko'rinib turadi"** (Yo'ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "Universitet", 1994. -92 b.).

Ijodkor o'qituvchigina asardagi badiiyat jilolarini to'g'ri anglab, o'quvchilar qalbiga muhrlay oladi. Ijodkor o'qituvchi darsning rang-barangligiga erisha oladi. Rang-barang dars o'quvchilarni zerikish, va keraksiz zo'riqishdan saqlaydi. Yaxshi tashkil etilgan har bir adabiyot darsi nimasi bilandir yangi va takrorlanmas bir asardir.

Ijodkorlik o'quvchilarni ham ijodiy ishlashga odatlantirish, badiiy asarga mustaqil yondashishga rag'bat uyg'ota olish demakdir. Mustaqillik - ijodkorlik, ijodkorlik esa yaratuvchilikdir.

Ijodkor o'qituvchi boshqalardan hamisha yangi fikri, teran hissiyoti, original mushohadasi bilan ajralib turadi. O'qituvchida mazkur sifatning bo'lishi adabiy

ta'lim samaradorligiga kafolatdir. "*Bugungi darsni kechagidan, ertangisini bugungidan yaxshiroq va samaraliroq tashkil qilish ijodkor o'qituvchining doimiy shioridir*" (Zankov A. Besedy s uchitelyami. -M.: «Prosveщenie», -S. 139).

Adabiyot o'qituvchisiga xos bo'lgan kasb sifatlaridan biri **badiiy ijrochilik**dir. Bu xususiyatda o'qituvchining o'rganilayotgan badiiy asarlarni ifodali o'qish mahorati, badiiy so'zga ustaligi ko'rinadi. Badiiy ijro turli ta'lim metodlaridan foydalanish va tajriba hisobiga sayqal topib boradi. Bo'lajak o'qituvchining badiiy ijrochilik mahorati oliy maktabda rivojlantirilishi kerak. Talabalarning ijro mahoratini sinash uchun ko'riklar, musobaqalar tashkil qilinib, bunday tadbirlarga badiiy so'z ustalari taklif qilinadi. Ular talabalarning ijrosini kuzatib borishadi va baholashadi. Ayrim san'atkorlar bilan badiiy ijroning sir-asrorlari haqida davra suhbatlari, amaliy mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Badiiy so'z ustalarining video va audiotasmalarga yozib olingan ijro namunalari tahlil etiladi. SHu tariqa talabani ijro mahorati oshirib boriladi. Buning uchun filologiya fakultetlari talabalari uchun maxsus kurs sifatida. "Badiiy ijro mahorati", "Badiiy o'qish san'ati" kabi mashg'ulotlar tashkil qilinishi, ifodali o'qish bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilishi mumkin. SHundagina talabalarda badiiy ijro mahoratini shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Badiiy ijro o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan asardagi muallif tuyg'ulari, ruhiy holatini ilg'ash va o'quvchilarga etkaza bilishdir. U asarni shunchaki o'qib berish emas, balki muallif va o'qituvchi birlashgan ruhiyatining yaxlit voqe bo'lishi jarayonidir. O'qituvchining badiiy ijrodan maqsadi asar mazmuni va g'oyasi bilan o'quvchini shunchaki tanishtirish emas, matnga singdirilgan hissiyotni, tuyg'uni bola qalbiga joylash hisoblanadi. O'qituvchi badiiy ijrosi bilan asardagi qahramonlar va muallifning tuyg'ularini bolalarning kechinmalariga aylantiradi. YAxshi ijro asarga yangi umr baxsh etadi, uning anglanmagan sirlarini ochadi, sezilmagan jozibalarni namoyon etadi. Mahoratli ijro tufayli o'quvchilarning e'tibori, diqqati zabt etilsagina, asarning badiiyliigi, asar timsollarining hislari bolalarning qalb mulkiga aylanadi.

SHundagina o'quvchilar o'qituvchi kulsa, kuladi, xo'rsinsa, ko'zlariga yosh oladi. Badiiy ijrosi puxta o'qituvchining darslari ijodiyliigi, quvnoqligi, hazil-mutoyibaga

boyligi bilan ajralib turadi. Badiiy ijro qanchalik kuchli bo'lsa, dars shunchalik qiziqarli bo'ladi, unda o'quvchilar faol ishtirok etadilar. Hissiyot bilan qabul etilgan dars o'quvchida "hissiy tafakkur"ni uyg'otadi va bir umr qalbiga muhrlanib qoladi. O'qituvchining ijrochilik mahorati o'quvchilarning ijrochilik iste'dodlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi asar ijrosida zo'rakilikka, soxtalikka yo'l qo'ysa, ko'zda tutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Badiiy ijrochilikning muhim qirralaridan biri badiiy o'qish mahoratidir. "***Badiiy o'qish - holatga kirib o'qish, ...qahramonni his qilish degan ma'noni bildiradi***" (Inomxo'jaev S., Zununov A. Ifodali o'qish asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1973. -223 b).

Badiiy o'qish mahorati o'qituvchining biror asardagi muallif va timsollarning tuyg'ularini mohirona, ta'sirli etkazib berishida namoyon bo'ladi. Muallif va timsollar nutqi hamda ruhiy holatini butun jozibasi bilan o'quvchilar ma'naviy dunyosiga olib kirish murakkab ishdir. O'quvchilarning ruhiy, hissiy dunyosini "zabt" etish, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topa bilish o'qituvchi badiiy o'qish mahoratining samarali natijasidir.

Lirik asarlarning badiiy ijrosi ancha murakkab. Chunki lirik asar mazmunini aytib berib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi. U faqat his qilinadi. Lirik asarlar mahorat bilan ijro etilgandagina tuyg'ular o'quvchilar qalbiga o'giriladi. Badiiy o'qishda tuyg'ular jo'shqinligiga alohida e'tibor berilishi zarur. Asar qahramonlari ichki kechinmalarining o'quvchilar tomonidan to'liq his qilinishiga erishish badiiy o'qish oldida turgan muhim vazifadir.

His qilish shunchaki bilib qo'yish emas. His qilinganda fikr ham, vujud ham, qalb ham ta'sirlar jarayoniga g'arq bo'ladi. Achinish yoki zavqlanish, o'zgalar g'ami, quvonchi, musibati yoki shodligiga sheriklik o'quvchilarda o'zganing holatini his qilish, ruhiyatini tuyish, boshqalar o'rniga o'zini qo'ya bilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Toza hissiyot yoshlarni ma'naviy komillik sari boshlovchi vositadir.

Adabiyot o'qituvchisi badiiy asar bilan o'quvchilar orasida **badiiy vositachi** vazifasini bajarishi kerak. Adabiy ta'limda badiiy matn, uning zamiriga yashirin

sirli tasviriy ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy va estetik ma'nolarni anglab etish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ish o'qituvchi uchun ham, hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sir-sinoatlarini chuqur anglab etmagan o'quvchi uchun ham og'irdir. SHu bois o'qituvchida o'rgatiladigan asarlarni o'quvchilarning yoshi, ruhiy dunyosi, o'zlashtirish imkoniyatiga moslab ularning ko'ngil mulkiga aylantirishdek badiiy vositachilik, ya'ni didaktik tahlilchilik sifatining bo'lishi zarur hisoblanadi. Bu sifat o'qituvchining o'quvchilarni badiiy asar matnidagi jozibani payqashga o'rgatishi va ularda estetik didni o'stirishida muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning badiiy matnni o'z ma'naviy mulkiga aylantirishi, uni bor sehra jozibasi bilan o'zlashtirishi o'qituvchining vositachilik mahoratiga bog'liqdir. O'quvchilar ustozga ergashib asarni kashf etadilar, matn jozibasini anglagan sari unga qiziqib boradilar. Bu o'quvchilarning kitobxonlik darajasini oshiradi, kitob o'qish madaniyatini yuksaltiradi. Kitob o'qish davomida badiiy so'z ustida ishlashga odatlantiriladi.

O'qituvchining badiiy vositachiligi adabiyot darslarida o'rganilayotgan asar yuzasidan sinfdagi o'quvchilarning bir xil fikrga kelmasligida ko'rinadi. Uning bu xususiyati o'rganilayotgan asarning har bir o'quvchi tomonidan o'ziga xos tushunilish va baholanishini ta'minlashga qaratiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi munosabat **pedagogik sheriklik** darajasida bo'lishi lozim. SHeriklar bir maqsad yo'lida harakat qilishlari zarur, lekin bir xil fikrlashlari aslo shart emas. Sinfdagi barcha o'quvchilarning biror asar yuzasidan bir xil xulosaga kelishi o'ylamaslikning oqibatidir. Biror narsa yuzasidan mustaqil fikrlamaslik intellektual qaramlikdir. SHuni aytish kerakki, aqliy qaramlik siyosiy va huquqiy qaramlikdan ko'ra xavfliroqdir.

Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining chuqur emotsional xususiyatga ega bo'lishi kerakligi ham zarur talablardan biridir. O'qituvchi asar va o'quvchilar orasida bog'lovchilik vazifasini bajarar ekan, mashg'ulotlarni o'quvchining ruhiy taraqqiyotini ta'minlaydigan tarzda uyushtirishi muhimdir.

Adabiyot o'qitishda badiiy asarning mantig'ini bilishning o'zi etarli emas. Matn zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ash, turli badiiy ifodalar ostida "yashirinib yotgan" jozibani payqash muhim sanaladi. Bu esa o'qituvchining badiiy vositachiligida amalga oshiriladi. O'quvchilarning asarni to'g'ri anglab to'la o'zlashtirishlari badiiy matnni to'g'ri baholashi va tahlil qila olishlariga yaratilgan zamin hisoblanadi. O'qituvchining badiiy vositachilik mahorati matnni o'quvchilarga etkazish, uning badiiyatiga xos estetik jozibani bolalarga anglatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak adabiyot muallimidagi bu xususiyatni shakllantirish oliy o'quv yurtida amalga oshirilishi zarur. Oliy maktab talabasi pedagogik amaliyot davrida o'quvchilar bilan hamkorlikda badiiy kechalar, adabiy uchrashuvlar, sayohatlar, davra suhbatlari uyushtirishga odatlanishi lozim. SHundagina sinf o'quvchilari bilan ish olib boradigan o'qituvchi ularni bir jamoa sifatida uyushtirib, turli tadbirlarni tashkil qilishning uddasidan chiqa oladi.

Adabiyot o'qituvchisi **tashkilotchilik** sifatiga ham ega bo'lishi kerakki, busiz u o'quvchilarni o'ziga jalb qila olmaydi. CHunki har qanday sinfda ham turli tabiatli o'quvchilar bo'ladi. O'qituvchi ana shu har xil tabiatli o'quvchilar bilan umumiy til topishi lozim bo'ladi. Bir butun jamoa hisoblangan sinf bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni samarali bo'lishi uchun o'qituvchi ijtimoiy tashkilotchi bo'lishi shart.

Sinfdagi turli tabiatli, har xil maqsadli o'quvchilarni bir xildagi tartib-intizomga rioya qiladigan jamoaga aylantirish, ularni darsga qiziqtirib, o'zlashtirish darajasini oshirish va eng muhimi, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirish o'qituvchidan tashkilotchilikni talab etadi.

Dars umumiy xarakterdagi tashkiliy jarayon. SHunga ko'ra, adabiyot o'qituvchisi faoliyati ham umumga qaratilgan bo'lishi kerak. O'tilayotgan mashg'ulot esa har bir alohida o'quvchiga tegishli bo'lgandagina bolalar tomonidan o'zlashtiriladi. Binobarin, **adabiyot o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ham hamma bilan va ham har kim bilan ishlay olishi lozim** bo'ladi. O'qituvchining ijtimoiy tashkilotchiligi

tufayligina har bitta o'quvchi kayfiyati, hissiyoti va tuyg'ulari bilan ko'pchilikning kayfiyati uyg'unlashishi mumkin bo'ladi.

O'quvchilar orasida qaror topgan insoniy munosabatlar yoshlardagi ma'naviy sifatlarni tarkib topdirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining o'z fikru mulohazalarini umum bilan baham ko'rishga intilishi boshqalar fikrini eshitishga odatlanishi, shaxsiy mulohazalarini asosli ifodalashga o'rganishi adabiy ta'limning samaradorligini keskin oshiradi. O'quvchining jamoadan qochishi, yolg'izlikka intilishi, do'stlaridan uzoqlashishi, dars va darsdan tashqari tadbirlarda faol qatnashmasligi o'qituvchi ijtimoiy tashkilotchilik faoliyatining etarli emasligi oqibatidir.

Sinfdagi bolalar do'stona jamoaga uyushgan joyda darslar qiziqarli, mazmunli tashkil qilinadi. O'quvchilarni jalb qilolmagan, o'zining tashkilotchilik fazilati bilan ularga namuna bo'lolmaydigan o'qituvchi bolalarni birlashtira olmaydi. Chunki unga o'quvchilar ergashmaydi. Ustoz bolalarni sevadigan, ularning qiziqishlarini biladigan va o'quvchilardan vaqtini ayamaydigan, ular bilan tengdoshday muomala qila olgandagina, sinf jamoasini birlashtirishi mumkin. Buning uchun adabiyot o'qituvchisi sinfdagi o'quvchilar orasida kimlar etakchi ekanliklarini bexato aniqlay bilishi lozim.

Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining yana bir muhim qirrasini **ilmiy tadqiqotchilik**dir. Adabiyot muallimi badiiy matnni adabiyotshunos olim darajasida tadqiq etish olishi, asarning badiiy xususiyatlarini, o'ziga xosligini ilmiy asoslay bilishi muhim sanaladi.

Adabiyot o'qituvchisining bu kasb xususiyati mashg'ulotlarga tayyorlanish va ilmiy izlanishlari jarayonida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotchilik o'qituvchining aniq ilmiy qarashlarga egaligi va mustaqil fikrlashini ta'minlash bilan birga unga kuchli hamda o'ziga xos tarbiyaviy imkoniyat ham beradi. Negaki, badiiy asarni teran ilmiy tadqiq qila bilish matnning nozik, muhim, ta'sirchan, jozibali, sirli jihatlarini aniqlash, o'ziga xos yangi qirralarini topish orqali o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlar shakllantirishga yo'l ochadi.

Badiiy asar tahlili o'qituvchi ilmiy tadqiqotchiligidan asosidir. Tahlil badiiy asarlarga tayanib amalga oshiriladigan o'ziga xos ijodiy jarayondir. Badiiy ijodning asl jozibasi uning inja sirlari, ichki jihatlari tadqiq etilgandagina namoyon bo'ladi. Badiiy asarda tasvirlangan timsollarning tuyg'ularini o'quvchilar qalbiga joylash, asarning shakli mazmuniga shikast etkazmasdan ularni bolalarning ko'ngliga ko'chirish katta bilim va mahorat talab etadi. Matnning rang-barang badiiy kengliklariga kirib borish faqat tadqiqotchilikni puxta egallagan o'qituvchining qo'lidan keladi.

Adabiyot darslarida, odatda, asar timsollarini sanash, syujetini aniqlash, voqealar mazmunini bayon qilishga ko'p e'tibor beriladi. Natijada, o'quvchilar tomonidan asarning chin badiiy jozibasi anglanmay qoladi, darsning samarasi ham shunga yarasha bo'ladi. Agar o'qituvchi shoh asarni ham o'quvchilarning ichki sezimlariga singdirmasa, dil hamrohiga aylantirmasa, ilmiy mushohadalar asosida uning eng muhim qirralarini ochib berolmasa, asar o'quvchi nazarida hech qanday qimmatga bo'lmay qolaverishi mumkin.

Badiiy matndagi timsollarning ruhiyatiga, tabiat tasvirlariga singdirilgan estetik, axloqiy, ruhiy xususiyatlarni o'quvchilarning botiniy mulkiga aylantirish o'qituvchi tadqiqotchiligidan natijasi bo'lishi lozim. SHuning uchun o'qituvchidan badiiy matndagi har bir so'z va ifodaga sinchkovlik bilan yondashuv talab etiladi. Asarga yuzaki qaralgan, u bilan shunchaki tanishib chiqilgan, syujet va g'oyagagina e'tibor qilingan mashg'ulotlardan samara kutib bo'lmaydi. Adabiyot o'qituvchisi asarning badiiyatiga chuqurroq kirib borishi va yoshlarni ham shunga odatlantirishi kerak.

Inson qalbi bilan go'zal bo'lgani kabi adabiy asar badiiyati bilan qimmatlidir. Ana shu badiiyatni, timsollarning kechinmalarini, tasvirning sirli lavhalarini ochib berolmaslik asarning qimmatini belgilay olmaslikdir.

Asarning tahlili muhim pedagogik tadbirdir. Muallif va asardagi timsollarning tuyg'ulari, ruhiyatini o'quvchilar bilan birga anglashga qaratilgan faoliyatdir. O'qituvchi asar matnini chuqur badiiy tahlil qila bilmas ekan, asar mazmunini qayta

bayon qiluvchi, u haqda axborot beruvchi kimsa bo‘lib qolaveradi. O‘rganilayotgan adabiy matnning chuqur badiiy tahlil etilishi, nafaqat asar mazmunini puxta o‘zlashtirish, balki o‘tilayotgan mashg‘ulotning mazmunli bo‘lishini ham ta’minlaydi. SHuning uchun ikki o‘qituvchining bitta mavzudagi darsi o‘quvchilar ruhiyatiga har xil ta’sir qiladi.

Adabiyot darslarining sifati va samaradorligi o‘qituvchi tadqiqotchiligidan doimiy va uzluksizligiga bog‘liqdir. Adabiyot o‘qituvchisi uchun zaruriy bu jihat oliy o‘quv yurtlari talabalarida shakllantirilishiga e’tibor qaratilishi juda zarur. Bu sifatni egallagan ustoz o‘quvchilarda matn bilan ishlashga ishtiyoq paydo qilish, kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobxonlik madaniyatini kamol topdirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Adabiyot o‘qituvchisining asosiy faoliyat manbasi badiiy asar va badiiy so‘z bo‘lganligi uchun u istalgan badiiy hodisa to‘g‘risida adabiyotshunos olim singari o‘z fikrini ayta olishi, aytganlarini nazariy asoslay bilishi lozim.

Adabiyot o‘qituvchisining **pedagogik amaliyotchilik** faoliyati uning ilmiy tadqiqotchiligiga bir muncha yaqin. O‘qituvchi oliy maktabda va mustaqil tarzda o‘zlashtirgan nazariy va metodik bilimlarini amalda qo‘llay olgandagina adabiyot o‘qitish muayyan samara keltiradi.

Badiiy adabiyotning o‘ziga xosligini saqlagan holda o‘quv adabiyotiga aylantirish, o‘quv tahlilini amalga oshirish, badiiy matnni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, muayyan vaqtdagi ruhiy holatlariga mos ravishda taqdim etish choralarini ko‘rish adabiyot o‘qituvchisidan faqat bilimdon mutaxassisliknigina emas, balki kerakli didaktik tadbirni o‘z vaqtida ko‘ra oladigan tadbirkor amaliyotchi-metodist bo‘lishini ham talab etadi.

Muayyan sinfdagi o‘quvchilarga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan holda yaratilgan sof badiiy asarni mahorat bilan shu sinfdagi bolalar o‘zlashtiradigan o‘quv materialiga aylantirish adabiyot muallimi faoliyatining muhim qirralaridan biridir. CHunki dunyodagi birorta chin badiiy asar muayyan sinfdagi o‘quvchilarga o‘rgatish uchun ularga moslab yozilmaydi. YA’ni badiiy asar o‘z-o‘zicha muayyan pedagogik

yoʻnalishga ega boʻlmaydi. Oʻqituvchi shu xil asarni pedagogik yoʻnalishga solishi lozim boʻladi. Buning uchun u oʻquvchilar ruhiyati va adabiyot nazariyasini chuqur biladigan, badiiy asarlar bilan qiynalmay ish koʻradigan, adabiy jarayondan xabardor, adabiyotshunoslik yangiliklarni kuzatib boradigan bilimdon mutaxassis boʻlishi kerak.

Adabiyot oʻqituvchisi badiiy asarning jozibasini, taʼsirchanligi sabablarini ochayotganda, oʻzining pedagog ekanligini, zimmasida zalvorli tarbiyaviy vazifa turganligini bir zum ham unutmasligi, har doim oʻquv tahlili tushunarli boʻlishiga intilishi lozim. Oʻqituvchining iqtidor, bilim va malakasi pedagogik amaliyotdagina namoyon boʻladi.

Pedagogik amaliyotchilik oʻquv materialini tanlash va yaxlit tizimga keltirish, dars davomida oʻquvchi va oʻzining faoliyati yoʻnalishini belgilash, mashgʻulot uchun nimalardan foydalanish, qanday xulosaga kelish, badiiy asarning oʻquv tahlilini qay yoʻsin amalga oshirish kerakligini belgilashda ham koʻrinadi. Oʻqituvchidan oʻrganiladigan asarning tabiati va oʻquvchilarning ruhiy va bilim darajasiga muvofiq didaktik yoʻl tutish talab etiladi. Ilm amali bilan goʻzal boʻlgani kabi adabiyot oʻqituvchisining pedagogik amaliyotchiligi tinimsiz rivojlanib boruvchi dinamik jarayonga aylangandagina katta samara keltiradi.

YUqorida sanalgan kasbiy sifatlardan tashqari adabiyot oʻqituvchisi faoliyatining samaradorligi uning nutq madaniyati darajasiga, notiqlik mahoratiga ham bogʻliqdir. Oʻqituvchi nutqida uning bilimi, maʼlumotlilik darajasi, ishontirish sanʼati, tarbiyalash mahorati oʻz ifodasini topadi. Oʻqituvchi nutqi oʻquvchi uchun hamisha namuna boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchi unga ergashadi, undan ibrat olishga intiladi. Adabiyot muallimi nutqi nuqsonsiz boʻlishi shart. Adabiyot darslarining muvaffaqiyati, taʼlim-tarbiya ishlarining samaradorligi koʻp jihatdan oʻqituvchining notiqligiga bogʻliq boʻladi. Chunki oʻqituvchi soʻz bilan oʻquvchining ruhiy holatini oʻzgartirishga qodir shaxs.

YUksak tuyg‘ular faqat shaxsdan shaxsga, qalbdan qalbga o‘tadi. Ma’naviy sifatlarni sinf o‘quvchilarining barchasiga ommaviy tarzda etkazish mushkul, shu bois adabiyot o‘qituvchisi o‘z tarbiyalanuvchisi bilan imkon qadar yuzma-yuz, yolg‘iz qola bilishni uddalashi kerak. O‘qituvchining yuksak ma’naviy fazilatlarga egaligi, ustoz bilan shogird o‘rtasida chin insoniy munosabatlar borligi dars samaradorligining muhim asosidir.

Bolalarga muhabbat adabiyot o‘qituvchisining zarur ma’naviy sifatlaridan biridir. Boshqalarga muhabbat har qanday kishini fidoyilikka chorlaydi. Fidoyilikning mahsuli ezgulikdir. Ezgulik o‘zgalar muhabbatiga sazovor bo‘lishning asosi. Adabiyot o‘qituvchisi - o‘quvchilari tomonidan sevilishi shart. O‘quvchilar muhabbatiga sazovor bo‘lishning birdan-biri yo‘li ularga mehr bilan yondashuv va kechirimlilikdir. Qalblar hissiyot va tuyg‘ular vositasidagina bog‘lanadi.

Maktab ta’lim jarayonidagi hamma muvaffaqiyatsizlik va soxtaliklar muhabbatsizlikdandir. Adabiy ta’limda o‘quvchining asl maktabi, avvalo, o‘qituvchi shaxsi, asosiy kitobi esa, o‘qituvchining ma’naviyatidir. Murabbiy shogirdlarining muhabbatini qozongachgina, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladi. Adabiyot o‘qituvchisining shaxsi adabiy ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilishda eng muhim jihat bo‘lib, uning samarali natijalarga erishuvi zarur ma’naviy sifatlarga egaligiga bog‘liq.

Xushmuomalalik ham adabiyot muallimining dars samaradorligini ta’minlovchi muhim ma’naviy fazilatidir. O‘qituvchi mashg‘ulotlari samaradorligini ta’minlashda uning muomala madaniyatiga egaligi muhim o‘rin tutadi. Chunki adabiyot muallimi - o‘quvchi shaxsi ma’naviyatini shakllantirishga tutingan zot. O‘quvchi bilimlarni kitobdan ham o‘zlashtirib olishi mumkin. Biroq, ma’naviyfazilatlar faqat shaxslararo munosabatlar natijasida shakllanadi.

Adabiyot darslarining markazida o‘quvchi shaxsi turadi. Negaki, adabiyot bo‘yicha beriladigan bilim, qilinadigan tahlil, amalga oshiriladigan tadbirlardan asosiy maqsad o‘quvchilarda shaxslik sifatlarini qaror topdirishdan iboratdir. Ma’lumki, o‘quvchilar

qalbini rom etmay, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Bola bilan muomalada soxtalik, yasamalik, quruq jimjimadorlik, sun'iy mehribonlik samara bermaydi. Muomala san'ati samimiylikning, tabiiylikning, insoniylikning haqiqiy mezonlari asosida yuzaga keladi. Bolalar, avvalo, samimiy insonni, muomalali odamni, tengdosh do'stga aylanib keta oladigan kishini sevadilar. Ana shunday **"adabiyot o'qituvchisi darsning asosiy ko'rgazmali quolidir"** (Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 1985. -200 b.).

O'quvchilar o'qituvchiga muhabbati orqali adabiyot fani va badiiy adabiyotga muhabbat qo'yadilar. Xushmuomalalik fanga qiziqish va muhabbat uyg'otishning poydevoridir. Bu sifat har qanday o'qituvchida har qanday bilimdon mutaxassisda ham topilavermaydi. O'quvchilar bilan chin dildan, ochiqchasiga gaplashish ularga o'z so'ziga ishonch uyg'otish adabiyot o'qituvchisini bolalarning yaqin sherigiga aylantirishi mumkin.

Axloqiy jihatdan o'quvchilarning idealiga aylanish va ularni ma'naviy kamolotning yuksak darajalariga tomon ko'tarish pedagogik muomala san'atining samarasidir. O'qituvchining insoniy qiyofasi, ichki dunyosi o'quvchilarga muomala-munosabatida namoyon bo'ladi. Maktab adabiy ta'limi samaradorligiga faqat yangi usulda dars o'tish bilan erishib bo'lmaydi. Darsda samimiy munosabat, qalb harorati bo'lishi kerak. Qalbning yoqimli hissiyot deb atalmish xossasi bor. Muomala san'atiga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchi hissiyotiga ijobiy ta'sir etolmaydi.

Majburlab o'qitish shaxsning hurligini paymol qilish demakdir. O'qituvchining muomala san'atini egallaganligi o'quvchilar ma'naviy fazilatlari va ijodiy imkoniyatlarini to'la namoyon qiladi. Xushmuomalalik asosida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlarning samimiyligi, yaqinligi va o'zaro hurmat yotadi.

Adabiyot darslari tuyg'ular va hissiyotlar asosiga qurilgan mashg'ulotlardir. Boshqa hech bir predmetda hissiyot adabiyot darslaridagichalik muhim o'rin tutmaydi. SHuning uchun ham bolalarni tushunish, ularni his qilish, his tuyg'ularini qadrlash jiddiy ish hisoblanadi. Adabiyot mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish

o'quvchilarning ruhiy holati bilan ham bog'liq. Ko'pchilik o'qituvchilar mashg'ulot o'tishda eng muhim siymo o'quvchi ekanligini unutib qo'yadilar. O'qituvchi mashg'ulotda nimani o'rgatish, qanday usulda o'rgatish borasida ko'p o'ylaydi-yu, qanday kayfiyatdagi o'quvchilarga, qay yo'sinda o'rgatish ustida etarlicha bosh qotirmaydi. Natijada, adabiyot darslarida bola shaxsini shakllantirish masalasi chetroqda qolib ketadi.

Bolaning ko'nglidagi o'zgarishlarni, qalbidagi hayajonni, intilishlarini tushunish ustozni ularning yaqin kishisiga aylantiradi. O'quvchining yaqin kishisiga aylanish eng yuksak natijani egallash demakdir. O'qituvchi o'z shogirdlarining shaxsiyatiga, ichki dunyosiga chuqur kirib borgandagina, tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish ishi samarali kechadi. Pedagogning kasb sifatleri uning ma'naviy fazilatlaridan kuch-quvvat oladi.

O'qituvchining bolalarga, o'z navbatida o'quvchilarning o'qituvchiga muhabbatidan ta'lim tarbiyaning metod va usullari harorat oladi, pedagogik mahorat insonparvarlik hissi bilan to'lgan ustoz qalbidan o'tib sayqal topadi. ***"Tarbiya va ta'lim metodlaridan foydalanadigan o'qituvchining qanday insonligi hisobga olinmasa, uning ko'ngli, qalbi ezgu bo'lmasa, bu metodlarning samarasi haqida bir nima deb bo'lmaydi"*** (Amonashvili SH. A. Olti yoshdan bolalar: "Pedagogik izlanish" to'plami. -T.: "Fan", 1990. -603 b.).

Ta'lim qachondir texnologiyalashib, o'qituvchining qanday shaxsligi ahamiyatsiz bo'lib qolar. Lekin hech qachon, heya qanday interfaol usul adabiyot o'qituvchisi o'rnini bosa olmaydi. Chunki usulning o'zi yurak, tuyg'u va sezimlarga ta'sir ko'rsata olmaydi, binobarin, o'quvchilarda ayni sifatlarni shakllantira bilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Bogdanova O. YU., Leonov S. A., Chertov V. F. Metodika prepodavaniya literatury (uchebnik). -Moskva: "Academa", 2004.

2. Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: «O‘qituvchi»,1967.
3. Rez Z. YA. Metodika prepodavaniya literatury. -Moskva: «Prosveshchenie», 1977.
4. Yo‘ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: «Universitet», 1994.
5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: “O‘qituvchi”, 1996.
6. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. –T.: “Tamaddun”, 2010.
7. Safin D. Musina R. Interaktivnye metody prepodavaniya i ucheniya. –T.: 2007.
8. Keldiyorov R. ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchi kasbiy-ma’naviy sifatlarining o‘rni va uni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari (adabiy ta’lim misolida). 13.OO.O1 - pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya –T.: 2000.

8-mavzu. Talabalarning mustaqil o'quv ishlarini tashkil etish

Reja

1. **Mustaqil ishlarning alohida o‘kuv predmetlari bilan bog‘liq xususiyatlari.**
2. **O‘quvchilarning matn ustidagi mustaqilishlari.**
3. **O‘quvchilarning ijodiy ishlar bilan bog‘liq mustaqilishlari.**

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

8. Zunnunov A.Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi T.: «O‘qituvchi» , 1992y.

9. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy nazariy asoslari. Toshkent. "Oʻqituvchi", 1996 yil.
10. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. - Toshkent, Fan, 2006.
11. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdagi mustaqil ishlar. - T.: Oʻqituvchi, 1996, 19-bet.

Mustaqil ishlarni tashkil etish usullarida taʼlim-tarbiya jarayonidagi oʻrni, ahamiyati, maqsad va vazifalari, metod va prinsiplari bayon etiladi. Mustaqil ishlarni tashkil etish tegishli fan oldiga qoʻygan maqsad va vazifalar bilan chambarchas bogʻliqdir. Masalan, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiyot-shunoslikka kirish, adabiy tanqid, folklorshunoslik, adabiyot oʻqitish metodikasi kabi fanlarni oʻrganishdagi mustaqil ishlar-ni tashkil etish shakl jihatdan yaqin kelsa-da, mazmuniga koʻra bir-biridan tubdan farq qilishi tabiiydir. Ayni mana shu yoʻnalishda taʼlimning turli bosqichlarida oʻtiladigan mavzular rang-barang-ligi ham yondashuvlar xilma-xilligini taqozo etadi. Masalan, 5-sinfda xalq maqollarini oʻrganishda oʻziga xos, lirik asarlarni oʻrganishda yanada boshqacha, kichik epik asarlarni, masalan, hikoyalarni oʻrganishda boʻlakcha topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi.

Bakalavriat bosqichida talabalarning oʻzlari tugʻilib oʻsgan qishloq, tuman va viloyatdagi folklor materiallarini toʻplash, yozib olish va tasnif qilish folklorshunoslik predmeti boʻyicha mustaqil ishlar mazmunini tashkil etishi mumkin. Ilmiy-metodik jurnallardagi, mutaxassislik toʻplamlardagi metodik maqolalar mazmunini oʻqish va tahlil qilish adabiyot oʻqitish metodikasi boʻyicha mustaqil ishlarning bir qismini tashkil eta oladi. Bunday topshiriqlarni ixchamlashgan shaklda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning oʻquvchilariga ham berish mumkin boʻladi. Faqat bu erda

ularning yosh xususiyatlari hamda mavjud ko‘nikma va malakalarining e‘tiborda tutilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil ishlarni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, xususan kompyuter, ayniqsa, «Internet» imkoniyatlaridan foydalanish katta samara beradi.

Badiiy adabiyot matnini o‘qish va uning mag‘zini chaqish mustaqil ishlarning salmoqli qismini tashkil etadi.

Xitoy xalqida bir maqol bor: «Insonning qo‘liga bir dona baliq ber – u bir kun to‘q bo‘ladi, unga baliq tutishni o‘rgat – u butun umri davomida to‘q yuradi»¹.

O‘quvchilarimiz kitob o‘qish metodikasini o‘rgatishga muhtojlik sezishadi. Bu ochiq haqiqatdir. Ko‘pchilik o‘quvchilarining kitob o‘qimasligidan shikoyat qilishadi. Vaholanki, bu o‘quvchilar kitobni o‘qigilari kelmaganligi uchun emas, balki kitobni qanday o‘qishni yaxshi bilmaganlari uchungina o‘qishmaydi. Natijada ko‘plab yaxshi tashabbus va boshlanmalar oxiriga etmay barbodbo‘ladi.

Eng avvalo o‘quvchilarga n i m a n i o‘qishni o‘rgatish kerak. O‘ziga kerakli manba va materiallarni topa olgan o‘quvchi izlayotgan narsasini topa boradi. SHu jarayonda u o‘qituvchining ko‘mak va ko‘rsatmalariga muhtoj bo‘ladi. To‘g‘ri yo‘nalish olgan o‘quvchi bu yo‘lni mustaqil tarzda davom ettirish imkoniga ega bo‘ladi. Q a n d a y o‘qish ham muhim masaladir. Birinchi talablar orasida kitobni oxiriga etkazish shartini keltirish mumkin. Oxiriga etkazilmagan kitob o‘quvchida chala, uzuq-yuluq tasavvur uyg‘otadi. Uning qalbida go‘zallik va zavqning mukammal timsol-larini yarataolmaydi. Buningmuqobilidaro‘parakelgankitobnio‘qish–

«kitobxo‘rlik» ham mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Buning zararli jihatlaridan biri shundaki, har qanday kitobni muayyan maqsadsiz «o‘qib tashlash» natijasizlikka, shunchakilikka olib boradi. Borib-borib bunday kitobxon kitobning – badiiy asarning zavqu nafosatidan butunlay bebahra qoladi. Abdulla Qahhorning «Adabiyot o‘qituvchisi» buning yorqin misollaridan biri bo‘la oladi.

Gyotening mashhur gaplari bor. U shunday deydi: «Ushbu yaxshi odamlar o‘qishni o‘rganish uchun qanchalik ko‘p mehnat va vaqt kerakligini tasavvur ham qilmaydilar. Mening o‘zim bunga 80 yillik umrimni bag‘ishladim va haligacha maqsadimga to‘la erishdim deyaolmayman».

Demak, kitob o‘qish ham o‘ziga xos san’at ekan.

Alisher Navoiy mana shunday san’atkor o‘quvchilarning bir qancha namoyandalarini tasvirlab bergan. Ulardan biri Farhoddir. U kitobxon yigit. Ammo u kitobni shunchaki o‘qimaydi, balki muayyan maqsad bilan o‘qiydi. Kitobni «o‘qib o‘tmak» uning shioridir. Ammo shuning o‘zigina emas, u «uqib o‘tmak» ni ham bosh maqsad darajasiga ko‘tara olgan. Natija ham ayon: uning o‘qigan barcha kitoblari xotirasida mustahkam o‘rnashib qoladi.

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni, YAna ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.

Ne so‘zniki, o‘kub, ko‘ngliga yozib,

¹ Ayzerman L. Pyatdesyat let spustya. Statya pervaya. - // Literatura v shkole, 2006, № 6, s.25. (25-28)

Dema ko‘ngliki, jon lavhiga qozib. O‘qib o‘tmak, uqib o‘tmak shiori, Qolib yodida safha-safhabori¹.

Bunday xususiyat Majnunga ham xosdir: Kun bor edikim besh-o‘nsabaqni
Anglab evurur edi varaqni²

Bu erda takrorlanayotgan bir holatga e‘tibor berish lozim. Farhodda «uqib o‘tish», Majnunda «anglab» varaqlash mutaxassislik ta‘kidlanmoqda. Bu xislatlar kitob o‘qishdagi asosiy nuqtalardan biri bo‘lishi kerakligiga ishoradir. Demak, kitob muayyan maqsad bilan o‘qilishi kerak. Biz bu erda faqat badiiy adabiyotni nazarda tutamiz. O‘quvchi badiiy asarni o‘qir ekan, tegishli soha haqida dastlabki ma‘lumotlarni oladi, yangi hayotiy manzaralar bilan tanishadi, oqibatda uning dunyoqarashi, umumiy madaniy saviyasi kengayadi, o‘z ruhida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni kuzatib, his etib boradi; asar qahramonlari bilan darddoshlik, tuyg‘udoshlikni kechiradi, xuddi shu holat zavqi uni yangi-yangi badiiy asarlarni o‘qishga ilhomlantiradi.

Badiiy asar ustida ishlashdagi asosiy kamchiliklardan biri uni oxirigacha izchil o‘qimaslikda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘pincha oxirgi natija bilan qiziqishadi, shuning uchun ham «o‘rtadagi voqealar» chetda qoladi. Bu besabrlik, chidamsizlik oqibatidir. O‘quvchilarni bunday xususiyatdan ertaroq forig‘ qilish kerak. Buning uchun esa izchil va muntazam faoliyat zarur bo‘ladi. Qoldirib ketilgan sahifalarda mujassamlashgan estetik olam, uning go‘zalliklari o‘quvchilar ongiga, shuuriga etkazilsa-gina tegishli maqsadga erishish mumkin bo‘ladi. Asar qahramon-lariga, voqealar rivojiga, tasvirning o‘ziga xosligiga, ifodala-rning ohorliligiga e‘tibor qaratish, tegishli o‘rinlarni qayd qilish, daftar yoki alohida kartochkalarga ko‘chirmalar olish bu jarayonni mo‘‘tadillashtiradi. U o‘quvchini «kashfiyotchilik» sari boshlaydi.

Erinchoqlik kitob o‘qishdagi asosiy g‘ovlardan biridir. Bu erda gap fikrlashdagi, tasavvur qilishdagi erinchoqlik haqida bormoqda.

Ilmiy, ommabop kitoblarni, gazeta va jurnallarni tez, varaq-lab- varaqlab o‘qish mumkin. Ehtimol u foydali hamdir, chunki u erdagi asosiy maqsad tegishli ma‘lumot va axborotlarni tez va ko‘p topishdan iborat. **Badiiy adabiyotning esa sekin**

o‘qilishi, tushunib o‘qilishi, his etib o‘qilishi shartdir.

Buning uchun esa uni bir marta o‘qishning o‘zi kamlik qiladi. Yaxshi va munosib badiiy asarlar qayta-qayta, takror va takror o‘qilganidagina tegishli ma’rifiy-estetik samarani bera oladi, xolos. S.I.Povarninning yozishicha, «birinchi marta o‘qilayotgan asar yangiligi uchun bizda katta qiziqish uyg‘otadi, bizni fabula qiziqtiradi... Qayta o‘qishda mazkur qiziqishbartarafbo‘ladi, uning o‘rnigabizboshqa, nisbatan muhim bo‘lgan

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Sakkizinchi tom, Xamsa, Farhod va SHirin, Toshkent, Fan, 1991, 175-bet.

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. To‘qqizinchi tom, Xamsa, Layli va Majnun, Toshkent, Fan, 1992, 69-bet.

jihatlariga e'tibor bera boshlaymiz. *Badiiy asarni haqiqiy his etish va anglash badiiy asarni qayta o'qishdagina sodir bo'ladi, xolos*».

Ta'lim jarayonida alohida badiiy asarlar haqida adabiyotshu-noslikda, tanqidchilikda mavjud bo'lgan fikr-mulohazalar bilan ham tanishishga to'g'ri keladi. Ammo bu jarayon, albatta, badiiy asarni o'qib bo'lgandan keyingina amlga oshirilishi joizdir. Aks holda o'quvchi badiiy asarni o'qishdan voz kechib qo'ya qolishimumkin.

9-ma'ruza. Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv rejalari, o'quv metodik, ilmiy-tarbiyaviy ishlarnirejalashtirish

Dars o'quv maqsadi: talabalarga o'quv rejalari, o'quv metodik, ilmiy- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish haqida tushuncha berish, ularning bu sohadagi bilimlarini kengaytirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: o'quv rejasi, o'quv-metodik, ilmiy. tarbiyaviy ishlar mazmuni, rejalashtirish.

Asosiy o‘quv materialining qisqacha bayoni:

Reja

1. **O‘quv rejasi haqidama’lumot.**
2. **O‘quv rejasida mutaxassislik fanlariningo‘rni.**
3. **Ta’lim bosqichlarida alohida (adabiyot) fanlarning o‘rni vaahamiyati**

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

22. Bogdanova O. YU., Leonov S. A., CHertov V. F. Metodika prepodava-niya literatury. Pod redaksiyey O. YU. Bogdanovoy. Uchebnik dlya studentov ped. vuzov. M.: Izdatelskiysentr «Akademiya», 2-e izdanie, stereotipnoe, 2002, - s.136.
23. Yo‘ldoshev Q. Adabiyoto‘qitishningilmiy nazariy asoslari. Toshkent. "O‘qituvchi", 1996yil.
24. Yo‘ldoshev Q. Mukammal o‘quv rejalari-ta’lim samaradorligi garovi. // Filologik ta’lim masalalari (Metodist olimi Tuyg‘un Niyazmetovanning 70 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami).- Toshkent, 2007.16-23-betlar
25. Lvov M.R. Slovar-spravochnik po metodike russkogo yazyka. M.: Prosveshenie,1988.
26. To‘xliiev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, YAngi asr avlodi,2006.

O‘quv rejasi butun ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soladigan me’yoriy hujjatlardan biridir. Unda muayyan ta’lim bosqichida o‘rganiladigan fanlarning umumiy ro‘yxati, ularning yillar, yarim yilliklar davomida o‘rganilish tartibi, hajmi, muddatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Har bir fanning yil va hafta davomida necha soat o‘tilishi ham shu hujjat bilan me’yorlanadi. O‘quv rejalari tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o‘quv yurtlari uchun tuziladigan o‘quv rejalari bir xil bo‘ladi. Uning bajarilishi shu tipdagi o‘quv yurtlari uchun majburiydir. Uning muayyan qismini o‘zgartirish, ijodiy yondoshishga ko‘rsatilgan hajmda o‘zgartirish

kiritish imkoniyatiberilgan.

Ta'limning har bir bosqichida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o'quv fanlarining soni va mazmuni belgilanadi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida

22 ta fanning nomi mavjud. Oliy o'quv yurtlarida yo'nalish va mutaxassislikning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'quv fanlarining tarkibi, mazmuni, uzviyligi va uzluksizligi e'tiborga olinadi. Ularning umumiy ro'yxati Vazirlar Mahamasi tomonidan tegishli vazirlik va boshqaruv organlarining tavsiyasiga ko'ra tasdiqlanadi. O'quv rejasining tuzilishi quyidagicha bo'ladi.

Biz uni magistratura bosqichining **5A 141121-O'zbek adabiyoti mutaxassisligi** ishchi o'quv rejasida misolida ko'ribchiqamiz

Unda dastlab o'quv davrining tavsifi – taqsimoti beriladi. U quyidagicha aks ettiriladi. Dastlab semestrlar miqdori ko'rsatilgan.Ular

– to‘rtta. Demak, bu bosqichdagi o‘qish davri 2 yil bo‘ladi. Birinchi bosqichda ikki semestr, ikkinchi bosqichda ikki semestr o‘qiladi. O‘qishning haftalar bo‘yicha taqsimoti keyingi badda ko‘rsatilgan. Dastlab ularda bevosita o‘qish bilan bog‘liq bo‘lgan ish hajmi ko‘rsatiladi. Demak, birinchi, ikkinchi va uchinchi semestrlarda 20 haftadan, oxirgi semestrda 18 hafta o‘qilishi belgilangan. SHundan keyin nazariy ta‘lim va ilmiy faoliyatning hajmi ko‘rsatiladi. Agar birinchi semestrda jami 20 hafta o‘qiladigan bo‘lsa, shundan 16 haftasi nazariy ta‘limga, 4 haftasi esa ilmiy faoliyatga ajratiladi. YOki ikkinchi semestrda jami 20 hafta o‘qiladigan bo‘lsa, shundan 7 haftasi nazariy ta‘limga, 13 haftasi esa ilmiy faoliyatga ajratiladi. O‘quv davri taqsimotida attestatsiya va davlat attestatsiyasi, shuningdek, ta‘tillar miqdori ham haftalar hajmida ko‘rsatib o‘tiladi Ularning ko‘shilishidan bir semestrda vaqt hajmi yuzaga keladi. Masalan, birinchi semestrda barcha haftalarni o‘zaro qo‘shsak (16+4+1+2) shu semestr uchun ajratilgan umumiy vaqt hajmi (23 hafta) yuzagakeladi.

1. O‘quv davriningtaqsimoti

Seme str	O‘quv yuklamasining haftalar bo‘yicha taqsimoti			Attestatsiya va davlat attesta- siyasi (haftalar)	Ta‘tilla r (haftalar da)	Hammas i (haftal ar)
	Hammas i	Nazariy ta‘lim	Ilmiy faoliyat			
1	20	16	4	1	2	23
2	20	7	13	1	8	29
3	20	7	13	1	2	23
4	18	6	12	3(D)	4	25
Jam i	78	36	42	6	16	100

D – davlat attestatsiyasi

II qism o‘quv jarayoni rejasiga bag‘ishlangan.

Bu erda o‘quv fanlari va ilmiy faoliyat turlari nomi, ularning o‘rganilish tartibi va

hajmi, o'quv yuklamasi (soat va foizlarda), talabning o'quv yuklamasi, soatlarning semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti beriladi. Auditoriyadagi o'quv soatlarining taqsimoti ham shu qismda aks etgan. Jumladan, har bir fan bo'yicha belgilangan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishi, mustaqil ta'limning hajmi va muddatlari mavjud. O'quv rejasida fanlar muayyan turkumlarga ajratib beriladi. Ularni bloklar degan umumiy nom birlashtirib turadi. O'quv rejalarida asosan, quyidagi bloklar mavjud bo'ladi:
(keyingi sahifaga qarang)

№	O'quv fanlari va ilmiy faoliyat turlari nomi	O'quv yuk. soat va foiz-larda		Talabanning o'quv yuklamasi, soatlarda						Soatlarning semestr haftalar yichasi	
				Auditoriyadagi o'quv soatlari						1	2
				Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	laboratoriya ishlari	Seminarlari	Kurs ishlari	ustaqil	20
I	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1.00	<i>Umummetodologik fanlar</i>	723	17	478	214	112	26	126	245	8	10
1.01	Fanlarning falsafiy masalalari	90		60	30			30	30	3	3
1.02	Ilmiy ijodiyot metodologiyasi	90		60	26	12		22	30	3	3
1.03	CHet tili	120		80	20	60			40	2	2
1.04	Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	60		40	14	10		16	20		2
1.05	Axborot texnologiyalari	120		80	44	10	26		4		4

									0		
1.06	Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti	60		40	20	10		10	20		2
1.07	Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar	96		60	30			30	36		
1.08	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat	60		40	20	10		10	20		
1.09	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	27		18	10			8	9		
II	Mutaxassislik fanlari	1221	2	818					403	22	2
2.01	Adabiyot nazariyasining ilmiy-asoslari	120		80	40			40	40		
2.02	Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti	90		60	30	30			30	3	3
2.03	Adabiy tur va janrlar estetikasi	120		80	40	40			40	4	4
2.04	Adabiyot fanlarini o'qitish metodologiyasi	150		100	50	50			50	5	5
2.05	Milliy istiqlol davri adabiyoti	90		60	30	30			30	3	
2.06	Adabiyot va folklor	90		60	30	30			30	3	
2.07	O'zbek	90		60	30	30			30	3	3

	adabiyotshunosl iktarixi									0		
2.08	Tanlov fanlari	471		318						1	7	2

									5		
									3		
V-1	O'zbek romanchiligini ng taraqqiyot tendensiyalari	62	40	20	20				2	2	
	Badiiy tahlil tamoyillari	62	40	20	20				2	2	
	Ijod psixologiyasi	62	40	20	20				2		
	Drama nazariyasi	62	40	20	20				2		
	Bolalar adabiyoti da ijodiy-uslubiy izlanishlar	62	40	20	20				2	2	
	Adabiyotning hozirgi dolzarb muammolari	63	42	22	20				2		2
	XX asr she'riyati	62	40	20	20				2	1	
	Mutaxassislik seminar	36	36				36		1		
									3		
V-2	O'zbek klassik nasri muammolari	104	67	30	20		12		2	1	2
	Manoqiblar tarixi adabiy manba sifatida	104	67	30	25		12		2	1	
	Klassik tarjima muammolari	104	69	30	25		14		2	3	
									0		

	Saroy adabiyoti	123		79	30	25		14	2	2	
	Mutaxassislik seminarlar	36		36				36			
	Hammasi	1944	4	1296					6	30	1
			6						4		2
									8		
III	Ilmiy faoliyat	2268	5	1512					7	6	2
			4						5		4
									6		
3.01	Ilmiy pedagogik ish	540		360					1	6	6
									8		
									0		
3.02	Ilmiy tadqiqot ishi	1239		826					4		1
									1		3
									3		
3.03	Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	489		326					1		5
									6		
									3		
	Jami	4212		2808					1	36	3
									4		6
									0		

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TASDIQLAYMAN

Akademikdara

BuxDU rektori

ISHCHIO‘QUVREJASI

MAGIST

O‘qish muddati – 2y

M.O‘ _»_____200_yil.

Mutaxassislik:5A141121-

Ta’lim shakli

«

O'zbek adabiyoti тақсимоти

kunduzgi

Semest r	O‘quv yuklamasining haftalarbo‘yicha taqsimoti			Attestats iya va davlat attestatsi ya-si (haftalar)	Ta’til- lar (haftalar)	Hamma -si (haf -lar)
	Hammasi	Nazariya’tim	Ilmiy faoliyat			
1	20	16	4	1	2	23
2	20	7	13	1	8	29
3	20	7	13	1	2	23
4	18	6	12	3(D)	4	25
Jami	78	36	42	6	16	100

D – davlat attestatsiyasi

II. O‘quv jarayonining rejasi

DAVLAT ATTTESTATSIYASI
1. Fanlarning falsafiy masalalari
2. Mutaxassislik fani (yoki fanlari)
3. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish

Izohlar:

Ushbu o‘quv rejasi asosida oliy ta’lim muassasasi ishchi o‘quv rejasini tuzadi.

Ma’ruza soatlari hajmi auditoriya vaqtining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Talaba bilimini nazorat qilish va baholash o‘quv yili davomida reyting tizimi asosida amalga oshiriladi.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

O'quv metodik boshqarmaboshlig'i

Fakultetdekani

BuxDU ilmiy kengashida ma'qullangan 200_yil«_»_№____-son libayonnoma.

Umumiy gumanitar hamda ijtimoiy-iqtisodiy fanlar. Ushbu qism barcha yoʻnalish va mutaxassisliklar uchun bir xilda tuziladi. Umumiy matematik va tabiiy fanlar – bu qism ham barcha yoʻnalish va mutaxassisliklar uchun bir xilda tuziladi. Keyingi qism umumkasbiy fanlarni qamrab oladi. Nihoyat mutaxassislik fanlari alohida qismni tashkiletadi.

Oliy taʼlimda professor-oʻqituvchilar tomonidan bajarila-digan oʻquv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar hajmini belgilash boʻyicha vaqt meʼyorlari amal qiladi.

Uning yangi namuna-si Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrtamutaxassislik taʼlim vazirligining 1998 yil

10 iyuldagi 183-sonli «Oliy oʻquv yurtlari professor – oʻqituvchilari tomonidan bajariladigan oʻquv ishlari hajmini belgilash uchun muvaqqat vaqt meʼyorlari va oʻquv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va boshqa ishlar asosiy turlarini tasdiqlash toʻgʻrisida» gi buyrugʻi bilan tasdiqlangan. Unga koʻra oliy taʼlimdagi ish turlari shunday guruhlashtiriladi:



2. Oʻquv-uslubiy ishlar.



3. Ilmiy-tadqiqot ishlari.



4. Tashkiliy-uslubiy ishlar.



5. Maʼnaviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar¹

Oʻquv-uslubiy ishlarga oliy taʼlim bosqichlarida maʼrazular oʻqish, laboratoriya va amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish, yakka tartibdagi mashgʻulot va konsultatsiyalarni oʻtish, oʻquv amaliyotiga tayyorgarlik koʻrish va boshqalar mansubdir.

O‘quv fanlari bo‘yicha konsultatsiyalar, kurs ishlari (KI) va kurs loyihalari (KL) ga rahbarlik, konsultatsiya, taqriz yozish, qabul qilish; Davlat attestatsiya sinovlarini o‘tkazish; talabalarning reyting (nazorat) sinovlarini tekshirish, o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan nazorat, hisoblash- grafik, hisoblash ishlari (namunaviy hisoblashlar, uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish), malaka-viy amaliyotga rahbarlik, hisobotlarni tekshirish va sinovlarni qabul qilish; bakalavriatda bitiruv-malakaviy ishlarga rahbarlik, konsultatsiya, taqrizlash; magistratura talabalarining ilmiy pedagogik faoliyati, malakaviy va pedagogik amaliyotiga rahbarlik, magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlik, magistrlik dissertatsiyasiga opponetlik (taqrizlash), bitiruv ishlari (BI) yokimagistrlik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining «Oliy o‘quv yurtlari professor – o‘qituvchilari tomonidan bajariladigan o‘quv ishlari hajmini belgilash uchun muvaqqat vaqt me‘yorlari va o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va boshqa ishlar asosiy turlarini tasdiqlash to‘g‘risida» gi 1998 yil 10 iyuldagi 183-sonli buyrug‘i. – Oliy ta’lim, Me‘yoriy hujjatlar to‘plami, Toshkent, SHarq, 2001,137-146-bb.

dissertatsiyasi (MD) himoyasi bo'yicha DAK ishida qatnashish, magistratura yoki aspiranturaga nomzodlik minimumi-ni qabul qilish bo'yicha DAK ishida qatnashish, aspirant va tadqiqotchilarga rahbarlik, doktorantga ilmiy maslahatchilik, kafedra-da pedagoglar malakasini oshirishga rahbarlik, sirtqi bo'lim talabalarining yakka tartibda konsultatsiya va yozma ishlarini taqrizlash, malaka oshirish instituti (fakultet) da o'quv mashg'ulotlari o'tkazish o'quv-uslubiy ishlar mazmunini tashkil etadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, hisobotlar tuzish, darslik, qo'llanma, monografiya va maqolalar yozish; ularga taqrizlar yozish yoki ularni tahrir qilish, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoyaga tayyorlash, turli nashrlarning tahrir hay'atida ishtirok etish, oliy o'quv yurti, vazirlik va idoralar boshqaruv organlari qoshidagi komissiyalar ishida; ixtisoslashgan kengashlar, ilmiy-uslubiy kengashlar ishlarida qatnashish, shuningdek, talabalar ilmiy ishlariga rahbarlik qilish kiradi.

Ilmiy-metodik ishlar mundarijasiga ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik; yangi ma'ruza matnlari, mashqlar va masalalar to'plamlari, laboratoriya praktikumlarini yozish, ishlab chiqish, nashrga tayyorlash; darslik va o'quv qo'llanmalarini yozish, nashrga tayyorlash (OO'MTV grifi bilan); yangi metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish va nashrga tayyorlash; yangi laboratoriya ishlarini qo'yish va amaldagilarini yangilash; talabalar bilimini reyting-nazorat uchun yangi variantlar ishlab chiqish; in-terfaol o'quv mashg'ulotlari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni ish-lash va joriy qilish; fanlar namunaviy o'quv dasturini ishlab chiqish; ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish; elektron o'quv darsliklar va multimedia ta'lim vositalarini ishlab chiqishda qatnashish; ta'lim jarayoniga AKT joriy etish bo'yicha kompyuter dasturlarini tuzish; O'quv fani bo'yicha yangi adabiyotlar obzorini tuzish; talabalarni olimpiada va ilmiy konferensiyaga tayyorlash; oliy ta'limga o'quv materiallari tayyorlash (kompyuter va televizion dasturlar); Iqtidorli talabalar uchun topshiriqlar tuzish va nazorat ishi, uy vazifalari, yakka tartibdagi laboratoriya ishlari bo'yicha materiallar to'plash, ochiq o'quv mashg'ulotlari (ma'ruzalar) o'tkazish kabi ish turlarimansubdir.

Tashkiliy-uslubiy ishlar quyidagilardan iborat: OO'YUga ki-rishda yoshlar bilan

kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish (hi-sobot taqdim etish bilan); qabul hay’atida ishlash; kafedra, OO‘YU, fakultet Kengashlarida, ilmiy-metodik kengash (o‘quv-metodik kengashi) lar ishida ishtirok etish va materiallar tayyorlash.

Ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar esa quyidagi ish tur-larini qamraydi:

Akadem guruhlarda ma'naviy-axloqiy va tar-biyaviy ishlarni yakka va umumiy tartibda olib borish, guruh rah-barligi, konferensiyalarni tayyorlash va o'tkazish ishlari, talaba-lar uylarida kechki vaqt va dam olish kunlari tarbiyaviy ishlar o'tkazish, turli ma'ruza va suhbatlar uyushtirish, klublar, ijodiy to'garaklar, sport seksiyalari va to'garak ishlarini tashkil etish, olib borish va boshqalar.

Har bir professor-o'qituvchining ish rejasi konkret ish sha-roitidan kelib chiqqan holda individual tarzda tuziladi. SHuning uchun ham ulardagi ish turlari orasidagi hajm va shakllar bir-birlarinikidan farqli bo'lishi mumkin.

«2007-2008 o'quv yili uchun ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv yukla-malarini tuzish va o'quv jarayonini tashkil qilishga oid uslubiy qo'llanma» da: «O'zbekiston Respublikasi

«Kadrlar tayyorlash mil-liy dasturi»ning uchinchi bosqichiga o'tildi.. Bunda uzluksiz ta'-lim tizimining barcha turlarida joriy etilgan me'yoriy hujjat-lar asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish, samaradorligini oshirish har bir ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini tashkil qilish, sifatli bo'lishini ta'minlash ko'p jihatdan davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv rejalar asosida o'quv yi-lining boshlanishidan avval o'quv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, rejalashtirish, kafedralar o'quv yuklamalarini to'g'ri taq-simlashga bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'r-ta mutaxassislik ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan vaqt me'yorlari, Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari (Toshkent 2004 yil) asos bo'ladi. Lekin shu bilan bir qatorda Oliy va o'rta mutaxassislik ta'-lim vazirligi tomonidan joriy etilgan me'yoriy hujjatlar har bir Oliy o'quv yurtiga o'zining xususiyatidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish vakolatlari ham berilgan»¹, - deyiladi. SHu hujjatda professor o'qituvchilarning o'quv yuklamalariga oid taxminiy jadval ham berilgan. Ungako'ra:

Mutaxassislik fanlari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim, litsey va kasb-hunar

kollejarining o'quv rejalari bilan mukammal tani-shish, o'quv metodik, ilmiy-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy talab nuqtai nazaridan rejalashtirish o'ziga xos xususiyatlargaega.

O'quv rejalarida har bir fan uchun ajratilgan soatlarning hajmi ham, ularning qanday taqsimlanishi ham ko'rsatib berilgan. Biz bu erda misol sifatida magistratura bosqichidagi o'quv rejasi bilan tanishib chiqamiz U erda kasbiy-ta'lim dasturining ish si-g'imi 4536 soat qilib belgilangan. Ular 6 blokka ajratilgan. Bi-rinchi blokka Gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy fanlar kiritil-gan (162 soat). Ular ikki qismdan iborat bo'lib, tabiiy, gumanitar va texnik fanlarning falsafiy masalalari hamda ilmiy ijod uslubiyatini qamrab oladi. Ikkinchi blok matematik va tabiiy

fanlardan iborat. U o'z ichiga fan, texnika va ta'limdagi axborot texnologiyalarini qamraydi (135 soat).

Uchinchi blok yo'nalish fanlari (243 soat) hamda to'rtinchi blok Ixtisoslik fanlaridan (1728) iborat.